berilip tiykarǵı tonlıqtı belgileydi. XVIII ásriniń basında saz ásbablıq muzıkası tarixiyında jańa dáwir baslandı. Muzıka kórkem ónerinde jańa dáwirniń ózine tán ózgeshelikleri boldı. Bul waqıtqa kelip, orkestr kapellaları, konsert sólkemleri kibi demokratiyalıq mádeniyat oshaqları payda boldı. Vena, London, Parij, Drezden, Milanda kóplegen saray orkestr kapellaları hám kishi kamer ansarnblleri saz ásbablıq mádeniyatınıń orayına aylandı. Ataqlı kompozitorlar bir waqıtta óz dáwiriniń tanıqlı atqarıwshıları boldı: Skarlatti — talantlı klavesinshi, Bokkerini — talantlı violonchelshi, Vivaldi — talantlı skripkash. Motsart bolsa klavesin hám fortepianoda atqarıwshılıq sheberligi menen tınlawhılardı tań qaldırdı. XVIII ásir saz ásbablıq muzıkasınıń áhmiyetli ózgeshelikleriniń biri gomofon-garmoniyalıq usılda edi. Kamer ansarnblleri ushın jaratılǵan muzıka hám orkestr ushın jazılǵan muzıkalar arasında sezilerli parıq joq, biraq saz ásbablıq muzıkası áste aqırın biyǵárez janrlar — sonata, kvartet, trio, simfoniyalar óziniń formaların taptı. XVII ásir saz ásbablıq muzıkası tarawında oziniń janrlıǵı menn (sonata, trio, kvartet, konsert, simfoniya) «sonata-simfoniyalıq cikl» deb atalıwshı janrlar, tiykarınan, novatorlıq alıp kiriwshi waqıya boldı. Sonata-simfoniyalıq cikl, ádette, úsh yamasa tárt (sonata allegrosi, awır jay bólim, menuet, final) ayırıqsha bólimlerdiń biri edi. Sonata-simfoniyalıq cikldıń payda bolıwı tayyarlanǵan edi. Onıń negizi italiya hám fransuz operası uverturaları menen baylanıslı. Bir-birine qarama-qarsı qoyılıwshı bólimler almasatıwın oyn suitası málim áhmiyetke iye boldı. Fransiyalıq klavesinshiler Kuperen, Ramo, sondayaq, I.S.Bax suitaları edi. Suitanıń bólimleriniń biri — menuet — keyinala klassik sonata-simfoniyalıq cikldiń bólimine aylandı. A.Vivaldi, A.Korelli, G.F.Gendeldiń orkestr konsertleri, I.S.Baxtıń Brandenburg konsertleriniń bolıwı múmkin. XVII ásirniń birinshi yarımındaǵı Italiya saz ásbablıq muzıkasına ayırıqsha toqtap ótiw kerek. D.Skarlattidiń bir bólimli sonataları eski sonata formalarınan sonata allegrosınan ótiw basqıshı sıpatında payda boladı. Gluktiń ustazı J.Sammartinniń dóretiwshiligi

orkestr simfoniyasınıń formalarında áhmiyetli orıńǵa iye boldı. Klavesin hám klavikord saz ásbablarınıń dawıs shıǵıw usılları bir birinen ajıralıp turadı. Klavikordda tangent dep atalıwshı temir plastinkaları tarǵa tiyiwden dawıs payda boladı. Klavikordda klavesinge qaraganda dawıs shıǵıw imkaniyatı kúshli bolıp, dawıstıń bálent – pásliǵı atqarıwshılıǵına baylanısh bul saz áspabınıń ózgesheligi. Klavesinniń dúzilisi klavikorddan ajıralıp turadı. Klavesinde tarlar klavish penen birlestirip ornatılǵan qálemsheler yaki tilsheler járdeminde terbelisedi. Klavesinniń dawısı jaǵımlı boladı. Saz ásbaptıń dúzilisi onda dawıslardı bir-birine baylanıstırıw (legato), sondayaq, dawıstı áste - aqırın bálentletiwsi yamasa páseytiriwshi (crescendo, diminuendo) imkaniyatı bolmaydı. Klavesinde fortepianoǵa qaraganda diapazonı kishi hám zamanagóy pedalı bolmaǵan. Rekonstruksiyalanǵan klavesin saz áspabında eki klaviatura hám pedalı bolǵan. Hár pedal bir klaviatura bir : forte yamasa piano dawıs kúshine iye bolǵan. Ataqlı klavesinshiler, eki klaviatura hám registrlerden sheberlik penen paydalanıp, rán-báreń ırǵaqlardı, túrli jaǵımlı seslerde atqarǵan. klavesinler kúshli dawısqa-ıye bolǵan hám onı konsert saz ásbabı dárejesine alıp shıqqan.

Óziniń shegaralanǵan imkaniyatlarına qaramastan, klavesin joqarı registrdae óziniń jaǵımlı tembrine iye. Klavesin kórkem óneri XVII-XVIII ásirlerde rawajlanıwdıń bálent shıńına shıqtı. XVIII ásirde Italiya operasında uvertura simfoniya atı menen júrgizilgen. Sammartini birinshi ret uverturanı operadan

ajratdı hám onıń úsh bólimli dúzlisin saqlap qalǵan halda erkin janrg a aylandırdı.

Klassik simfonizmniń payda bolıwında Mangeym qalasında jasaǵan hám «mangeym mektebi» dep atalǵan simfoniya mektebin jaratǵan chexiyalıq dóretiwshiniń xızmeti úlken boldı. Onıń basında chexiyalıq sazendeler — skripkashılar, kapelmeysterler hám kompozitorlar turadı. Yan Vatslav, Antonin Stamits hám Frantishek Ksaver Rixter mangeym mektebiniń salıwshılar. Mangeym mektebi klassik orkestrniń jana túrge ótiwi ámelge asırdı — basso continue (klavesin yamasa organniń májbiri birigiwimenen) eski orkestr usılı payda bjldı. Yan Stamits tárepinen dúxilgen orkestr quramındaǵı saz ásbapǵa 30 tarlısaz áspabı , 2 fleyta, 2 goboy, 2 taibla, 4 valtorna, litavralar kiritildi. Mangeym mektebiniń simfoniya shıǵıwı birinshi ret orkestr quramına klarnet saz ásbabın kiritti. Y.Stamitstıń XVIII ásirdeń 40-jıllarında jaratılǵan tmamlanǵan tórt bólimli simfoniyaqlıq cikl qalıplesti, (sonata allegrosı, awır bólim, menuet, shaqqan final). XVIII ásir klavir muzikasınıń rawajlanıwında «berlinlik» yaki «gamburglik» Bax dep atalǵan Filipp Emmanuil Baxtıń dóretiwshiligi júda úlkn áhmiyetke iye boldı. Onıń dóretiwshilik jónelisi kóp tárepligi menen óziniń ullı atası — I.S.Bax ámelge asırǵan islerge qarama-qarsı edi. F.E.Bax klavir ushın úhs júzge jaqın (sonatalar, konsertlar, fantaziyaqlar, kishi kólemdegi ) shıǵarmalar jarattı. Klavir sonatası tarawında F.E.Bax joqarı nátijelerge eristi hám Gaydn, Motsart hám Betxovenniń klassik fortepiano sonatalarına jol ashıp berdi.

### Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. A.X Trigulova Xorijiy musıqa adabiyoti. Toshkent - «ILM ZIYO» - 2009.
2. И.Прохрова. Музыкальная литература зарубежных стран. М., «Музыка»1977.
3. Б.Левик. Музыкальная литература зарубежных стран. Вып 2,3,4,5. М., «Музыка»1972.1973.1975.

**REZYUME.** Maqalada XVII-XVIII ásirde saz ásbablıq muzikasınıń tariyxı. Simfoniyaqlıq orkestr, kamer ansamblleri, polifoniyaqlıq muzıka ushın jaratılǵan muzıkalar janrlar sonata, kvartet, trio, simfoniyaqlar haqqında sóz etiledi.

**РЕЗЮМЕ.** В статье рассматривается история инструментальной музыки в XVII-XVIII веках. Обсуждаются жанры, созданные для симфонического оркестра, камерных ансамблей, полифонической музыки, включая сонаты, квартеты, трио и симфонии.

**SUMMARY.** The article discusses the history of instrumental music in the 17th-18th centuries. Music created for symphony orchestra, chamber ensembles, polyphonic music, and genres such as sonata, quartet, trio, and symphony are discussed.

## HAYOTIMIZDA MADANIY MUSIQANING TUTGAN O‘RNI

**T.Bermaxanova** – o‘qituvchi

*Nukus shahri Xalq ta’limi bo‘limiga qarashli 3-sonli umumta’lim maktabi*

**Tayanch so‘zlar:** madaniy musiqa, musiqa ta’limi, musiqa o‘qitish metodikasi, musiqiy tarbiya, milliy musiqa merosi, estetik tarbiya, musiqa o‘qituvchisi, innovatsion yondashuv, musiqiy savodxonlik, ma’naviyat.

**Ключевые слова:** культурная музыка, музыкальное образование, методика преподавания музыки, музыкальное воспитание, национальное музыкальное наследие, эстетическое воспитание, учитель музыки, инновационные технологии, музыкальная грамотность, духовность.

**Key words:** cultural music, music education, music teaching methodology, musical upbringing, national musical heritage, aesthetic education, music teacher, innovative approach, musical literacy, spirituality.

Musiqa insoniyat tarixida eng qadimiy san’at turlaridan biri bo‘lib, u inson ruhiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Musiqa nafaqat estetik zavq bag‘ishlaydi, balki insonning ichki dunyosini tarbiyalaydi, uning qalbida ezgulik, go‘zallik va mehr tuyg‘ularini uyg‘otadi. Ayniqsa, yosh avlod tarbiyasida musiqa san’atining o‘rni beqiyosdir. Bugungi globallashuv davrida turli madaniy oqimlar yoshlar ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sharoitda milliy musiqiy merosimizni asrab-avaylash va uni o‘quvchilar ongiga singdirish muhim vazifaga aylanadi. Musiqa orqali o‘quvchilarda milliy g‘urur, vatanparvarlik va qadriyatlarga hurmat hissi shakllanadi. Respublikamizda musiqa ta’limi metodikasini shakllantirishda mahalliy olimlar, metodistlar hamda tajribali o‘qituvchilarning olib borgan izlanishlari va yaratilgan o‘quv qo‘llanmalarining ahamiyati juda katta bo‘ldi. Pedagogika sohasidagi so‘nggi yutuqlar tinglovchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash, ularni metodik bilim va malakalar bilan qurollantirish hamda musiqa o‘qitish metodikasini egallashga yordam berishni asosiy maqsad qilib qo‘ygan. Bu maqsadga erishish uchun amaliy mashg‘ulotlar jarayonida uzoq davom etadigan ijodiy mehnat talab etiladi. Ta’kidlash joizki, maktabda o‘quvchilarning yosh fiziologik xususiyatlari, ko‘nikmalari va

ilmiy tajribalarini hisobga olgan holda musiqa o‘qitish metodikasi qo‘llaniladi. Bu jarayonda ta’lim usullari, o‘quv materiallari (o‘quv reja, dastur), ta’lim tamoyillari hamda tarbiyaviy ishlarning umumiy maqsad va vazifalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabda musiqa darslari o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Qo‘shiq kuylash, cholg‘u asboblari ijro etish, musiqani tinglash va tahlil qilish orqali o‘quvchilar estetik didga ega bo‘ladilar. Musiqa mashg‘ulotlari bolalarda jamoaviylik, intizom va o‘zaro hamkorlik ko‘nikmalarini ham shakllantiradi. Xususan, xor jamoalarida kuylash bolalarning bir-birini tinglash, uyg‘unlikda ishlash va mas’uliyatni his qilishiga yordam beradi. Bu esa ularning kelajak hayotida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, musiqa o‘qitish metodikasi o‘quvchilarni musiqa san’atiga o‘rgatishning mazmuni, vazifalari va metodlarini o‘rganuvchi, shuningdek o‘quv jarayonini tashkil etuvchi shakl va yo‘llarni belgilovchi fan hisoblanadi. “Metodika” so‘zi yunoncha bo‘lib, “izlanish yo‘li”, “bilim olish usuli” degan ma’noni anglatadi va ta’lim-tarbiyaning alohida bo‘limi sifatida qaraladi. Ularning yig‘indisi musiqa o‘qitish metodlari deb ataladi. [1] Musiqa ta’limi fanida maqsad va vazifalarni amalga oshirish o‘qituvchining professional va axloqiy tarbiyasiga bevosita

bog'liqdir. Har qanday san'atkor ham maktabda musiqa darsini olib bora olmaydi. Buning uchun musiqa o'qituvchisi o'z kasbiga va bolalarga mehr qo'ygan, yuksak madaniyatli, keng dunyoqarashga ega shaxs bo'lishi kerak. Bugungi musiqa o'qituvchisi faqat dars beruvchi emas, balki tarbiyachi, tashkilotchi va ijodkor shaxs bo'lishi lozim. U zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llay olishi, interaktiv metodlardan foydalanishi, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undashi kerak. Shuningdek, musiqa o'qituvchisi milliy va jahon musiqasidan namunalarni taqqoslab o'rgatishi, o'quvchilarga san'atni chuqur anglash imkonini yaratishi zarur. Musiqa o'qituvchisi pedagogika, psixologiya, bolalar fiziologiyasi, etika va estetika nazariyasi, musiqa nazariyasi hamda musiqa o'qitish metodikasi fanlaridan chuqur bilimga ega bo'lishi zarur. Shuningdek, u musiqa san'atining nazariy va amaliy yo'nalishlarini yaxshi bilishi, cholg'u chalishi, qo'shiq kuylashi, xor dirijyorligi hamda musiqa amaliyotchisi sifatida faoliyat yurita olishi lozim. Musiqa o'qituvchisining ijodkorligi shundaki, u bir soatlik dars jarayonida ssenariy muallifi, ijrochisi va rejissyori sifatida faoliyat yuritadi. Shu sababli musiqa darsi ko'pincha san'at darsi deb ataladi [2].

Maktab hayotida musiqa o'qituvchisining faoliyati juda keng qamrovli bo'lib, faqat dars bilan cheklanib qolmaydi. Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasi turlarini tashkil etish va boshqarish ham uning zimmasidagi vazifadir. Maktabda musiqa tarbiyasining ommaviy shakllari – san'atkorlar bilan uchrashuvlar, ma'ruza-konsertlar, shoirlar bilan ijodiy kechalar, “Navro'z” bayramlari, “Alifbe” bayramlari, “Musiqa haftaliklari”, “O'zbekiston – Vatanim mening”, “Ilhom buloqlari” kabi ko'rik-tanlovlar va turli bayram tadbirlarini uyushtirish musiqa o'qituvchisining muhim vazifalaridan biridir [3]. Shuningdek, maktabdan tashqari musiqa tarbiyasi markazlari – bolalar musiqa maktablari, o'quvchilar saroylari, bolalar teatrlari bilan hamkorlik qilish, iqtidorli o'quvchilarni ushbu muassasalarga jalb etish va ularning iste'dodini maktab hayotida namoyon qilish ham musiqa o'qituvchisining vazifasiga kiradi [4].

Musiqa fani bo'yicha ham barcha o'quv predmetlari kabi konsepsiya ishlab chiqilgan. Dastur mazmunida milliy musiqa merosidan keng foydalanish, xalq kuy va qo'shiqlari, maqom, shashmaqom, dostonlar hamda zamonaviy musiqa namunalarni o'rgatish ko'zda tutilgan. Musiqa ta'limi jarayonida metodika fanining ahamiyati juda katta bo'lib, u o'quvchilarning musiqiy dunyoqarashini shakllantirish, ularning estetik didini rivojlantirish hamda san'atga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Metodika orqali musiqa darslari faqatgina qo'shiq kuylash yoki kuy tinglash bilan cheklanib qolmaydi, balki o'quvchilarning ongida musiqiy tafakkur, musiqiy idrok va badiiy his-tuyg'ularni tarbiyalaydi. Maktab ta'limida musiqa darslari o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich tashkil etilishi zarur. Masalan, boshlang'ich sinflarda musiqa mehri uyg'otish, sodda xalq qo'shiqlarini o'rgatish va ritmik harakatlar orqali musiqani his etish muhim bo'lsa, yuqori sinflarda musiqiy asarlarni tahlil qilish, kompozitorlar ijodi bilan tanishtirish va murakkab janrlarni anglashga e'tibor kuchayadi. Musiqa madaniyatining markaziy yo'nalishlaridan biri bu milliy musiqa merosini yosh avlod ongiga singdirishdir. O'zbek va qoraqalpoq xalq musiqasi, maqom san'ati, shashmaqom, doston va xalq qo'shiqlari o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani saqlash va qadriyatlarga hurmat ruhini tarbiyalaydi. Bugungi kunda yoshlar turli ommaviy madaniyat ta'sirida qolayotgan bir paytda, milliy musiqa tarbiyasi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki musiqa inson ruhiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan san'at turi bo'lib, u orqali ma'naviy poklik, go'zallikka intilish va vatanparvarlik tuyg'ulari shakllanadi. Musiqa darslarida milliy kuy-qo'shiqlardan foydalanish o'quvchilarni ajdodlarimizning boy madaniy merosi bilan tanishtiradi, ularni o'z xalqining san'atiga mehr qo'yishga undaydi. Shu bilan birga, milliy musiqa orqali yoshlarning ma'naviy immuniteti mustahkamlanadi. Hozirgi davrda musiqa ta'limi tizimi ham zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan boyitilmoqda. Interaktiv metodlar, multimedia vositalari, audio va video materiallardan

foydalanish musiqa darslarining samaradorligini oshiradi. Masalan, dars jarayonida kompozitorlar hayoti va ijodini slaydlar orqali ko'rsatish, musiqa asarlarini sifatli audio yozuvlarda tinglash, musiqiy viktorinalar va ijodiy topshiriqlar tashkil etish o'quvchilarning qiziqishini kuchaytiradi. Shuningdek, musiqa o'qituvchisi zamonaviy yondashuv asosida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, musiqiy asarlarni tahlil qilishga va ijodiy faoliyatga jalb qilishi zarur. Chunki musiqa darslari faqat tinglash emas, balki o'quvchining ichki dunyosini boyitadigan tarbiya vositasidir. Shu sababli musiqa o'qituvchisi metodik bilimlarga ega bo'lishi, dars jarayonini didaktik tamoyillar asosida qurishi hamda o'quvchilarning ijodiy faolligini oshiradigan usullarni qo'llashi lozim. Yangi dasturlar o'ziga xos jihati shundaki, musiqa madaniyati fanining asosini tashkil etuvchi musiqiy savodxonlikni shakllantirish uchun musiqa diktatsiyasi, ifoda vositalari, musiqa shakllari, asarning tuzilishi va rivojlanishi kabi bilimlar chuqur o'rgatilishi talab qilinadi. Shunday ekan, musiqa o'qituvchisi o'zining musiqiy-nazariy bilimlarini doimiy ravishda rivojlantirib borishi lozim. Chunki yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularning ma'naviy dunyosini boyitish, estetik didini shakllantirish jamiyat va davlat tomonidan

qo'yilgan muhim vazifalardan biridir. Musiqa ta'limining samaradorligini ta'minlashda, o'quvchilarning musiqa darsiga bo'lgan qiziqishini oshirishda o'qituvchi yetakchi shaxs hisoblanadi.

Musiqa ta'limining muvaffaqiyati avvalo o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liqdir. Musiqa o'qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki ijodkor, tarbiyachi va tashkilotchi shaxs bo'lishi kerak.

U o'z fanini mukammal bilishi bilan birga, o'quvchilarning psixologik holatini tushunishi, ularning qobiliyatlarini aniqlay olishi va har bir o'quvchiga individual yondasha bilishi lozim. Musiqa o'qituvchisi dars davomida emotsional muhit yaratishi, o'quvchilarni ruhlantira olishi va musiqaga bo'lgan muhabbatni shakllantira olishi zarur. Aynan shunday yondashuv orqali musiqa darslari o'quvchilar uchun eng qiziqarli va unutilmas mashg'ulotga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, musiqa inson hayotida muhim ma'naviy va tarbiyaviy kuchga ega bo'lib, yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda katta rol o'ynaydi. Musiqa ta'limini samarali tashkil etish esa o'qituvchining bilim, mahorat va ijodkorligiga bog'liqdir. Shu sababli musiqa o'qituvchisi doimiy izlanishda bo'lishi, o'z ustida ishlashi va o'quvchilarga san'at olamini sevdirishi kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xo'jayeva M. X. Musiqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari (Namunaviy o'quv dasturi). – Toshkent, 2001.
2. Rahimov Q. Musiqaning elementar nazariyasi bo'yicha mashq va vazifalar to'plami. – Toshkent: O'zbekiston, 2006.
3. Harnum, Jonathan. Basic Music Theory: How to Read, Write, and Understand Written Music. – 2001. – 130 b.
4. О. В. Пивницкая. Джазовое сольфеджио в системе современного музыкального образования URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/dzhazovoe-solfedzhio-v-sisteme-sovremennogo-muzykalnogo-obrazovaniya>

**REZYUME.** Ushbu maqolada hayotimizda madaniy musiqaning tutgan o'rni, musiqa ta'limi metodikasining shakllanish jarayoni hamda umumta'lim maktablarida musiqa fanini o'qitishning mazmuni va vazifalari yoritilgan. Shuningdek, musiqa o'qituvchisining professional kompetensiyasi, ijodiy yondashuvi va tarbiyaviy faoliyatining ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada milliy musiqa merosidan foydalanish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarda estetik did, ma'naviy dunyoqarash va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье рассматривается роль культурной музыки в жизни общества, процесс формирования методики музыкального образования и особенности преподавания

музыки в общеобразовательных школах. Анализируется значение профессиональной компетентности и творческого подхода учителя музыки, а также его воспитательная функция. Особое внимание уделено использованию национального музыкального наследия и современных педагогических технологий в формировании эстетического вкуса, духовного мировоззрения и патриотических чувств у учащихся.

**SUMMARY.** This article discusses the role of cultural music in human life, the development of music teaching methodology, and the main objectives of music education in secondary schools. It highlights the professional competence and creative activity of music teachers in the educational process. Special attention is paid to the use of national musical heritage and modern pedagogical technologies in shaping students' aesthetic taste, spiritual worldview, and patriotic values.

## VOKAL - XOR ATQARÍWÍNDÁ DEM ALÍW ÚSTINDE ISLEW

**Embergenova Gulayda Aytbayevna** – *docent w.w.a*

*Ózbekstan mámleketlik kórkem óner hám mádeniyat institutı Nókis filiali*

**Tayanch so‘zlar:** xor texnikasi, aniq nafas, xor bilan ishlash metodikasi, ansambl, vokal-xor ijrochiligi.

**Ключевые слова:** хоровая техника, певческое дыхание, методика работы с хором, ансамбль, вокально-хоровое исполнительство.

**Key words:** choral technique, vocal breathing, choral work methodology, ensemble, vocal-choral performance.

Xor texnikası sistemasında qosıqshılıq dem alıwı oraylıq orındı iyeleydi, sebebi ses turaqlılıǵı, frazalardıń sozılıwı hám atqarıwdıń ansambl birligin anıqlaydı. Jámaát bolıp qosıq aytıw sharayatında dem alıw ayrıqsha áhmiyetke ie bolıp, xordıń barlıq qatnasıwshılarınıń háreketleriniń bir waqıtta hám muwapıq bolıwın talap etedi. Xor atqarıwshılıǵı hám pedagogikalıq ámeliyattıń zamanagóy talapların esapqa alǵan halda dem alıw ústinde islew metodikasın jetilistiriw zárúrligi menen baylanıslı. Xor atqarıwshılıǵında qosıqshılıq dem alıw mashqalaları K.B.Ptica, V.G.Sokolov, A.A.Egorov miynetlerinde sawlelendirilgen. Izertlewshiler vokal tayanışı hám ansambl jańlawınıń qalıplesiwinde dem alıwdıń jetekshi rol atqarıwın atap kórsetedi. Zamanagóy metodikalıq jumıslarda xor jazıwı ushın eń fiziologiyalıq jaqtan tiykarlangan diafragma-qabırǵa dem alıwınıń zárúrligine itibar qaratilǵan. Sonıń menen birge, ilimiy ádebiyatlarda jámaátlik atqarıw sharayatında dem alıw kónlikpelerin qalıplestiriwdiń basqıshpa-basqısh metodikası jeterli dárejede islep shıǵılmaǵanlıǵı atap ótilgen. Izertlewdiń metodologiyalıq tiykarın sistemalı hám iskerlik kózqarasları quraydı. Jumısta ilimiy-

metodikalıq ádebiyatlardı talqılaw, repeticiya procesin pedagogikalıq baqlaw, sonday-aq, xor dirijyorlarınıń ámeliy tájiriyesin ulıwmalastırıw usıllarınan paydalanıldı. Izertlew nátiyjeleri kelisilgen dem alıw tembrdi teńlestiriwge, dúzilisti turaqlastırıwǵa hám xordıń ansambl anıqlıǵın asırıwǵa xızmet etetuǵının tastıyıqlaydı. Bunda dem alıw hám dawıs baslanıwın muwapıqlastırıwshı dirijyor isharaı áhmiyetli orındı iyeleydi. Dem alıw ústinde islewdiń baslanǵısh basqıshında dem alıwdıń diafragma-qabırǵa túrine tayanıp shawqımsız, aktiv dem alıw kónlikpesin qalıplestiriw úlken áhmiyetke iye. Ámeliyat kórsetti, deneniń "ishki keńeyiw" sezimine itibar beriw qısılıwları saplastırıwǵa járdem beredi hám erkin ses payda etiw ushın sharayat jaratadı. Xor jaǵdayında dem alıwdıń sinxronlıǵına erisiw ayrıqsha qıyınshılıq tuwdıradı, sebebi jámaát qatnasıwshılarınıń tarqalǵan dem alıwı kiris sózlerdiń anıqlıǵı hám ansambl birligine unamsız tásir kórsetedi. Ámeliyattı tallaw nátiyjesinde dem alıw ústindegi jumıstı basqıshpa-basqısh shólkemlestiriwde eń turaqlı nátiyjelerge erisilgeni kórsetildi. Dáslepki basqıshpa shawqımsız, únemli dem alıw kónlikpesi hám dem alıwda tayanısh sezimi qalıpleseı.

Keyingi basqishta dem alıw muzikalıq frazalaw, dinamika hám agogikağa birlestiriledi. Alınğan nátiyjeler, dem alıw ústindegi jumıs epizodik túrde emes, al sistemalı túrde, shıǵarmanı úyreniw hám kórkem qayta islewdiń barlıq basqıshlarında ámelge asırılauıǵın metodikanıń eń nátiyjeli ekenligi haqqında juwmaq shıǵarıwǵa múmkinshilik beredi. Repeticiya procesiniń bunday shólkemlestiriliwi dem alıw kónlikpeleriniń avtomatlastırılǵan dárejege ótiwine hám kórkem-túsindiriw wazıypalarına boysınıwına járdem beredi. Izertlew nátiyjeleri kelisilgen dem alıw tembrdi teńlestiriwge, dúzilisti turaqlastırıwǵa hám

xordıń ansambl anıqlıǵın asırıwǵa xizmet etetuǵının tastıyıqlaydı. Bunda dem alıw hám dawıs baslanıwın muwapıqlastırıwshı dirijyor isharatı áhmiyetli orındı iyeleydi.

Qosıqshılıq dem alıwı xor texnikasınıń tiykarǵı elementi bolıp, onıń sıpatı hám kórkemlik dárejesin belgileydi. Dem alıw ústinde islewdiń nátiyjeli metodikası fizikalıq hám kórkem atqarıwshılıq táreplerin birlestirgen halda sistemalı hám maqsetke muwapıq bolıwı kerek. Repeticiya procesine arnawlı dem alıw shınıǵıwların kirgiziw, dem alıwdı tek ǵana texnikalıq emes, bálkim kórkem súwretlew quralı dep qaraw usınıs etiledi.

### Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. G.Mansurova “Xorshunoslik va xor jamolari bilan ishlash uslubiyoti”. Toshkent. “Yangi nashr” 2008.
2. Dmitriyev L. B. Vokal metodikasınıń tiykarları. - M.: Muzıka, 2000.
3. Medushevskiy V. V. Muzıkadaǵı intonatsiyalıq forma. - M.: Kompozitor, 1993.
4. Ptitsa K. B. Hor dirijyorlıǵı texnikasına arnalǵan ocherkler. - M.: Muzıka, 1980.
5. Sokolov V. G. Hor menen islew. - M.: Muzıka, 1981.
6. Miller R. The Structure of Singing. - New York: Schirmer Books, 1996.
7. Sundberg J. The Science of the Singing Voice. - DeKalb: Northern Illinois University Press, 1987.

**REZYUME.** Ushbu maqolada xor texnikasining asosiy elementlaridan biri bo‘lgan aniq nafas olishning uslubiy jihatları ko‘rib chiqiladi. Nefasning tovush hosil qilish, ansambl birligi va xor ijrosining badiiy-tasviriy sifatlariga ta‘siri tahlil qilinadi. Xor chiqishlari jarayonida nafas olish ko‘nikmalarini shakllantirishning bosqichlari va pedagogik tamoyillari ochib beriladi. Xor ijrochilik amaliyotida aniq nafasni tizimli va maqsadli tarzda rivojlantirishning ahamiyati belgilanadi.

**РЕЗЮМЕ.** В статье рассматривается методика работы над певческим дыханием как базовым элементом хоровой техники. Анализируется значение дыхательной координации в формировании устойчивого звукообразования, ансамблевого единства и художественной выразительности хорового исполнения. Раскрываются основные педагогические принципы и этапы формирования дыхательных навыков в процессе репетиционной работы с хоровым коллективом. Делается вывод о необходимости системного и целенаправленного подхода к развитию певческого дыхания в профессиональной хоровой практике.

**SUMMARY.** The article examines the methodology of working on singing breathing as a basic element of choral technique. The importance of breathing coordination in the formation of stable sound production, ensemble unity, and the artistic expressiveness of choral performance is analyzed. The main pedagogical principles and stages of developing breathing skills during rehearsal work with the choir group are revealed. A conclusion is drawn about the need for a systematic and purposeful approach to the development of singing breath in professional choral practice.

## O‘ZBEK RAQSINING RIVOJLANISHIDA ANSAMBLAR FAOLIYATI

**Fazliyeva Zebo Kamarbekovna** – dotsent  
*O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti,  
Sahna harakati va jismoniy madaniyat kafedrası*

**Tayanch so‘zlar:** o‘zbek raqs, ansambl faoliyati, an’anana, xalq raqs, baletmeyster, repertuar, xoreograf.

**Ключевые слова:** узбекский танец, деятельность ансамбля, традиция, народный танец, балетмейстер, репертуар, хореограф.

**Key words:** uzbek dance, ensemble activity, tradition, folk dance, ballet master, repertoire, choreographer.

**Kirish.** O‘zbek raqsi va uning rivojlanish yo‘llari haqida so‘z ketganda Respublikamizda faoliyat olib borayotgan yuksak professional ansambllarni ko‘z oldimizga keltiramiz. Bu ansambllarni tashkil qilgan mashhur Yusufjon qiziq Shakarjonov, Usta Olim Komilov, Tamaraxonim va shogirdlari bo‘lmish o‘zbek xoreografiyasi taniqli namoyondalar Mukarrama Turg’unboyeva, Isoxor Oqilov va Gavhar Rahimovalarni tashkil qilganlar. Darhaqiqat, bu ansambllar tuzilgan davr O‘zbekiston raqs madaniyati tarixida “oltin asr”dir. Bu ansambl jamoasining gastrol safarlari geografiyasi ulkan mamlakatimizdagi Yaqin va uzoq sharq, Yevropa mamlakatlari hamda Amerika qit’asini qamrab olib, o‘sha joylardagi barcha tomoshabinlarning olqish va tahsiniga sazovor bo‘ldi. Vaqt bu san’atkorlarning amalga oshirgan ishlari nechog‘li muhim bo‘lganligini ko‘rsatib turibdi... Biz raqs san’ati haqida gapirganimizda, o‘ziga xos til tizimini nazarda tutamiz. Raqs tili – bu avvalambor nafis, go‘zallik, ma’noli imo-ishoralar va his – tuyg‘ularga boy harakatlardir. Xalq raqsi tili g‘oyat ravshan va aniq bo‘lib, uning ifodaviyligi milliy an’ana va urf-odat ildizlari bilan tutashgan, qolaversa, xalqning butun jonli tafakkuri tarixi bilan bog‘liqdir. Shu bilan bir qatorda, xalq raqsi borliqni, hayotni o‘ziga xos tarzda aks ettirar ekan, u turmushning barcha tomonlarini, davrning ruhi va harakatini, uning maromini, suratini hamda mazmunga boy voqealarini o‘zida qamrab oladi.

### Adabiyotlar tahlili va metodlar

Raqs san’atida muayyan va ayni paytda shartli bo‘lgan xilma-xil ko‘rinishlarning o‘zaro qo‘shilib ketishi, an’anaviy raqs shakllarining yangilanib turishi uning taraqqiyot xususiyatlariga ta’sir etmay qo‘ymaydi. Taraqqiyotning o‘zi ko‘p bosqichli bo‘lib, nafis harakat, shakllanish, estetik va ruhiy holatlar takomillashuvidir. Bu xolda biz eski va yangi, an’anaviylik va yangilik, milliy va umumbashariylikka bab-baravar intilishdan iborat qo‘shaloq qo‘msashni kuzatarkanmiz, bu so‘zsiz o‘z san’atini namoyish qilayotgan san’at ustalarining hamda shunday darajaga erishadigan san’atkorlarni qo‘msashdir. Zero, xalq o‘zini ko‘rsata oladigan, usta, ijodkor, peshqadam kishilarni unutmaydi. Mana shu chegaralangan davrda, ya’ni kecha bilan erta oralig‘ida birini ikkinchisidan ajratib turuvchi muddat bor ekan, biri ikkinchisidan ijodiy izlanish va saboq olish imkoniyati mavjud. Tanazzulning boshlanish nuqtasini aniqlash, oldindan ko‘ra bilish, asoslash va nihoyat sezish mumkin. Ijodiy sustlikning yaqinlashishi – g‘oya, maqsad va rejalarining qashshoqligidan, bir joyda deysinib turishdan, garchi tashqi ko‘rinishidan arziri jamoalar hisoblansa-da, ammo ijodiy faoliyati sust oqimda davom etib kelayotgan joydan boshlanadi. Ma’lum bir bosqich o‘tgandan keyin, boringki, o‘sha bosqich katta muvaffaqiyatlar bilan yakunlangan bo‘lsa-da, ammo sifat nuqtayi nazaridan yanada yuqori pog‘onaga ko‘tarilishi, navbatdagi ijodiy izlanishlar doirasiga chiqish o‘ylanmasa, u bilan bog‘liq nazariy, badiiy hamda amaliy, masalalar hal qilinmagan bo‘lsa, bunday kollektivning tanazzulga yuz tutishi ravshan

bo‘lib qoladi. Repertuar muttasil yangilanishi zarur. G‘ayrat bilan olg‘a tomon harakat qilish davri yetib keldi. Uning uchun sa‘y va harakatlarni birlashtirish, bundan keyingi faoliyatlarning ijodiy rejasini ishlab chiqish taqozo etiladi. Albatta, o‘z tartibi va qonun - qoidalari davrasida harakat qiluvchi birorta ham ijodiy organizm hamisha faqat bir xilda ishlay olmaydi, ham izlanish, ham parvoz, ham sustlik davrlari unga xos xususiyatlardir.

Yurtimizdagi yetakchi ansambllar o‘zaro bir-biridan farq qiladi, ammo boshqacha muammolari bir xil, ya‘ni oldinga intilishsiz va turg‘unlikda yashayaptilar. Bu jarayonning muttasil davom etishiga ko‘pgina tashkiliy, ma‘muriy, ijodiy sabablar borki, u kishini beixtiyor tashvishlantiradi. “Bahor” ansambli hamisha yangilikka intiluvchi ansambl edi. Aslida o‘zbek sahna xoreografiyasi bilan bog‘liq barcha islohot, yangilik va kashfiyotlar yurtimizdagi ko‘p sonli raqs ansambllari safida muhim mavqeni egallab turgan ajoyib kollektiv uchun xos xususiyat bo‘lib keldi.

**Natijalar va muhokama.** Xalq raqsining estetik ideali asrlar davomida to‘plangan an‘anaviy shakllarda yaratildi. Ammo xalq raqsini sahnaga olib chiqishni amalga oshirishda xuddi shu haddan ortiq an‘anaviylik, tang ahvolni vujudga keltirdi, ijod doirasini cheklab qo‘ydi. Bunday tang vaziyatdan qutulishning oqilona yo‘llarini (bu yo‘llar katta muvaffaqiyatlar bilan topilgan edi) raqs mazmuniga zarar bermay, uning o‘ziga xos milliy xususiyatini saqlangan xolda qidirib topish kerak edi. Shunga qaramasdan, xalq raqsining ravnaqi jarayonida an‘anaviy mavjud bo‘lgan estetik idealni muqarrar ravishda buzishga to‘g‘ri keldi, chunki eski shakllarni isloh qilish qilish yo‘li bilan yangilik yaratishda, eskilik va yangilik o‘rtasida muvozanatni saqlab turuvchi oltin oraliqni topishdan iborat edi.

Bugun mana shu oltin oraliq haqida faqat orzu qilishga to‘g‘ri kelyapti. Ansambllar jamoasi avval yaratilgan raqslar hisobiga aql bovar qilmaydigan darajada uzoq yashab kelmoqdalar. Odat tusiga kirib qolgan bunday holat izlanishga to‘siq bo‘lmoqda. Mazkur kollektivlar repertuarida mazmunsiz raqslar paydo bo‘lib, ularda sun‘iy zo‘rma-

zo‘raki kiritilgan, hech bir ma‘nosiz harakatlar to‘lib-toshib yotibdi, natijada raqs teran mazmunini aks ettirish emas, balki texnikani namoyish qilish vositasiga aylanib qolmoqda. To‘g‘ri, texnika ustida ishlash o‘z yo‘lida qiziqarli va muhim vazifa, ammo u bilan cheklanib qolib bo‘lmaydi. Raqsar-chi...? “Bahorga” ansambliga shuhrat keltirgan, uni dunyoga tanitgan o‘sha raqsar qani? O‘tmish va kelajak, an‘anaviy va mukammallik Bahor raqsarida bir-birlariga naqadar mos tushib, uyg‘unlashib ketar edi. Pilla, Paxta, Rohat, Moviy maqom, valsar... Bular unutilmas raqsardir. Yaqin-yaqingacha ijodkorlik fantaziyasining tantanasi Shodlik va Lazgi ansambllari chiqishlari uchun xos xususiyat edi. Bu ansambllar xoreografiya ma‘lumotlarini boyitish ustida ish olib borar, xalq raqsining turli janrlarida foydalanar, shuningdek boshqa xalqlarning raqs san‘atiga hamda baletga e‘tibor berar, shu bois, ularning repertuari g‘oyat boy, o‘ziga xos edi. Taassufki, so‘nggi paytlarda bu talantli kollektivlar ishida jiddiy kamchiliklar ravshan sezilmoqda, erkaklar raqsini yanada takkomillashtirish sust. Isahor Oqilov sahnalashtirgan erkaklar raqsi mavzusi, mazmun jihatidan rang-barangdir. Hozirgi kunda ijro etilayotgan erkaklar raqsi o‘sha ijro etilgan asarlarining xira, bo‘sh nusxasi bo‘lib qoldi. Konsert dasturlarida borgan sari erkaklarning yakka ijrolari kamayib bormoqda. Modomiki shunday ekan, erkaklar raqsini yanada rivojlantirish, o‘rinbosarlarni tayyorlash, xalq talantlari yetishib chiqadigan, shakllanadigan muhit bo‘lmish badiiy havaskorlik to‘garaklari qatnashuvchilariga mulohazali munosabatda bo‘lish kerakligini alohida o‘ylash kerak. Baletmeysterlar shakllanib boradigan, o‘z malakasini yanada oshiradigan hamda ularning qobiliyatini sinab ko‘radigan birorta ham ijodiy laboratoriya yo‘q. Ayni paytda, jo‘shqin faoliyat bosqichida bo‘lmish baletmeysterlarning yanada ijodiy ravnaq topishlari uchun muhit yaratilmagan. Baletmeysterlar o‘zlarining professional tajribalarini oshirish tajriba almashish, shuningdek yangi va qiziqarli materiallarni izlab topishlari uchun etnografiya ekspeditsiyalarida zarur darajada qatnasha olmaydilar. Holbuki, o‘zaro

hamkorlik munosabatlari ijodiy o'sishga yordam beradi. Yosh baletmeysterlarga yangi uslub yo'nalish hamda individuallikka muhtojligi bor. Mayli, yoshlar ana shu izlanishni konsert nomerlaridan boshlasinlar. Mayli, ular sinov nomerlari bo'lsin, boringki, ular muvaffaqiyatsiz yakunlansin, bundan hech cho'chimaslik kerak. Zotan, muvaffaqiyatsizliklar o'rtacha arifmetika darajadagi silliq va oson yutuqlardan ko'ra ko'proq narsalarga o'rgatishi mumkin. Yurtimizdagi faoliyat olib borayotgan baletmeysterlar g'oyat boy folklor manbalariga achinarli darajada kam e'tibor bermoqdalar.

Demak, izlanish obyektlari yetarli. Ular ishga loqayd qaraydiganlarni emas, haqiqiy tadqiqotchilarni, tashabbuskorlarni, izlanuvchilar va qiziquvchilarni kutmoqda. San'at hamisha hayot va davrning aksi. Bu o'z navbatida, davrga monand bir ipga marjonday shodalangan, ko'z ochib

yumguncha o'tadigan lahzalar mohiyatini aniq belgilaydigan shakllarni qidirib topish demakdir. Uslublar shakllari turlicha bo'lishi mumkin, faqat folklorga taqlid qiluvchi quruq dekoratsiya vositalaridan foydalanib qolmaslik kerak. I.Moiseyevning ijodiy nuqtayi nazaricha, "Folklor – san'at mulki, bizning vazifamiz uni saqlashdir" bu masala bugun ham dolzarb hisoblanadi. Shunday ekan, vaziyatning yutuq va kamchiliklarini umumlashtirib, tahlil qilib, ijodiy tanglik sharoitidan qanday qutulish, beparvolikdan ijodiy fikrlashga o'tish yo'lidagi to'siqni qanday yengish, bu muhim masalalarni hal qilib olish zarurligini belgilaydi.

Buni shunday tashkil qilish kerakki, barcha faoliyat olib borayotgan ansambllar o'z san'atini namoyish qilayotganida tomoshabinga bir paytlari bo'lgani kabi samimiy quvonchni qaytarib bersin, hamda haqli iftixor hissini qayta jonlantirsin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abraykulova N. Raqs jamoasi bilan ishlash uslubiyoti. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2003 . 55-B
2. Mukaramma Turg'unboyeva ijodi va uning o'zbek sahna xoreografiyasi rivoji uchun qo'shgan hissasi. Ilmiy-amaliy anjuman materiallari .-T.: "Mumtoz soz" nashriyoti, 2014. 223-B
3. Kodirov M, Raqqosa, Baletmeyster, Pedagog. Teatr. – Toshkent, 2012. - №-5-B . 16-17.

**REZYUME.** Ushbu maqolada raqs san'atida muayyan va ayni paytda shartli bo'lgan xilma-xil ko'rinishlari, an'anaviy raqs shakllarining yangilanib turishi, taraqqiyot xususiyatlari ta'siri, nafis harakat, shakllanish, estetik va ruhiy holatlar takomillashuvi haqida bayon etilgan.

**РЕЗИОМЕ.** В данной статье рассматриваются конкретные и одновременно условные разнообразные проявления в танцевальном искусстве, обновление традиционных танцевальных форм, влияние особенностей развития, изящные движения, формирование, совершенствование эстетических и психических состояний.

**SUMMARY.** This article describes the various manifestations of dance art, both specific and simultaneously conditional, the renewal of traditional dance forms, the influence of developmental characteristics, the refinement of graceful movements, formation, and the improvement of aesthetic and mental states.

## JAHON TARIXSHUNOSLIGIDA QORAQALPOG‘ISTON MUSIQA MADANIYATINING YORITILISHI

G.I.Xodjametova – *t.f.n., professor*

*O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti Nukus filiali*

**Tayanch so‘zlar:** musiqa madaniyati, san‘atshunos, baxshichilik, dostonchilik, xalq qo‘shiqlari, xalq musiqasi, og‘zaki-an‘anaviy ijod, jahon etnomuzikologiya, bastakor, global mediamadaniyat.

**Ключевые слова:** музыкальная культура, искусствовед, бахши, дастан, народные песни, народная музыка, устное традиционное творчество, мировая этномузыкалогия, композитор, глобальная медиакультура.

**Key words:** music culture, art history, bakhshi, dastan, folk songs, folk music, oral and traditional creativity, world ethnomusicology, composer, global media culture.

XX asrda musiqa madaniyati o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘ydi, u avvalgi – XIX asrning klassik-romantik davridan sezilarli darajada farq qiladi. Bu jarayonda fan-texnika taraqqiyoti, jamiyatning sanoatlashuvi va urbanizatsiyasi, musiqiy axborotni saqlash va uzatishning elektron texnik vositalarining paydo bo‘lishi katta rol o‘ynadi. Bu omillar XX asr bastakorlarining yangi ijodiy tafakkuri shakllanishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Ular texnika va ijodkorlik uyg‘unligidan foydalanib, musiqaning akustik hamda fazoviy-vaqt chegaralarini sezilarli darajada kengaytirish yo‘lidan bordilar. Bunga elektron musiqa asboblarini ixtiro qilish, sun‘iy ravishda yaratilgan tovushlar va ovoz tizimlaridan foydalanish kabi yangiliklar misol bo‘la oladi. Musiqiy faoliyat (ijrochilik va tinglovchilik) axborot jamiyati va global mediamadaniyatning rivojlanishi sharoitida yangi xususiyatlar, fazilatlar va ma’naviy ma’nolarga ega bo‘ldi. XX asr musiqiy-intonatsion tafakkuri yangi madaniy ustunliklarning shakllanishiga mos ravishda o‘zgarib bordi. Bu o‘zgarishlar musiqada ko‘p millatli aloqalarning faol kuchayishiga (“Sharq - G‘arb” va hokazo), o‘tmish va hozirgi zamon musiqiy tizimlarining o‘zaro muloqotiga, turli madaniyatlar, yo‘nalishlar, uslublar va janrlarning o‘zaro ta’siri hamda uyg‘unlashuviga asoslangan edi.

Xususan, akademik musiqaning xalq og‘zaki ijodi, djaz, rok va boshqa yo‘nalishlar bilan uyg‘unlashuvi kuzatildi. Xorijiy tarixshunoslikda qoraqalpoq musiqasi ko‘pincha alohida emas, balki turkiy xalqlar, Orolbo‘yi va umuman Markaziy Osiyo

xalqlarining an‘anaviy musiqa madaniyati kontekstida ko‘rib chiqiladi. G‘arb etnomusiqashunoslarining asarlarida epik an‘ana, og‘zaki professional ijrochilikning roli, shuningdek, an‘anaviy madaniyat tizimida musiqa san‘atining amal qilishiga alohida e’tibor qaratilgan. Qoraqalpoq jirlari, baxshi va jirovlar faoliyati, xalq cholg‘ularidan foydalanish mintaqaning umumiy madaniy makonining muhim elementlari sifatida tilga olinadi. Jahon tarixshunosligida XX asr madaniyati tarixi, nazariyasi va falsafasi muammolariga bag‘ishlangan madaniyatshunoslik, falsafiy, falsafiy-estetik va sotsiologik yo‘nalishdagi qator asarlar paydo bo‘ldi (modernizm va postmodernizm muammolari, ommaviy va elitar madaniyatlarning o‘zaro ta’siri, mif va mif ijodkorligi masalalari, san‘at borlig‘ini tahlil qilishning sotsiologik va estetik jihatlari va boshqalar). Shu jumladan: M.Veber asarlari [1.43 b.], G.Gadamer [2.94 b.], K.Levi-Stross [3.121b.], O.Shpengler [4.90 b.] va boshqalar.

XX asr boshlarida global tendentsiyalarni anglashning nazariy asoslari inson va madaniyatning falsafiy va tarixshunoslik kontseptsiyalari mualliflari tomonidan yaratilgan – K.Yaspers [5. 43 b.] va boshqalar. XX asr madaniyatida yangi kommunikativ muhitning shakllanishi haqida V.Bibler va Yu.Lotman o‘z asarlarida yozishgan. Globallashuvning yangi bosqichi (1950-1990 yillar) E.Toftlarning [6.44 b.] tadqiqotlarida chuqur tahlil qilingan.

Shu munosabat bilan bir qator olimlar XX asr va XXI asr boshlaridagi madaniyat va san‘atning o‘ziga xos xususiyatlarini bizning

tadqiqotimiz uchun muhim bo‘lgan quyidagi tushunchalar orqali tahlil qiladilar: “media” (M.Maklyuen ta’rifiga ko‘ra vositachi yoki aloqa vositasi), “ommaviy axborot vositalari” (ommaviy matbuot, radio, televidenie, internet), “mediamadaniyat” (N.Kirillova fikriga ko‘ra, asta-sekin global miqyosga etib borayotgan yangi axborot turidagi madaniyat). Shuni ta’kidlash joizki, biz o‘z tadqiqotimizda musiqa madaniyatini B.Asafev tomonidan ilgari surilgan “bastakor-ijrochi-tinglovchi” uchligiga asoslangan holda o‘rganamiz. Bu uchlik Yangi Evropa musiqa madaniyatining rivojlanish davrida – XVII asrdan XX asrgacha shakllangan asosiy musiqa faoliyati turlarining o‘zaro munosabatlari tizimini ifodalaydi. XX asr musiqa madaniyati evolyutsiyasi globallashuv davrining texnik-urbanistik tendentsiyalari, musiqiy ma’lumotlarni saqlash va uzatishning yangi usullarining paydo bo‘lishi, kompozitorlik va ijrochilik ijodida musiqiy tafakkurning yangi turlari, shuningdek, musiqani idrok etish jarayonlaridagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Texnik-innovatsion izlanishlar kompozitorlik ijodida urbanistik va industrial tendentsiyalarning rivojlanishida namoyon bo‘ldi, bu esa musiqiy-tovush va akustik muhitning sezilarli darajada kengayishiga olib keldi. Ushbu jarayonlar natijasida asta-sekin musiqiy tafakkurning ratsional-pragmatik dominantasi shakllandi: yangi kompozitorlik texnikasini (seriyali texnika, dodekafoniya, aleatorika va boshqalar) ixtiro qilish asosida ijodning tahliliy jihati va konstruktiv boshlanishi kuchaydi, musiqa yaratish va yozish jarayonlarida elektronikaning (magnitofonlar, kompyuterlar, sintezatorlar va boshqalar) roli oshdi, intonatsion tafakkur va tovush palitrasi sezilarli darajada o‘zgardi. Birinchi va ikkinchi to‘lqin avangard kompozitorlari (L.Russolo, A.Mosolov, N.Roslavets, K.Shtokxauzen, Dj.Keyj, V.Lyutoslavskiy, K.Penderetskiy, Ya.Ksenakis, A.Shnitke va boshqalar) tomonidan texnik-innovatsion kashfiyotlar qilingan, shuningdek, I.Stravinskiy, A.Onegger, D.Miyo, S.Prokofev, S.Raxmaninov, D.Shostakovich ijodida urbanistik tendentsiyalar aniqlangan. Shuningdek, XX asr kompozitorlik va ijrochilik ijodiyotida texnik-innovatsion

izlanishlar oqimida globallashuv davriga hamohang bo‘lgan badiiy obrazlar va ijod g‘oyalarining yangi tizimi asta-sekin shakllanayotgani, bu esa ekran madaniyati va kinoobrazlilik bilan o‘zaro ta’sir qilish asosida musiqiy tafakkurni vizuallashtirishda namoyon bo‘lishi ta’kidlangan. Shunga o‘xshash jarayonlar XX asr ijrochilik ijodiyotida ham sodir bo‘lib, texnikanizmning kuchayishi, tomoshabop effektlar, ijrochining ovoz yozish vositalariga qaramligi va mahsulotlarni ommaviy tirajlash sanoatining paydo bo‘lishida namoyon bo‘ladi.

XX asr kompozitorlarining havaskorlik muhitida ilgari yaratilgan musiqa qatlamlari va janrlariga (qo‘shiq, romans, shahar shansoni va boshqalar) murojaat qilishida namoyon bo‘lgan akademik musiqaga folklor va maishiy madaniyatning intonatsion materialining ta’siri tushunilgan. XX asrning mahalliy novator kompozitorlari (I.Stravinskiy, D.Shostakovich, S.Prokofev, A.Shnitke, S.Slonimskiy va boshqalar), G‘arbiy Evropaning birinchi va ikkinchi to‘lqin avangard kompozitorlari, shuningdek, akademik musiqa usullarini ommaviy madaniyat bilan birlashtirgan “uchinchi” yo‘nalishdagi rus kompozitorlari (V.Martinov, E.Artemev va boshqalar)ga “menestrel” madaniyatining (rok, djaz, pop-madaniyat) ta’siri ko‘rsatilgan. Integratsion tafakkurning neofolklorizm (I.Stravinskiy, B.Bartok, G.Sviridov, S.Slonimskiy va boshqalar) va “polistilistika” (uslubiy “aralashmalar” iqtiboslar, qadimiy musiqa va polifoniyalarga murojaat), shuningdek, akademik musiqaning Sharqning an’anaviy amaliyotlari, ekzotik evropacha bo‘lmagan madaniyatlar (O.Messian ijodida) bilan o‘zaro ta’sirida namoyon bo‘lishining xilma-xilligi ochib berilgan. XX asr musiqiy tafakkurining “polifonlashtirish” tendentsiyasi [A.Shnitke] anglab etilgan bo‘lib, u ko‘plab uslubiy qatlamlarning dialogi va polilogida hamda ularning madaniy sintezga tomon harakatida namoyon bo‘lgan. Shunga o‘xshash jarayonlar ommaviy madaniyatda ham sodir bo‘layotgani isbotlangan: bu akademik musiqa usullaridan foydalanuvchi rok-musiqachilarning novatorlik izlanishlari, akademik va ommaviy madaniyatlar “chorrahasida” tug‘ilgan yangi simbiotik

janrlarning (rok-opera va rok-simfoniya va boshqalar) paydo bo'lishi, etnik musiqa elementlarining rok-kompozitsiyaga kirib kelishi, "fyujn" uslubining paydo bo'lishi va boshqalar.

XX asrda o'tgan davrlarga nisbatan og'zaki va yozma (nota), shuningdek, audial (eshitish) va vizual madaniyatlar dixotomiyasi boshqacha nisbatda namoyon bo'lmoqda. Evolyutsiya jarayonida vizual (nota, yozma) madaniyatdan audial madaniyatga va aksincha, audial madaniyatdan vizual madaniyatga (vizualizatsiya, bu holda, tomosha shakli sifatida tushuniladi) o'tish sodir bo'lishi aniqlandi. Bu murakkab jarayon kompozitorlarning yozma bo'lmagan ijod shakllariga tayangan holda og'zaki improvizatsiya amaliyotlariga murojaat qilishlari bilan bog'liq bo'lib, an'anaviy nota yozuvidan voz kechish va improvizatsiya, spontanlik va tasodifiylik (aleatorika) tamoyillariga asoslangan musiqiy matnni yozishning yangi shakllari paydo bo'ldi. Asarning taxminiy sxemasini qayd etuvchi musiqani grafik yozishning yangi usullari shakllanmoqda. Teskari jarayon – eshitish madaniyatidan vizual madaniyatga o'tish – madaniyatni vizuallashtirishning umumiy tendentsiyalari va musiqada tomoshaboplikni namoyon etishning turli shakllari (kino, televidenie, komp'yuterlashtirish, internet va boshqalar yordamida) bilan bog'liq bo'lib, ko'proq ommaviy media va ekran texnologiyalariga asoslangan ommaviy musiqa madaniyatiga xosdir, garchi bu jarayonning ko'rinishlari opera va boshqa klassik janrlarda ham sezilarli bo'lsa da.

Bu jarayonning salbiy tomoni ham qayd etilgan bo'lib, unda opus-musiqaga yo'naltirilgan yozuv madaniyatining o'ziga xos qadrsizlanishi va matnning nota yozuviga tayangan kompozitorlik ijodiyoti maqomining pasayishi kuzatilmoqda, bu esa bugungi kunda bir qator mualliflarga [V.Martinov, N.Lebrext] "muallifning o'limi"ni bashorat qilish imkonini beradi [R.Bart] - kompozitor-ijodkor va umuman musiqaning ifoda va kechinma san'ati sifatida.

Mediamadaniyatning musiqiy faoliyat infratuzilmasi va professionalizm turlariga ta'siri asoslangan va isbotlangan. Globallashuv davrida kompozitorlik va

ijrochilik, professionalizm va havaskorlikning "tutashgan" joyida musiqiy professionalizmning yangi «aralash» turlari paydo bo'lib, ular texnik eksperimentga va musiqani yaratish, ijro etish va saqlash jarayonlarida media vositalaridan foydalanishga bo'ysundirilganligi aniqlandi. Ovoz rejissyorligi kasbining yangilanishi, shuningdek, musiqiy art-menejment, musiqiy prodyuserlik, musiqiy aranjirovka (kompyuter texnologiyalari asosida) kabi yangi kasblarning roli ko'rsatilgan bo'lib, ular asta-sekin kompozitorlar va ijrochilarga xizmat qiladigan muhim faoliyat sohaslariga aylanmoqda. Ishda ta'kidlanishicha, ko'pincha kompozitorning o'zi ham o'z musiqasining ijrochisiga aylanadi, bu matnni o'qishdagi qiyinchiliklar, maxsus komp'yuter dasturlari va yangi elektron musiqa asboblarni o'zlashtirish zarurati tug'ilganda, musiqa yozuvini tayyorlash jarayonida studiya ishining ahamiyatini kuchaytirish bilan bevosita bog'liq.

XX-XXI asrlar chegarasidagi musiqa madaniyatida havaskorlikning o'sishi ham qayd etilgan, bu texnik vositalar va komp'yuter dasturlarining mavjudligi bilan bog'liq bo'lib, ular musiqani ijro etish va yozib olishga imkon beradi (karaoke, turli xil fonogrammalar va hokazo).

Mediamadaniyatning musiqa va inson o'rtasidagi muloqotning yangi usullarini shakllantirishga ta'siri, tinglash madaniyati sohasi sezilarli o'zgarishlarga uchraganida isbotlangan. Tinglovchilarning idrok etish xususiyatlari ochib berilgan bo'lib, bu jarayon media vositalarga (ovoz yozish qurilmalari, quloqchinlar, pleerlar, magnetofonlar, CD, DVD, video va hokazo) hamda ommaviy axborot vositalariga (radio, televidenie, internet) tobora bog'liq bo'lib bormoqda. Tomoshaviylik, pop-madaniyat va iste'molga yo'naltirilgan tinglovchilik idrokining yangi turlari tahlil qilingan. Global mediamadaniyat sharoitida akademik musiqani o'zaro boyitish va rivojlantirishga hissa qo'shadigan G'arb va mahalliy professional musiqiy ta'lim tizimining o'zaro ta'siri va integratsiyasining o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi. "Musiqa madaniyati" tushunchasi "murakkab ierarxik munosabatlar tizimi" sifatida talqin etiladi. A.Soxor [7.94-95 b.] to'g'ri ta'kidlaganidek,

bu tizimga “belgilar, matnlar, muloqot shartlari, musiqaning qadrini belgilovchi falsafiy-estetik va axloqiy me`yorlar, musiqiy faoliyatning barcha turlari, uning sub`ektlari va ob`ektlari (tinglovchilar, ijrochilar, bastakorlar, asarlar), shuningdek, musiqa madaniyatining faoliyatini ta`minlaydigan va unga xizmat ko`rsatadigan muassasalar hamda ijtimoiy institutlar” kiradi. Yangi Evropa madaniyatining o`ziga xos xususiyatlarini tushinishda dissertant akademik B.Asafyevning [8.36 b.] “kompozitor-ijrochi-tinglovchi uchligi”ga asoslanadi, bu XX asrdan bugungi kungacha bo`lgan musiqiy madaniyatning asosini tashkil etadi. “Mediamadaniyat” tushunchasi “insoniyat tomonidan madaniy-tarixiy taraqqiyot jarayonida yaratilgan, jamiyat ongini shakllantirishga va shaxsning ijtimoiylashuviga ko`maklashadigan axborot-kommunikatsiya vositalari, moddiy va ma`naviy qadriyatlar yig`indisi sifatida ishlab chiqildi”. [9. 112 b.]

**РЕЗЮМЕ.** Национальная музыка - одна из бесценных ценностей, отражающая духовный мир народа, выражающая его духовное наследие. Она служит важным инструментом в формировании нравственных, эстетических и патриотических чувств молодого поколения. В эпоху глобализации мы можем сохранить свою идентичность, ценя и широко пропагандируя национальную музыку.

**SUMMARY.** National music is one of the priceless values that reflects the spiritual world of the people and expresses their spiritual heritage. It serves as an important tool in the formation of moral, aesthetic, and patriotic feelings of the younger generation. In the era of globalization, we can preserve our identity by valuing and widely promoting national music.

UDK: 78.071.1:37

## EVROPA VOKAL MEKTEPLERINIŇ VOKAL TÁLIMINE TÁSIRI

**Kulambetova Janil Arzimbetovna – docent w.w.a**

*Ózbekstan mámleketlik kórkem óner hám mádeniyat instituti Nókis filiali*

**Tayanch so'zlar:** vokal ta'limi, Yevropa vokal maktablari, Bel Canto, pedagogika, metodika, vokal ijro.

**Ключевые слова:** вокальное образование, европейские вокальные школы, белканто, педагогика, методика, вокальное исполнительство

**Key words:** vocal education, European vocal schools, Bel Canto, pedagogy, methodology, vocal performance.

Evropa vokal mektepleri áyyemnen professional vokal bilimlendiriwiniń tiykarǵı dereklerin birini bolip esaplanadı. Izertlewshilerdiń pikirinshe, Bel Canto mektebi XVII-XIX ásirlerde qaliplesip, vokal texnikası hám bayanlawdıń jetik usılların jaratqan [1]. Usı mektep pedagogikalıq principleri arqalı tek Evropa emes, al, dúnyanıń basqa mámleketlerinde vokal bilimlendiriwine tásir kórsetken. I.R. Titzenin aytıwınsha, Bel Canto qatnasıwı oqıwshınıń dawıs diapazonı, tembri hám dem alıw imkaniyatların esapqa alıp, dawıstıń tábiyiy rawajlanıwın támiyinleydi [2]. Miller bolsa, evropalıq vokal metodikası studenttiń

individual dawıs dúzilisin esapqa alǵan halda texnikalıq shınıǵıwları tańlawǵa itibar beriwın atap ótedi [3]. Evropa vokal mektepleri metodikası tek ǵana texnikalıq hám dóretiwshilik jaqtan emes, al pedagogikalıq hám psixologiyalıq jaqtan da studenttiń vokal rawajlanıwına tikkeley tásir etedi. Bel Canto hám basqa mektepler qatnası Ózbekstan vokaldı jetilistiriwinde ahmiyatli orın iyelep, zamanagóy vokal pedagogikasınıń metodikalıq tiykarlarınan birini esaplanadı. Sol sebepli, evropasha kózqarasları úyreniw hám engiziw pedagoglar hám studentler ushın zárúr. Evropada vokal kórkem óneri ásirler

dawamında rawajlanıp, hár qıylı pedagogikalıq mekteplerdiń qáliplesiwine sebep bolǵan. Atap aytqanda, XVII-XIX ásirlerde Italiya, Franciya hám Germaniyada professional vokal bilimlendiriw sistemaları rawajlandı. Bul mektepler tek ǵana texnika emes, al vokal bayanlaw hám dóretiwshilik qatnaslardı da sistemalı túrde qáliplestirdi.

Bel Canto mektebi Evropa vokal kórkem óneriniń eń áhmiyetli pedagogikalıq orayı esaplanadı. Bul mektep pedagogikalıq principleri arqalı oqıwshınıń dawıs diapazonı, tembri hám dem alıw imkaniyatların esapqa alıp, dawıstı tábiyǵıy qáliplestiriwge itibar beredi. Sol sebepli Bel Canto metodi tek Italiyada emes, al basqa Evropa mámleketlerinde de keń tarqaldi. Ózbekıstan vokal tárbiyasında evropasha metodikalıq jaqınlasıwlardıń qollanıwı XIX-XX ásirlerde baslanıp, zamanagóy pedagogikalıq processte de nátiyjeli qollanıladı [4]. Bul jantasıw, ásirese, klassikalıq vokal hám opera atqarıwshılıǵı ushin zárúr bolǵan texnika hám ańlatıwdı qáliplestiriwde áhmiyetli rol oynaydı.

Italiya vokal mektepleri XVII ásirde baslap professional vokal pedagogikasınıń tiykarın jaratqan. Bel Canto (ital. "gózzal jırlaw") usılı studenttiń dawıs texnikası, intonaciya anıqlıǵı hám emocionallıq kórsetiwiniń úlestirgen. Shınıǵıwlar dem alıwdı basqarıw hám rezonatorlardan nátiyjeli paydalanıw principine tiykarlangan. Italiyanıń XIX ásir vokal pedagogikalıq mektepleri operanıń rawajlanıwına da tikkeley tásir

kórsetti. Usı dáwirde pedagoglar dawıstıń tábiyǵıy rawajlanıwın saqlaǵan halda texnikani jetilistiriwge itibar qaratqan. Franciya vokal mektepleri tiykarınan opera hám lirikalıq vokal atqarıwshılıǵına baǵdarlangan bolıp, olardıń pedagogikalıq qatnası dawıstıń emocionallıq sáwleleniwini hám saxna mádeniyatın rawajlandırıwǵa tiykarlangan. Bul mektepler vokal shınıǵıwların sistemalı túrde basqıshpa-basqısh qáliplestirgen hám klassikalıq repertuardı jetik úyretiwge áhmiyet bergen. Bel Canto hám Franko-Italian mektepleriniń qatnasları Ózbekistan hám Oraylıq Aziya vokal pedagogikasında da qollanıladı. Usı qatnaslar arqalı studentlerde dawıstıń tábiyǵıy rawajlanıwı, intonaciya anıqlıǵı, saxna mádeniyatı hám dóretiwshilik kórsetiw qáliplesedi. Pedagogikalıq tájiriybeler sonı kórsetedi, Evropa vokal mektepleriniń metodikası tek ǵana texnikalıq emes, al psixologiyalıq hám dóretiwshilik rawajlanıwǵa da tikkeley tásir etedi. Bul mekteplerdiń jantasıwların úyreniw hám engiziw zamanagóy vokal pedagogikası ushin áhmiyetli. Evropada vokal mektepleriniń rawajlanıwı vokal pedagogikasınıń zamanagóy sisteması qáliplesiwinde tiykarǵı rol oynadı. Bel Canto hám basqa Evropa mektepleri metodikası oqıwshınıń individual dawıs ózgesheliklerin esapqa alıp, dóretiwshilik hám texnikalıq rawajlanıwǵa xızmet etedi. Sonıń ushin Evropa vokal mektepleriniń pedagogikalıq principlerin úyreniw hám qollanıw hár bir vokal pedagog ushin zárúr esaplanadı.

#### Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Dmitriev L.B. Osnovy vokalnoy metodiki. Moskva: Muzyka, 2004.
2. Miller R. The Structure of Singing: System and Art in Vocal Technique. New York: Schirmer Books, 1996.
3. Titze I.R. Principles of Voice Production. Iowa City: National Center for Voice and Speech, 2000.
4. McKinney J.C. The Diagnosis and Correction of Vocal Faults. Illinois: Waveland Press, 2005.

**REZYUME.** Maqolada Yevropa vokal maktablarining vokal ta'lim tizimiga ta'siri ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Bel Canto va boshqa yevropa maktablarining pedagogik tamoyillari o'rganilib, ularning O'zbekiston vokal pedagogikasiga tatbiqi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, yevropacha metodik yondashuvlarning zamonaviy vokal ta'limida qo'llanishi va pedagogik samaradorligi yoritiladi.

**РЕЗЮМЕ.** В статье рассматривается влияние европейских вокальных школ на систему вокального образования. Изучены педагогические принципы Белканто и других европейских

школ, их применение в узбекской вокальной педагогике. Также анализируется использование европейских методических подходов в современном вокальном обучении и их педагогическая эффективность

**SUMMARY.** The article examines the influence of European vocal schools on the vocal education system. The pedagogical principles of Bel Canto and other European schools are studied, along with their application in Uzbek vocal pedagogy. The use of European methodological approaches in modern vocal training and their pedagogical effectiveness are also analyzed.

## TEATR SAN'ATIDA CHOLG'U MUSIQASINING DRAMATURGIK FUNKSIYALARI VA ESTETIK TA'SIR MEKANIZMLARI

**Kurbanova Mukammalxon Mamurovna** – dotsent v.v.b.  
*Qo'qon davlat universiteti*

**Tayanch so'zlar:** cholg'u, musiqa, kompozitor, teatr san'ati, an'ana, aktyor mahorati, sahna, sintez, dramaturgiya, tragediya.

**Ключевые слова:** инструмент, музыка, композитор, театральное искусство, традиция, актёрское мастерство, сцена, синтез, драматургия, трагедия.

**Key words:** instrument, music, composer, theatre art, tradition, acting, stage, synthesis, dramaturgy, tragedy.

Bugungi kunda mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg'or tajribalar asosida zamonaviy madaniyat va san'at muassasalari barpo etish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ijodkor ziyolilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalalariga davlatimiz tomonidan har tomonlama imkoniyat va sharoitlar yaratilib kelinmoqda. Yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, yosh avlodni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu bilan birga ularni ma'naviy yetuk, barkamol qilib tarbiyalash, iste'dodli yoshlarning qobiliyati va salohiyatini ro'yobga chiqarish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Teatr insoniyat madaniyatining eng qadimiy va qudratli san'at turlaridan biri bo'lib, unda dramatik matn, aktyorlik mahorati, sahna bezagi va, ayniqsa, musiqa singari unsurlar o'zaro uyg'unlashgan holda xizmat qiladi. Teatr sahnasida cholg'u vositalaridan foydalanish, ya'ni musiqa elementlarini dramaturgik jarayonga integratsiyalash – tomoshabin qalbida kuchli emotsional rezonans uyg'otishning samarali usullaridan biridir. Bu sintez – ya'ni musiqa va dramaturgiyaning uyg'unligi – sahna asarining semantik qatlamlarini

chuqurlashtirib, obrazlar mazmunini kengaytiradi.

Teatr san'atida musiqa elementlaridan foydalanish qadimdan mavjud bo'lib, yunon tragediyalarida xor a'zolari musiqiy hamrohligida faoliyat olib borganlar. O'rta asrlarda diniy dramalarda cherkov musiqasi teatrning ajralmas qismiga aylangan.

O'rta Osiyoda esa qiziqchi-masxaraboz va qo'g'irchoqboz hamda teatr tomoshalari ham musiqa bilan ijro etilgan. Kompozitorlik san'ati rivoji natijasida teatr musiqasi yangi pog'onaga ko'tarildi, erkin almashinuvchi musiqiy lavhalar o'rniga muayyan spektakllarga maxsus musiqa asarlari yozila boshlandi.

19-20-asrlarda musiqa-teatr (opera, balet, musiqali drama) janrlarining shakllanishi bu sintezni yanada mukammallashtirdi. Zamonaviy teatrdan esa musiqa nafaqat fon sifatida, balki dramaturgik vosita – dramatik to'qnashuvni kuchaytiruvchi element sifatida ishlatilmoqda.

Teatr musiqasi sahna raqs harakatlarini ifodalovchi, dramatik holatlarga izoh beruvchi, ramziy yoki majoziy ma'noga ega lavhalar, shuningdek, qahramonlarning ichki his-tuyg'ularini bayon etuvchi epizodlardan iborat bo'ladi. Ayni paytda, u asar sahnalarini o'zaro bog'lab, dramaturgik vazifalarni ham

bajaradi. “O‘zbekistonda Hamza Hakimzoda, Xurshid, G.Zafariy va boshqa dramaturglar o‘z spektakllarida o‘zbek musiqa merosidan keng foydalanganlar. Dastlab professional (maxsus yaratilgan) Teatr musiqasi namunalari 1940-yillar oxiri – 1960-yillarda paydo bo‘lgan (“Alisher Navoiy”, M. Burhonov 1948; “Yo‘lchi yulduz”, I.Akbarov, 1957; “Hamza”, 1960, “Mirzo Ulug‘bek”, 1964, M.Leviyev va boshqalar). Keyinchalik, A.Malaxov (“Varshava kuyi”, “Sevgi uchun 10 kecha-kunduz”, 1968), Feliks Yanov-Yanovskiy (“Iztirob va umid kunlari”, 1974), A.Berlin (“Otello”, 1972), 1980—2000-yillarda A.Ergashev (“Ufq”, 1995, “O‘tgan kunlar jangnomasi”, 2003), A.Ikromov (“QiroLir”, 1998), D.Yanov-Yanovskiy (“Malikai Turandot”, 2000, “Rezina sotuvchilar”, 2004), A.Kim (“Iso va Yaxuda”, 2002) va boshqa kompozitorlar teatr musiqasi sohasida samarali ijod qilib, yuksak ijodiy muvaffaqiyatlarga erishgan.” [1]

O‘zbek musiqali teatrining tarixi uzoq o‘tmishga ega. U qadimiy maqom san‘ati, xalq ijodiyoti va XX asrning boshlaridan shakllanish jarayonini o‘tab professional davlat teatri darajasiga ko‘tarilgan milliy madaniyatimizni o‘z ichiga oladi. An’anaviy o‘zbek musiqali teatri tushunchasiga xalq turmushi va madaniy hayotida musiqa va taqlid qilishga oid unsurlardan tortib, asrlar davomida shakllanib yashab kelgan masxarabozlik, hofizlik va baxshichilik san‘ati kiradi.[2] O‘zbek musiqali teatrining uzoq tarixiy taraqqiyoti teatr san‘atida cholg‘u musiqasining dramaturgik funksiyalari va estetik ta’sir mexanizmlarini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

Qadimiy maqom san‘ati, xalq ijodiyoti hamda XX asr boshlarida professional sahna madaniyatining yuzaga kelishi jarayonida cholg‘u musiqasi nafaqat jo‘rnavorlik vazifasini bajargan, balki dramatik harakatni boshqaruvchi, mazmuni chuqurlashtiruvchi va obraz xarakterini ochib beruvchi vosita sifatida namoyon bo‘lgan.

An’anaviy o‘zbek musiqali teatrida — masxarabozlik, hofizlik va baxshichilik san‘atida — cholg‘u ijrosi sahnaviy voqelikning ichki ritmini belgilagan. Baxshichilikda dutor yoki gijjak jo‘rligida kuylanadigan dostonlar dramatik syujet

rivojini musiqiy ohanglar orqali kuchaytirgan; masxarabozlikda esa cholg‘u vositalari komik effekt, keskin burilish yoki kulminatsiyani ta’kidlashga xizmat qilgan. Bu jarayonda musiqa voqea rivojini tezlashtirish, pauza va sukunatni mazmunan boyitish, tomoshabinning hissiy idrokini yo‘naltirish kabi dramaturgik funksiyalarni bajargan. Cholg‘u musiqasining estetik ta’sir mexanizmlari milliy lad-ohang tizimi, ritmik tuzilma va tembr bo‘yoqlari orqali amalga oshadi. Maqom yo‘llaridagi ohangdorlik, kuylarning ruhiy holatni ifodalash imkoniyati sahnadagi dramatik vaziyatni yanada ta’sirchan qiladi. Natijada musiqa tomoshabinning hissiy kechinmalarini uyg‘otadi, empatiya jarayonini kuchaytiradi va sahnaviy obrazlar bilan ruhiy bog‘lanish hosil qiladi.

“Shu o‘rinda madaniyat va san‘at sohasining muhim tarmoqlaridan biri hisoblangan teatr san‘atining eng muhim tarkibiy qismi – aktyorlik mahorati va unda qo‘llaniladigan musiqa san‘at turi haqida gapirar ekanmiz, o‘z-o‘zidan bu ikki soha bir-biri bilan uzviy bog‘liq ekanligini his qilamiz. Teatr san‘atida rejissor uchun harakatlanuvchi aktyor xom-ashyo vazifasini bajaradi. Rejissor u orqali tomoshabin qiziqish bilan kuzatadigan spektakldagi g‘oyaviy kurashuv jarayonini keltirib chiqaradigan ziddiyatlarni ochib beradi.” [3]

Teatr san‘atining ichki mexanizmi nihoyatda aniq ifodalangan: aktyorlik mahorati va musiqa – bu nafaqat yordamchi vositalar, balki spektaklning semantik va emotsional qatlamini shakllantiruvchi asosiy unsurlardir. Teatrni sintez san‘ati sifatida anglash an’anasi qadimdan shakllangan bo‘lib, bu g‘oya nazariy jihatdan ham chuqur asoslangan. Konstantin Stanislavski aktyor ichki kechinmalarining ishonchligini sahnaviy haqiqatning poydevori sifatida talqin qilgan bo‘lsa, Vsevolod Meyerhold aktyor plastikasini va ritmini sahnaviy ifodaning markaziga olib chiqqan. Har ikkala yondashuvda ham musiqa ichki yoki tashqi ritmni belgilovchi omil sifatida muhim o‘rin tutadi. Musiqa san‘ati esa bu jarayonda ikki xil vazifani bajaradi: birinchidan, dramatik harakatning ritmik asosini belgilaydi; ikkinchidan, obrazning psixologik

chuqurligini kuchaytiradi. Musiqa sahnadagi konfliktni sezilarli darajada intensivlashtirishi yoki, aksincha, ichki dramatismni sokin, ammo teran ohang orqali ifodalashi mumkin. Shu bois teatrda musiqa – bu shunchaki fon emas, balki dramaturgik komponentdir.

Teatr san'atining asosiy ustunlaridan biri — dramaturgiya bo'lib, u voqea rivoji, obrazlararo ziddiyat, kulminatsiya va yechimni ifoda etadi. Musiqa esa ushbu dramatik qurilmani chuqurroq anglatish vositasi sifatida xizmat qiladi. Dramaturgiya esa insoniy konfliktlar, ichki kurashlar va ruhiy holatlarning adabiy-sahnaviy ifodasidir. Ushbu ikki element teatrda bir-birini to'ldiruvchi, ba'zan esa birini ikkinchisi orqali ifodalovchi qudratli vositalardir. Teatr sahnasida qo'yiladigan har bir dramatik asar voqealarini tomoshabinga ochib berishda, albatta, musiqa ijrochiligining roli beqiyosdir. Musiqa sahnadagi harakatni psixologik jihatdan sharhlab beradi — bu sahnadagi har bir harakat, imo-ishora va so'zlar ortidagi his-tuyg'ularni tomoshabinga to'liq yetkazish imkonini beradi.

Sahnada musiqa cholg'ulari o'ziga xos quyidagi vazifalarni va holatni bajarish uchun xizmat qiladi.

1) Cholg'u orqali sahnadagi voqelikning ruhiy muhitini yaratish mumkin. Tragedik sahnalarda chuqur torli cholg'ular, dramatik klaymaklarda esa keskin zarbli ritmlar ishlatiladi.

2) Belgilangan obrazga xos musiqa timsollari (leitmotif) yaratilib, u orqali obrazning holatlari, kayfiyat o'zgarishlari ifodalanadi.

3) Musiqa orqali sahna vaqtini (tong, kech, urush, tantana) yoki makon (bozor, masjid, maydon, bog', qamoqxona)ni eslatish mumkin.

4) Ko'pincha aktyorlarning ichki kechinmalari aynan musiqa vositasida tomoshabinga yetkaziladi. Qahramonning tushkun yoki ko'tarinki kayfiyati, quvonchi kabi ichki tuyg'ulari.

5) O'zbek teatr san'ati tarixiga nazar tashlasak, unda cholg'u musiqasi dramaturgik tuzilmaning muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanganini ko'ramiz. Jadid davri ijodkorlari sahna asarlarida musiqani g'oya,

xarakter va dramatik konfliktni ochib beruvchi vosita sifatida qo'llaganlar. Bu holat teatr san'atida cholg'u musiqasining dramaturgik funksiyalari va estetik ta'sir mexanizmlarini yaqqol namoyon etadi.

Abdulla Qodiriy asarlarida milliy ruh va tarixiy muhitni yaratishda maqom ohanglari hamda an'anaviy cholg'u kuylaridan foydalanish sahnaviy talqinlarda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan. "Baxtsiz kuyov" dramasi sahnalashtirilganda xalqona kuy va lapar ohanglari orqali ijtimoiy muhitning ichki ziddiyatlari kuchaytirilgan.

Bu yerda cholg'u musiqasi dramatik vaziyatni belgilovchi fon emas, balki konfliktni chuqurlashtiruvchi estetik qatlam vazifasini bajaradi. Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodida esa musiqa bevosita dramaturgiyaning harakatlantiruvchi kuchiga aylangan.

Uning "Maysaraning ishi" asarida xalq kuy-qo'shiqlari va jo'rnavoqlik unsurlari komik vaziyatlarni kuchaytiradi, obrazlarning xarakterini ochadi va sahnadagi ritmni boshqaradi. Bu yerda doira, dutor kabi cholg'ular sahnaviy harakatning dinamikasini belgilab, tomoshabinning hissiy reaksiyasini yo'naltiradi.

Abdulla To'qay ijodida ham musiqa va teatr sintezi muhim o'rin tutgan. Uning dramatik asarlari sahnalashtirilganda milliy kuy va folklor ohanglari orqali obrazlarning ruhiy kechinmalari ifodalangan. Bu holatda cholg'u musiqasi estetik ta'sir mexanizmi sifatida tomoshabinning emotsional idrokini faollashtiradi va sahnaviy voqelikni yanada ishonarli qiladi.

Maqom, folklor cholg'ulari (doira, dutor, gijjak) teatr spektakllarida nafaqat atmosfera yaratishda, balki dramatik harakatni rivojlantirishda ham faol ishlatilgan.

Bu an'ana bugungi kunda ham davom etib, "jonli teatr" yo'nalishlarida cholg'u san'atkorlari sahna harakatining bevosita ishtirokchisiga aylanmoqda. Sahnada harakat va musiqaning muvofiqligi sahnaning ta'sirchanligini oshiradi. Agar aktyorlar harakati cholg'u bilan uyg'unlashsa, u holda sahnadagi ritmik uyg'unlik hosil bo'ladi. Bu esa asar syujeti tomoshabinda kuchli taassurot qoldirishiga sabab bo'ladi.

### Xulosa

Bugungi kunda har bir teatrda musiqa va dramaturgiyaning bir-biriga chambarchas bog‘liq holda faoliyat olib borayotganligi hamma ma‘lum. Sahnaga qo‘yilayotgan har bir spektakl mahoratli bastakor va rejissyorning ijodiy hamkorligi mahsulidir. Musiqa va dramaturgiya teatrda bitta tilga — dramatik tilga birlashadi. Cholqu orqali bu dramatik til zamon va makonni bildiradi, psixologik zo‘riqishni kuchaytiradi, obrazlar orasidagi ziddiyatlarni ifodalaydi hamda tomoshabinning hissiy holatini boshqaradi.

Boshqacha aytganda, cholqu — sahna orqasida emas, sahna yuragida joylashgan.

Cholg‘u orqali teatr sahnalarini jonlantirish – bu nafaqat musiqiy bezak, balki dramaturgik tuzilmaning uzviy qismi hisoblanadi. Musiqa orqali voqealar chuqurlashtiriladi, obrazlar jonlantiriladi, tomoshabinning ichki kechinmalariga bevosita ta‘sir o‘tkaziladi. Teatr san‘atining kelajakdagi rivoji aynan shu sintez – musiqa va dramaturgiya uyg‘unligining yangi shakllarini izlab topishga bog‘liq bo‘lib, bu boradagi izlanishlar davom etmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Teatr\\_musiqasi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Teatr_musiqasi)
2. N. Sayfullayev. Musiqali teatr san‘ati: milliy an‘analar va zamonaviy innovatsiyalar uyg‘unligi. “Musiqali teatr san‘ati ta‘limida aktyorlik va rejissura san‘ati muammolar” Respublika ilmiy-amaliy anjuman to‘plami/ 2025.4 bet
3. H. Qobilov. Teatr san‘atining rivojlanishida musiqa san‘atining o‘rni . "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal / 2023. 2-бет
4. Mirzaqosimova G. O‘zbek teatrda musiqa san‘ati. – Toshkent, 2001.
5. Stanislavskiy K. Aktyorning ichki dunyosi. – Moskva, 1938.
6. Karimov A. Teatr va zamonaviy musiqa. – Toshkent, 2019.

**REZYUME.** Ushbu maqolada teatr san‘atida cholg‘u (musiqa) vositalaridan foydalanish orqali sahnaviy obrazlar, dramatik konflikt va emotsional holatlarni chuqurlashtirish masalalari yoritiladi. Musiqa va dramaturgiya sintezi teatr tomoshabiniga kuchli estetik ta‘sir ko‘rsatish vositasi sifatida tahlil qilinadi. Maqola, shuningdek, milliy teatr an‘analarida cholg‘u vositalarining o‘rni, zamonaviy teatrda jonli musiqa uslublari, aktyorlik va kompozitorlik hamkorligining ijodiy mexanizmlari bilan bog‘liq nazariy hamda amaliy jihatlarni qamrab oladi.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье рассматриваются вопросы углубления сценических образов, драматического конфликта и эмоциональных состояний посредством использования музыкальных инструментов в театральном искусстве. Анализируется синтез музыки и драматургии как средство оказания сильного эстетического воздействия на театральную аудиторию. В статье также рассматриваются теоретические и практические аспекты, связанные с ролью музыкальных инструментов в национальных театральных традициях, стилями живой музыки в современном театре, а также творческими механизмами актерской игры и композиционного сотрудничества.

**SUMMARY.** This article examines the deepening of scenic images, dramatic conflict, and emotional states through the use of musical instruments in theatrical art. It analyzes the synthesis of music and drama as a means of exerting a strong aesthetic impact on theater audiences. The article also examines theoretical and practical aspects related to the role of musical instruments in national theatrical traditions, styles of live music in contemporary theater, as well as the creative mechanisms of acting and compositional collaboration.

## QASHQAR RUBABÍNÍN XALÍQ SAZLARÍ ORKESTRINDEGI ORNÍ

**Qalmuratov Ańsatbay Dosanovich – oqıtıwshı**

*Ózbekstan mámleketlik kórkem óner hám mádeniyat institutı Nókis filiali*

**Tayanch so‘zlar:** qashqar rubobi, xalq cholg‘ulari orkestri, cholg‘u asboblari, tembr, orkestr fakturası, xalq cholg‘u san’ati, musiqa an’anasi.

**Ключевые слова:** кашгарский рубаб, оркестр народных инструментов, исполнительские инструменты, тембр, фактура оркестра, народное музыкальное искусство, музыкальная традиция.

**Key words:** kashgar rubab, folk music orchestra, percussion, timbre, orchestral texture, folk musical art, musical tradition.

Xalıq saz-ásbabları orkestrleriniń jedel rawajlanıwı sharayatında dástúriy milliy saz-ásbapların akademiyalıq orkestr ortalığına integraciyalaw mashqalalarına qızıǵıwshılıq artıp barmaqta. Sonday saz-ásbaplarınan biri qashqar rubabı bolıp, ol óziniń ayqın tembr ózgesheligi hám turaqlı atqarıw dástúrlerine iye bolǵan shertiletuǵın tarlı saz-ásbabı esaplanadı. Qashqar rubobı xalıq muzıka ámeliyatında úlken áhmiyetke iye bolıwına qaramastan, házirgi kúnge shekem xalıq saz-ásbabları orkestrinde qollanıw máseleleri jeterli dárejede úyrenilmegenligi usı jumıstıń áhmiyetin belgilep beredi.

Qashqar rubabı uyǵır xalqı muzıka mádeniyatınıń eń áyyemgi saz-ásbaplarınan biri bolıp esaplanadı. Ol ásirler dawamında vokal hám saz janrları menen birgelikte, tiykarınan, jeke hám ansambl qosıqshılıǵında qollanıǵan. Dástúriy atqarıw túrlerinen orkestr atqarıw túrlerine ótiw xalıq saz-ásbab óneriniń professionallasıw procesleri hám iri atqarıwshı jámáátlerdiń qalıplesiwi menen baylanıslı boldı. Qashqar rubobınıń orkestr quramına kirgiziliwi onıń atqarıwshılıq imkaniyatların rawajlandırıw hám kórkemlik sheńberin keńeytiwde áhmiyetli basqısh boldı.

Qashqar rubobınıń dúzilisi, yaǵnıy pútin aǵashtan islengen korpus, uzın grif, nama hám jańǵırıtq tarlar sisteması onıń ózine tán jańlawın belgilep beredi.

Saz tembri - oberton quramınıń jumsaqlığı, tereńligi hám toyǵınlığı menen xarakterlenedi. Usı sıpatları rubabtıń xalıq sazları orkestrinin tembr palitrasına organikalıq sıyılıwına, sonıń menen birge individual ses reńin saqlap qalıwına imkaniyat beredi. Orkestr ámeliyatında qashqar rubabı bir qatar wazıypalardı atqaradı. Birinshi gezekte, ol tiykarǵı tematikalıq sızıqtı anıq hám tásirli júrgize alatuǵın jetekshi muzıka-ásbabı

sıpatında qollanıladı. Sonday-aq, rubab kóbinese solo funkciyasın atqarıp, milliy-uslubiy intonaciyalardıń tasıwshısı esaplanadı. Kóp dawıslı orkestr fakturasında-ásbab garmoniyalıq fon hám ornament sızıqların payda etiwde qatnasıp, ulıwma jańlawdıń tembrli bayıwına járdem beriwı múmkin. Qashqar rubabın orkestr atqarıwshılıǵına beyimlestiriw bir qatar wazıypalar menen baylanıslı bolıp, olar dúzilisti birlestiriw, diapazonın keńeytiw, ansambl atqarıwshılıǵınıń ózine tán usılların islep shıǵıwdan ibarat. Zamanagóy kompozitor hám aranjirovshılar saz-ásbaptıń imkaniyatlarına kóbirek itibar qaratıp, muzıkalıq pikirlewdiń dástúriy hám akademiyalıq principlerin birlestiriwge baǵdarlanǵan shıǵarmalar jaratpaqta. Bul bolsa atqarıwshılıq mektebiniń jáne de rawajlanıwına, qashqar rubobınıń orkestr ámeliyatındaǵı ornın bekkemlewge xızmet etedi. Qashqar rubabı xalıq saz-ásbabları orkestriniń áhmiyetli bólegi bolıp, úlken kórkem hám mádeniy wazıypalardı atqaradı. Onıń tembr tásirshenligi hám universallığı orkestr ses palitrasın keńeytiw, muzıka materiallarınıń milliy ózgesheligin kórsetiw imkanın beredi. Qashqar rubobınıń orkestrdegi rolin úyreniw xalıq saz ónerinde dástúr hám zamanagóyliktiń óz ara tásirini proceslerin tereńirek túsiniwge járdem beredi.

Qashqar rubabı xalıq saz-ásbabları orkestriniń áhmiyetli bólegi bolıp, úlken kórkem hám mádeniy wazıypalardı atqaradı. Onıń tembr tásirshenligi hám universallığı orkestr ses palitrasın keńeytiw, muzıka materiallarınıń milliy ózgesheligin kórsetiw imkanın beredi. Qashqar rubobınıń orkestrdegi rolin úyreniw xalıq saz ónerinde dástúr hám zamanagóyliktiń óz ara tásirini proceslerin tereńirek túsiniwge járdem beredi.

### Paydalanılğan ádebiyatlar

1. Abdurahmonov A. A. Markaziy Osiyo xalq cholg'ulari. - Tashkent: Fan, 2015. - 212 b.
2. Karimov R. X. Uyğur aňnaviy musiqasi va cholg'ulari. - Almatı: Óner, 2018. - 185 b.
3. Nurmuxamedov S. J. Orkestr narodnıx instrumentov: istoriya i sovremennost. - Tashkent: "Muzika," 2016. - 198 b.
4. Xamrayev M. K. Tembroye osobennosti щıpkovıx instrumentov Vostoka // Muzikalnoe iskusstvo. - 2019. - No 2. - S. 45-52.
5. Yusupov I. B. Rubob ijrochiligi aňanalari. Dushanbe, "Irfon," 2020. - 160 b.

**REZYUME.** Maqolada zamonaviy ijrochilik va orkestr amaliyotida qashqar rubobining xalq cholg'ulari orkestrida tutgan o'rni haqida so'z boradi. Orkestr tarkibiga cholg'u asbobini kiritishning tarixiy-madaniy asoslari, cholg'uning konstruktiv, tembrik va badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Qashqar rubobining cholg'u va yakkaxon cholg'u sifatidagi funksional xususiyatiga, ko'p qismli orkestr fakturasiga moslashish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qashqar rubobi xalq cholg'ulari asboblari orkestrining milliy-uslubiy o'ziga xosligini shakllantirishda, musiqa madaniyati an'alarini saqlab qolishda muhim bo'lgan, degan xulosaga kelinadi.

**РЕЗЮМЕ.** В статье обсуждается роль кашгарского рупаба в оркестре народных инструментов в современной исполнительской и оркестровой практике. Обсуждаются историко-культурные основы включения музыкального инструмента в состав оркестра, а также его конструктивные, тембровые и художественные особенности. Особое внимание уделяется функциональным особенностям кашгарского рупаба как музыкального и сольного инструмента, а также его адаптации к многочастной оркестровой фактуре. Сделан вывод о том, что кашгарский рупаб сыграл важную роль в формировании национально-стилистического своеобразия оркестра народных инструментов и сохранении традиций музыкальной культуры.

**SUMMARY.** The article discusses the role of the Qashqar rubob in contemporary performance and orchestral practice within the folk instrument orchestra. The historical and cultural foundations of incorporating musical instruments into the orchestra, as well as the instrument's structural, timbral, and artistic features, are analyzed. Special attention is being paid to the functional characteristics of the Kashgar rubab as a musical instrument and a solo instrument, as well as its adaptation to the multi-part orchestral texture. It is concluded that the Kashgar rubab played an important role in shaping the national-stylistic identity of the folk instrument orchestra and preserving the traditions of musical culture.

### EKSPERIMENTAL TEATR IMKONIYATLARI

*(O'zbekiston va Qoraqalpog'iston teatr san'ati misolida)*

**Qazaqbaeva Ramuza Perdebaevna** – o'qituvchi

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali*

**Tayanch so'zlar:** eksperimental teatr, badiiy ifoda, sahna tajribasi, aktyorlik san'ati, rejissyorlik izlanishlari, zamonaviy teatr.

**Ключевые слова:** экспериментальный театр, художественное самовыражение, сценический опыт, актерское искусство, режиссерские исследования, современный театр.

**Key words:** experimental Theatre, artistic expression, stage experience, acting arts, direction studies, contemporary theatre.

Teatr san'ati jamiyat ma'naviy hayotining muhim bo'g'ini bo'lib, u doimiy izlanish va yangilanish jarayonida rivojlanadi. Zamonaviy davrda teatr san'atida an'anaviy shakllar bilan bir qatorda eksperimental yo'nalishlar ham faol rivojlanmoqda.

Eksperimental teatr san'atkorlarning badiiy tafakkuri, sahna imkoniyatlari va tomoshabin bilan muloqot usullarini kengaytirishga xizmat qiladi. [1] Ayniqsa, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston teatrlarida so'nggi yillarda eksperimental sahna tajribalari sezilarli

darajada kuchaydi. Eksperimental teatr — bu an’anaviy dramaturgiya, sahna makoni va aktyorlik uslublaridan chekinib, yangi badiiy ifoda vositalarini sinovdan o’tkazishga qaratilgan teatr shaklidir. Teatrshunos olim P.Brook ta’kidlaganidek: “Teatr tirik san’atdir, u doimiy tajribani talab qiladi. Tajriba bo’lmasa, teatr o’z hayotiyiligini yo’qotadi”. [2.15] Mazkur fikr eksperimental teatrning mohiyatini ochib beradi. Ushbu yo’nalishda sahna bezagi, aktyor harakati, nutq, musiqa va yorug’lik yagona badiiy g’oyaga bo’ysundiriladi. [3] Eksperimental teatrning eng muhim xususiyati — badiiy ifoda vositalarining kengligi va erkinligidir. Unda: sahna makoni an’anaviy chegaralardan chiqib ketadi; aktyor nutqdan ko’ra plastik harakat va ramziy ishoralarga tayanadi; yorug’lik va musiqa mustaqil badiiy unsur sifatida qo’llaniladi; tomoshabin passiv kuzatuvchi emas, balki sahna jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. [4] Teatrshunos A.Karimov bu borada shunday yozadi: “Eksperimental teatr tomoshabinni tayyor xulosaga olib kelmaydi, balki uni mustaqil fikrlashga majbur etadi”. [5.42] O’zbekiston teatr san’atida, xususan, O’zbek Milliy akademik drama teatri va Yoshlar teatri eksperimental spektakllar sahnalashtirilmoqda. Bu sahna asarlarida klassik asarlar zamonaviy talqinda, ramziy va metaforik usullar orqali namoyon etiladi. Rejissyorlik yechimlarida minimalistik sahna bezagi, aktyor improvizatsiyasi va ochiq sahna makonidan foydalanish kuzatiladi. [6]

Rejissyor B.Yo’ldoshevning fikricha: “Bugungi teatr tomoshabin bilan teng muloqotda bo’lishi kerak. Eksperiment esa ana shu muloqotning eng samarali yo’lidir”. [7.27] Berdaq nomidagi qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatri va Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatri ham eksperimental yo’nalishdagi izlanishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Milliy folklor, mifologik obrazlar va zamonaviy sahna texnikalari uyg’unligi ushbu teatrning o’ziga xos jihatlaridan biridir. Ayrim spektakllarda dialogdan ko’ra harakat, musiqa va sahna plastikasiga urg’u berilishi eksperimental teatrga xos belgidir. [8] (Misol: Jorj Samuyel Kleysonning “Vavilonning eng boy odami”, A.Ismaylovning “Terbenbes jurekler”, M.Awezovning “Qorakoz”, A.Valodinnig “Qiymayman” v.b spektakllar). Qoraqalpoq teatrshunoslaridan biri shunday ta’kidlaydi: “Eksperimental sahna izlanishlari milliy teatrni yo’qotmaydi, aksincha, uning ichki imkoniyatlarini ochib beradi” [9.58]

Xulosa qilib aytganda, eksperimental teatr zamonaviy teatr san’atining muhim va ajralmas qismiga aylanib bormoqda. U badiiy ifoda imkoniyatlarini kengaytirib, aktyor va rejissyor ijodiy erkinligini ta’minlaydi hamda tomoshabin tafakkurini faollashtiradi. O’zbekiston va Qoraqalpog’iston teatrlarida amalga oshirilayotgan eksperimental izlanishlar milliy teatr san’atining zamon bilan hamnafas rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brook P. (1996). *The Empty Space*. London: Penguin Books.
2. Grotowski J. (2002). *Towards a Poor Theatre*. New York: Routledge.
3. Fischer-Lichte, E. (2008). *The Transformative Power of Performance*. London: Routledge.
3. Karimov A. (2015). *Zamonaviy teatr san’ati va sahna izlanishlari*. Toshkent: San’at.
4. Yo’ldoshev B. (2012). *Rejissyorlik va zamonaviy sahna tafakkuri*. Toshkent: G’afur G’ulom nashriyoti.
5. Jumaniyazov R. (2016). *Qoraqalpoq teatr san’atining rivojlanish bosqichlari*. Nukus: Qoraqalpog’iston.
6. Allambergenov K. (2014). *Qoraqalpoq dramaturgiyasi va sahna talqini*. Nukus: Bilim.

**REZYUME.** Mazkur maqolada eksperimental teatr tushunchasi, uning vujudga kelish sabablari, zamonaviy teatr san’atidagi o’rni hamda badiiy ifoda imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, eksperimental teatrning an’anaviy teatr shakllaridan farqli jihatlari va tomoshabin bilan muloqotdagi yangicha yondashuvlari yoritiladi.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье анализируется понятие экспериментального театра, причины его возникновения, роль в современном театральном искусстве, а также возможности художественного выражения. Также освещаются отличия экспериментального театра от традиционных театральных форм и новые подходы к общению со зрителем.

**SUMMARY.** This article analyzes the concept of experimental theater, the reasons for its emergence, its place in modern theater art and the possibilities of artistic expression. It also highlights aspects of experimental theatre that are different from traditional theatrical forms, and new approaches in dialogue with the viewer.

## ZAMONAVIY ESTRADADA VOKAL IJROCHILIGI TEXNIKALARI

**Nuratdinov Timur** – o‘qituvchi

*O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti Nukus filiali*

**Tayanch so‘zlar:** zamonaviy estrada vokali, vokal texnika, nafas olish, rezonans, ovoz apparati, vokal pedagogika.

**Ключевые слова:** современный эстрадный вокал, вокальная техника, дыхание, резонанс, голосовой аппарат, вокальная педагогика.

**Key words:** modern pop vocals, vocal technique, breathing technique, resonance, vocal apparatus, vocal pedagogy.

Zamonaviy musiqa san‘ati rivojida estrada vokali alohida o‘rin egallaydi. Bugungi globallashuv sharoitida estrada ijrochiligi milliy madaniyat chegaralaridan chiqib, jahon miqyosida keng tarqalgan san‘at turi sifatida shakllanmoqda. Estrada vokali nafaqat ommaviy madaniyatning mahsuli, balki murakkab texnik, fiziologik va estetik tamoyillarga asoslangan professional ijrochilik yo‘nalishidir.

Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, estrada vokali akademik (klassik) vokaldan o‘zining texnik erkinligi, ovoz ranglarining xilmaxilligi, improvizatsiyaga moyilligi va mikrofon texnologiyasi bilan chambarchas bog‘liqligi bilan farqlanadi. Shu bois zamonaviy estrada vokal texnikasi alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida qaralmoqda. Richard Miller estrada vokali va klassik vokal o‘rtasidagi farqlarni quyidagicha izohlaydi: “Akademik vokal qat‘iy texnik me‘yorlarga asoslangan bo‘lsa, zamonaviy estrada vokali ovoz apparatining tabiiy imkoniyatlaridan erkin foydalanishga tayanadi” [1. 354b].

XX asrning ikkinchi yarmida estrada musiqa janrlarining (jazz, pop, rock, soul, R&B) rivojlanishi vokal texnikasida yangi yondashuvlarni shakllantirdi. An‘anaviy bel canto texnikasi estrada ijrochiligining barcha talablariga javob bera olmasligi sababli, vokal pedagogikasida yangi metodlar ishlab chiqildi. Ushbu jarayonda ovoz apparatining fiziologiyasi, akustik qonuniyatlar va psixofiziologik omillar chuqur o‘rganila boshlandi. Ingo Titze o‘z ilmiy izlanishlarida ovoz ishlab chiqarish jarayonini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilib, quyidagi fikrni bildiradi:

“Ovoz – bu mushaklar harakati, havo bosimi va akustik rezonansning murakkab o‘zaro ta‘siri natijasidir”[2-320b].

Zamonaviy estrada vokalida xonandaning texnik tayyorgarligi uning ijro davomiyligi va ovoz sog‘lig‘ini bevosita belgilaydi. Noto‘g‘ri vokal texnika ovoz bog‘lamlarining zo‘riqishiga, ovoz yo‘qolishiga va professional faoliyatning erta yakunlanishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli estrada vokalini ilmiy asosda o‘rganish va tizimli o‘qitish muhim ahamiyat kasb etadi. Jo Estill tomonidan ishlab chiqilgan vokal nazariya va amaliyotga asoslangan tizimda bu masala alohida urg‘u bilan ko‘rsatiladi: “Ovoz apparatini ongli boshqarish estrada ijrochisi uchun nafaqat san‘at, balki kasbiy zaruratdir”[3-289b]. Bugungi kunda estrada vokali nafaqat ijrochilik faoliyati, balki ta‘lim tizimining muhim yo‘nalishiga ham aylangan. Ko‘plab musiqa akademiyalari va san‘at institutlarida estrada vokali bo‘yicha maxsus yo‘nalishlar ochilgan. Bu esa mazkur yo‘nalishni ilmiy-metodik jihatdan chuqur o‘rganishni talab qiladi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — zamonaviy estrada vokal texnikasining nazariy va amaliy asoslarini ilmiy adabiyotlar tahlili orqali yoritish, vokal texnikaning fiziologik, pedagogik va ijrochilik jihatlarini kompleks tarzda o‘rganishdan iboratdir. Tadqiqot jarayonida jahon vokal pedagogikasining yetakchi mutaxassislari asarlariga tayaniladi hamda estrada vokalining o‘ziga xos xususiyatlari ochib beriladi. Estrada vokal texnikasining nazariy asoslari sifatida estrada vokal texnikasi inson ovoz apparatining anatomik-

fiziologik imkoniyatlariga asoslangan murakkab tizim hisoblanadi. Ovoz hosil bo'lish jarayoni nafas olish tizimi, hiqildoq (laringks), ovoz bog'lamlari va rezonator bo'shliqlarning o'zaro muvofiqlashgan faoliyati natijasida yuzaga keladi. Ilmiy tadqiqotlarda ushbu jarayon "ovoz ishlab chiqarish mexanizmi" sifatida tavsiflanadi. Principles of Voice Production asarida Ingo Titze ovoz hosil bo'lishini akustik va biomekanik jarayon sifatida talqin qilib, quyidagi fikrni ilgari suradi: "Ovoz sifati nafas bosimi, ovoz bog'lamlarining tebranish tezligi va rezonator tizimining moslashuviga bevosita bog'liq"[4-2b] Estrada vokalida akademik vokaldan farqli ravishda ovoz apparatining nisbatan erkin holati saqlanadi. Hiqildoqning haddan tashqari past yoki yuqori pozitsiyasi emas, balki tabiiy, moslashuvchan holati ustuvor hisoblanadi. Bu esa ovoz tembrining tabiiy va tinglovchiga yaqin bo'lishini ta'minlaydi. The Structure of Singing muallifi Richard Miller estrada vokal texnikasini quyidagicha tavsiflaydi: "Zamonaviy estrada ijrochiligida asosiy maqsad – ovoz apparatini majburlamasdan, uning tabiiy imkoniyatlarini maksimal darajada ishga solishdir"[5-410b]. Nazariy jihatdan estrada vokali ko'krak (chest voice), bosh (head voice) va aralash (mixed voice) registrlar o'rtasidagi muvozanatga tayanadi. Aynan ushbu muvozanat estrada ijrochisiga keng diapazon, kuchli dinamika va ifodaviylikni ta'minlaydi. Nafas texnikasi va ovoz barqarorligi bugungi zamonaviy estrada vokal texnikasining eng muhim komponentlaridan biri – to'g'ri nafas olish texnikasidir. Ilmiy adabiyotlarda nafas "ovoz energiyasining manbai" sifatida talqin qilinadi. Diafragmal–qovurg'aviy nafas olish turi estrada vokalining asosiy talabi hisoblanadi.

Singing for the Stars asarida Seth Riggs nafas va ovoz o'rtasidagi bog'liqlikni quyidagicha izohlaydi: "Nafasni to'g'ri boshqarmagan xonanda ovozini uzoq muddat sog'lom saqlab qola olmaydi" [6-260b]. Estrada vokalida nafas bosimini haddan tashqari kuchaytirish tavsiya etilmaydi. Aksincha, barqaror va nazorat qilinadigan havo oqimi ovoz bog'lamlarining erkin tebranishiga yordam beradi. Amaliy mashqlarda "s-s", "z-z", "v-v" kabi undoshlar orqali nafasni boshqarish keng qo'llaniladi.

Nafas texnikasining to'g'ri shakllanishi xonandaning uzoq konsert faoliyati davomida ovoz charchashining oldini oladi va professional barqarorlikni ta'minlaydi.

Rezonans va tembr shakllanishida estrada vokal texnikasida tembr boyligi va ovoz kuchini oshiruvchi asosiy omillardan biridir. Rezonatorlar sifatida og'iz bo'shlig'i, burun bo'shlig'i, halqum va ko'krak bo'shlig'i xizmat qiladi. Ilmiy manbalarda rezonans ovozni "kuchaytiruvchi va rang beruvchi akustik tizim" sifatida ta'riflanadi. Jo Estill rezonans masalasiga alohida e'tibor qaratib, shunday yozadi: "Rezonatorlarni ongli boshqarish xonandaga ovoz ranglarini erkin o'zgartirish imkonini beradi"[7-458b]. Estrada vokalida "twang" texnikasi rezonansni kuchaytirishning muhim vositasi hisoblanadi. Ushbu texnika ovozni yorqin, aniq va mikrofonisiz ham eshitiladigan qiladi, biroq noto'g'ri qo'llanganda ovoz zo'riqishiga olib kelishi mumkin. Amaliy mashqlar va pedagogik yondashuvlarda zamonaviy vokal pedagogikasi estrada vokalida individual yondashuvni ustuvor deb biladi. Har bir xonandaning ovoz diapazoni, tembr va fiziologik imkoniyatlari farqlidir. Shu sababli universal mashqlar bilan cheklanib qolish ilmiy jihatdan to'g'ri emas. Amaliy mashg'ulotlarda quyidagi mashqlar keng qo'llaniladi:

- siren mashqlari (glissando),
- aralash registri rivojlantiruvchi mashqlar,
- rezonansni faollashtiruvchi burun tovushlari,
- artikulyatsiyani rivojlantiruvchi mashqlar.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, to'g'ri tanlangan mashqlar vokal texnikaning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi va ovoz kasalliklarining oldini oladi.

Zamonaviy estrada vokal texnikasi bugungi musiqa san'atida mustaqil, murakkab va ko'p qirrali ijrochilik tizimi sifatida shakllanganligini ushbu tadqiqot natijalari yaqqol ko'rsatadi. Estrada vokali nafaqat ommaviy madaniyat doirasida, balki professional musiqiy ta'lim va ilmiy izlanishlar kontekstida ham chuqur o'rganilishi zarur bo'lgan san'at yo'nalishidir. Mazkur maqolada ko'rib chiqilgan nazariy va amaliy jihatlar estrada vokalining tasodifiy yoki faqat iste'dodga asoslangan faoliyat emasligini, balki ilmiy asoslangan vokal texnikalar majmuasi ekanligini tasdiqlaydi.

Estrada vokal texnikasining poydevori ovoz apparatining anatomik-fiziologik qonuniyatlariga tayanadi. Nafas olish, ovoz bog‘lamlarining tebranishi, hiqildoq holati va rezonator tizimining o‘zaro uyg‘unligi estrada vokalida ovoz sifati va barqarorligini belgilovchi asosiy omillardir. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ovoz ishlab chiqarish jarayonini ongli boshqarish xonandaning professional faoliyatida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Principles of Voice Production muallifi Ingo Titze tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlar estrada vokalini akustik va biomekanik jarayon sifatida tushunish zarurligini asoslab beradi. Ushbu yondashuv estrada ijrochilarining ovoz sog‘lig‘ini saqlash va texnik imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ilmiy poydevor vazifasini bajaradi. Xulosa qilish mumkinki, estrada vokalida to‘g‘ri nafas texnikasi markaziy o‘rin egallaydi. Diafragmal–qovurg‘aviy nafas olish usuli ovoznıng barqarorligini ta‘minlab, ovoz bog‘lamlariga ortiqcha bosim tushishining oldini oladi. Nafasni ongli boshqarish estrada xonandasiga uzoq vaqt davomida yuqori ijro sifatini saqlab qolish imkonini beradi. Bu jihat Seth Riggs tomonidan ishlab chiqilgan metodik yondashuvlarda ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Singing for the Stars asarida ilgari surilgan g‘oyalar estrada vokal texnikasining amaliy samaradorligini tasdiqlaydi va pedagogik jarayonda keng qo‘llanishi mumkin bo‘lgan ilmiy-metodik asoslarni taqdim etadi. Shuningdek, maqolada rezonans va tembr shakllanishi masalasi alohida tahlil qilindi. Rezonator tizimining ongli boshqarilishi estrada vokalida ovoz ranglarining boyligi, ifodaviylik va dinamik imkoniyatlarning kengayishiga xizmat qiladi. Zamonaviy estrada ijrochiligida “twang”, “mix voice”

kabi texnikalar ovoznıng yorqin va eshitiluvchan bo‘lishini ta‘minlaydi, biroq ularni noto‘g‘ri qo‘llash vokal zo‘riqish va funksional buzilishlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli mazkur texnikalarni ilmiy-metodik asosda o‘rgatish dolzarb masala hisoblanadi.

The Structure of Singing muallifi Richard Miller estrada vokal texnikasida tabiiylik va ovoz apparatiga ehtiyotkor munosabat ustuvor bo‘lishi lozimligini ta‘kidlaydi. Ushbu fikr zamonaviy vokal pedagogikasining asosiy tamoyillaridan biri sifatida qaralishi mumkin. Amaliy jihatdan olib qaralganda, zamonaviy estrada vokalini o‘qitish jarayonida individual yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir xonandaning ovoz diapazoni, tembri, fiziologik imkoniyatlari va psixologik xususiyatlari farqlidir. Shu sababli universal metodlar bilan cheklanib qolmasdan, shaxsga yo‘naltirilgan mashg‘ulot tizimini ishlab chiqish ilmiy va pedagogik jihatdan eng to‘g‘ri yondashuv hisoblanadi. Umuman olganda, mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy estrada vokal texnikasi klassik vokal an‘analaridan oziqlangan holda, yangi ilmiy, texnologik va estetik yondashuvlar asosida rivojlanmoqda. Estrada vokalini ilmiy asosda o‘rganish va o‘qitish nafaqat ijro sifatini oshiradi, balki xonandalarning vokal sog‘lig‘ini saqlash, professional umrini uzaytirish va sahnaviy barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, zamonaviy estrada vokal texnikasi musiqashunoslik, vokal pedagogikasi va ijrochilik san‘atining kesishgan nuqtasida joylashgan murakkab ilmiy-amaliy tizimdir. Uni chuqur o‘rganish va rivojlantirish zamonaviy musiqa ta‘limining dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Titze I. R. Principles of Voice Production. — New Jersey: Prentice Hall, 1994. — 354 p.
2. Miller R. The Structure of Singing: System and Art in Vocal Technique. — New York: Schirmer Books, 1996. — 320 p.
3. Riggs S. Singing for the Stars: A Complete Program for Training Your Voice. — Los Angeles: Alfred Publishing, 1987. — 289 p.
4. Estill J. Estill Voice Training System. — Pittsburgh: Estill Voice International, 2005. — 2 vols.
5. McKinney J. C. The Diagnosis and Correction of Vocal Faults. — Nashville: Genevox Music Group, 2005. — 410 p.
6. Vennard W. Singing: The Mechanism and the Technic. — New York: Carl Fischer Music, 1967. — 260 p.

7. Chapman J. L. Singing and Teaching Singing: A Holistic Approach to Classical Voice. — San Diego: Plural Publishing, 2012. — 458 p.
8. Sundberg J. The Science of the Singing Voice. — DeKalb: Northern Illinois University Press, 1987. — 235 p

**REZYUME.** Mazkur ilmiy maqolada zamonaviy estrada vokal texnikasining nazariy va amaliy asoslari keng qamrovda tahlil qilinadi. Tadqiqotda estrada vokalining anatomik-fiziologik xususiyatlari, nafas olish texnikasi, ovoz hosil bo'lish mexanizmi, rezonans va tembr shakllanish jarayonlari ilmiy adabiyotlar asosida yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy vokal pedagogikasida qo'llanilayotgan metodik yondashuvlar, individual o'qitish tamoyillari va estrada vokalining akademik vokaldan farqli jihatlari tahlil etilgan. Maqolada jahon vokal pedagogikasi namoyandalarining ilmiy qarashlariga tayangan holda, estrada vokalini sog'lom va barqaror rivojlantirish masalalari asoslab berilgan.

**РЕЗЮМЕ.** В данной научной статье рассматриваются теоретические и практические основы современной эстрадной вокальной техники. В исследовании освещаются анатомо-физиологические особенности эстрадного вокала, дыхательная техника, механизмы голосообразования, процессы формирования резонанса и тембра на основе научной литературы. Особое внимание уделяется методическим подходам современной вокальной педагогики, принципам индивидуального обучения и отличительным особенностям эстрадного вокала по сравнению с академическим пением. На основе трудов ведущих специалистов в области вокальной педагогики обосновываются вопросы сохранения вокального здоровья и устойчивого профессионального развития исполнителей.

**SUMMARY.** This scientific article examines the theoretical and practical foundations of modern pop vocal technique. The study analyzes the anatomical and physiological characteristics of pop singing, breathing techniques, mechanisms of voice production, and the processes of resonance and timbre formation based on scholarly literature. Special attention is given to contemporary vocal pedagogy methods, principles of individual instruction, and the distinctive features of pop vocals in comparison with classical singing. Drawing on the works of leading vocal pedagogues, the article substantiates approaches to maintaining vocal health and ensuring sustainable professional development of singers.

## МЕКТЕПКЕ SHEKEMGI BILIMLENDIRIW SHÓLKEMLERINDE MUZÍKALÍQ TÁLIM

**Omarova Anar** – oqıtıwshı

**Bekbaulieva Feruza**

*Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı*

**Tayanış sózler:** muzıka, bilimlendiriw, texnologiya, tárbiyashı, muzıkalıq iskerlikler, qábiilet, pedagogika.

**Ключевые слова:** музыка, образование, технология, воспитатель, музыкальная деятельность, талант, педагогика.

**Key words:** music, education, technology, educator, musical activity, talent, pedagogy.

Bilimlendiriw sistemasın túp-tiykarınan jetilistiriw, talabalardıń bilim potencialın arttırıw, kásiplik hám korrupciyasız bilimlendiriwge ótiw, joqarı bilimlendiriwde qarjılıq hám akademiyalıq erkinlik beriw hám basqarıwdı jetilistiriw boyınsha búgingi sistemada bir qatar reformalar izbe-iz ámelge asırılmaqta.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevtiń 2020-jıl 24-yanvardaǵı Joqarı Májliske Múrajáátinde jańa kásiplik bilimlendiriw sistemasına ótiw, kadrlar tájriybeliligini xalıqaralıq talaplarǵa maslastırıw maqsetinde milliy tájriybe sistemasın islep shıǵıw boyınsha taraw qánigelerine áhmiyetli wazıypalardı belgilep berdi. Jańa professional bilimlendiriw

Auditoriya bilan chuqur aloqa o‘rnatish uchun aktyor ommaviy yolg‘izlik holatiga erishishi zarur. Bu paradoksal holat bo‘lib, aktyor o‘z sahnaviy obyektiga (partnyoriga yoki buyumga) qanchalik qattiq diqqat qaratsa va tomoshabin zalini “unitsa”, u tomoshabinlar e‘tiborini shunchalik kuchli jalb qiladi. Agar aktyor tomoshabinga yoqish uchun unga qarasa, aloqa buziladi va ijro hunarmandchilikka (shtampga) aylanadi. Emotsional kechinma jarayonida aktyor ongida to‘xtovsiz ravishda «ichki ko‘rish kinotasmasi» — qahramon hayotiga mos bo‘lgan tasavvurlar va obrazlar oqimi o‘tib turishi kerak. Ushbu ichki manzaralar aktyorning tuyg‘ulariga ta’sir qiladi, uning jismoniy holati va intonatsiyalari orqali tomoshabinga o‘tib, uni ham xuddi shu narsani «ko‘rishga» majbur etadi. Shunday qilib, emotsional bog‘lanish paytida energetik almashinuv sodir bo‘ladi va bu tomoshabinni passiv kuzatuvchidan sahnaviy harakatning faol ishtirokchisiga aylantiradi. Drama janrining asosiy vazifasi ham aynan mana shu — inson qalbiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir o‘tkazishdan iboratdir. Aktyorning sahnadagi jonli ijrosi tomoshabinda kuchli qabul qilish hissini uyg‘otadi va uni sodiq sherikka aylantiradi. Xatti-harakat — hissiyotning kaliti. Dramatik san’atda hissiyotlarni shunchaki o‘ynab yoki zo‘rlab chiqarib bo‘lmaydi. Psixotexnikaning asosiy qonuniga ko‘ra, harakat — sezgi va hissiyotlarni qo‘zg‘atuvchi yagona kuchdir. Aktyor sahnada ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilgan, mantiqiy va izchil jismoniy harakatlarni bajarishi natijasida kerakli hissiyot tabiiy ravishda, zo‘riqishsiz tug‘iladi. Stanislavskiy ta’biri bilan aytganda, jismoniy harakat hissiyotlarni ilintiruvchi «qarmoq» yoki «qopqon» vazifasini o‘taydi. Sehrli “agarda” va berilgan shart-sharoitlar Hissiyotni uyg‘otish uchun aktyor avvalo “berilgan shart-sharoitlar”ga (pyesa fabulasi, davr, voqea joyi) astoydil ishonishi kerak. Bunda “agarda” (masalan: “agar men haqiqatan ham shu vaziyatga tushib qolsam, nima qilgan bo‘lardim?”) degan sehrli so‘z aktyor tabiatini harakatga keltiruvchi turtki bo‘ladi. Aktyor sahnaviy haqiqatga qanchalik qattiq ishonsa, uning organizmida haqiqiy insoniy ehtiroslar

shunchalik tez uyg‘onadi. Hissiyotlar xotirasi (Emotsional xotira) Aktyor o‘z roli uchun kerakli hissiyotlarni o‘z hayotiy tajribasidan, ya’ni hissiyotlar xotirasidan qidirib topadi. Inson ilgari boshidan kechirgan quvonch, qayg‘u yoki qo‘rquv lahzalari vaqt o‘tishi bilan tozalanib, badiiy shakl oladi. Sahnada biror obyekt yoki holat shu eski xotirani qo‘zg‘atsa, aktyorda takroriy hissiyotlar (real hayotdagidek kuchli yoki biroz o‘zgargan holda) jonlanadi. Ichki ko‘rish kinotasmasi Hissiyotlarning uzluksiz bo‘lishi uchun aktyor ongida to‘xtovsiz “ichki ko‘rish kinotasmasi” — qahramon hayotiga mos tasvirlar oqimi o‘tishi kerak. Aktyor ichki ko‘zi bilan ko‘rayotgan bu manzaralar uning ruhiyatiga ta’sir qilib, kerakli kayfiyatni yaratadi va ijodiy kechinmani uyg‘otadi.

“Ommaviy yolg‘izlik” va diqqat Aktyor diqqatini sahnadagi aniq bir obyektga (partnyoriga yoki buyumga) qanchalik kuchli jamlasa, uning mushaklari shunchalik bo‘shashadi va ichki ijodiy erkinlik paydo bo‘ladi. Bu holat «ommaviy yolg‘izlik» deb atalib, aktyorga tomoshabin oldida tabiiy, insoniy hissiyotlar bilan yashash imkonini beradi. Muhim ogohlantirish: Hissiyotlarni sun‘iy ravishda, mexanik yoki asablarni zo‘rlash orqali chiqarishga urinish aktyorlik shtamplariga va soxtalikka olib keladi. Chinakam ijod uchun hissiyotni zo‘rlash emas, balki uni tug‘diruvchi sharoit va harakatlar haqida g‘am yemoq lozim. Sahnaviy haqiqat va «Oliy maqsad» ta’sir kuchi sifatida Aktyorning sahnadagi eng asosiy vazifasi — roldagi inson ruhining hayotini yaratish va uni badiiy ifodalashdir. Bunga erishish uchun aktyor sahnaviy haqiqatga va berilgan shart-sharoitlarga astoydil ishonishi lozim. Tomoshabin faqat aktyor ishongan narsagagina ishonadi.

Drama san’atida sahnaviy haqiqat va «oliy maqsad» tomoshabin ongi hamda qalbiga bevosita ta’sir o‘tkazuvchi eng qudratli ijodiy kuchlar hisoblanadi. Ushbu tushunchalarning mohiyati va vazifalari manbalarda quyidagicha yoritilgan:

***Sahnaviy haqiqat va ishonch ta’sir kuchi sifatida***

Sahnaviy haqiqat — bu aktyor tomonidan yaratiladigan badiiy voqelik bo‘lib, u tomoshabinni spektakl voqealariga

ishontirishning asosiy garovidir. Tomoshabin sahnada faqat aktyorning o'zi astoydil ishongan narsagagina ishonadi. Agar aktyor sahnada sodir bo'layotgan voqelikning haqiqiyligiga shubha qilsa, tomoshabin ham ikkilana boshlaydi va asarning badiiy ta'sir kuchi yo'qoladi. Sahnaviy haqiqat hayotdagi oddiy voqelikning aynan ko'chirmasi emas, balki badiiy umumlashtirilgan haqiqatdir. Masalan, aktyor sahnadagi qog'ozdan yasalgan xinjarning po'lat emasligini bilsa-da, uning «xaqiqiyligiga» emas, balki unga bo'lgan munosabatning haqqoniyligiga ishonishi kerak. Sahnaviy haqiqatga erishishning birdan-bir yo'li — bu har bir harakat va vaziyatni mantiqan «oqlash» dir. Aktyor «nega?», «nima uchun?» degan savollarga to'g'ri javob topsa, uning ijrosi tabiiy va ishonchli chiqadi.

#### **«Oliy maqsad» — ijodning yuragi va yo'nalishi**

Stanislavskiy ta'limotiga ko'ra, oliy maqsad — bu ijodkorning o'z g'oyasini insonlar ongiga singdirishdan ko'zlagan asosiy muddaosidir. Oliy maqsad aktyor va rejissyorlar qo'lidagi juda o'tkir va kuchli g'oyaviy qurol bo'lib, u spektaklning mag'zini tashkil etadi. U asarning barcha komponentlarini (bo'laklar, vazifalar, xatti-harakatlar) bitta tugunga birlashtiradi. Oliy maqsadsiz spektakl tarqoq bo'laklarga bo'linib ketadi va tomoshabinda yaxlit taassurot qoldirmaydi. Oliy maqsad sari intilish jarayoni yetakchi xatti-harakatni vujudga keltiradi. Bu harakat spektaklning boshidan oxirigacha o'tuvchi «qizil ip» bo'lib, ijroni hunarmandchilik va soxtalikdan himoya qiladi.

#### **«Men borman» holati va tomoshabinga ta'sir**

Sahnaviy haqiqat va oliy maqsadning uyg'unligi aktyorda «Men borman» holatini yaratadi. Bu holatda aktyor rolning hayoti

bilan to'laqonli yashay boshlaydi, uning fikr va tuyg'ulari qahramonnikini bilan qorishib ketadi. Aynan shu daqiqada teatrning sirli san'ati yuzaga keladi: tomoshabin shunchaki kuzatuvchi emas, balki ijodning bevosita ishtirokchisiga aylanadi va sahnadagi hayot girdobiga tortiladi. Xulosa qilib aytganda, sahnaviy haqiqat aktyorni ijodiy vaziyatga ishontirsa, oliy maqsad uning harakatlarini ma'lum bir g'oyaviy yo'nalishga soladi. Bu ikki omil birlashgandagina spektakl tomoshabin qalbida umrbod o'chmaydigan iz qoldiradigan qudratli tarbiya vositasiga aylanadi.

Stanislavskiy ta'limotiga ko'ra, har bir ijodkorning o'z g'oyasini insonlar ongiga singdirishdan ko'zlagan muddaosi — «Oliy maqsad»dir. Agar spektaklda oliy maqsad va yetakchi xatti-harakat aniq bo'lsa, u tomoshabinni beixtiyoriy ravishda voqealar girdobiga tortadi va unga ishontiradi. Teatr san'atida ta'sir o'tkazishning muhim mexanizmi bu «yuqtirish» dir. Bu jarayon bir kishining emotsional holatini boshqa kishiga psixologik darajada o'tkazilishini anglatadi. Sahnada bilan tomoshabin zali o'rtasida mustahkam energetik aloqa paydo bo'lishi bilan teatrning sirli san'ati boshlanadi. Tomoshabin aktyor ijrosidan shunchaki huzurlanmaydi, balki qahramon taqdirini o'z boshidan kechiradi, bu esa uning ma'naviy dunyosini boyitadi.

**Xulosa.** Drama janrining asosiy vazifasi — tomoshabinni oddiy kuzatuvchidan ijodiy jarayonning ishtirokchisiga aylantirishdir. Bunga faqatgina yuksak aktyorlik mahorati, maqsadli xatti-harakat va badiiy haqiqat orqali erishiladi. Spektakl tomoshabinning shuurini uyg'otishi, uni hayajonga solishi va qalbida umrbod o'chmaydigan iz qoldirishi lozim. Drama — bu inson qalbini ochib beruvchi qudratli vositadir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Qobilov X. N. AKTYORLIK MAHORATI VA REJISSURA MASALALARI //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 5. – C. 251-255.
2. Qobilov H. TEATR SAN'ATINING RIVOJLANISHIDA MUSIQA SAN'ATINING O'RNI //Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 1. – C. 197-202.
3. Ахмедова З. А. Новые технологии в развитии театрального искусства //International scientific review. – 2020. – №. LXXIV. – C. 47-48.

4. Amirovna A. Z. THE ROLE OF THEATRICAL PEDAGOGY IN THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF THE STUDENT'S PERSONALITY //International scientific review. – 2021. – №. LXXXIII. – C. 54-56.
5. Rajabova S. et al. AKTYORLIK MAKTABIDA RAQS FANI TRANSFORMATSIYASI //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2025. – №. 2. – C. 422-428.
6. Rajabova S. S. et al. O 'ZBEK KINO SAN'ATINING RIVOJLANISH BOSQICHIDA AKTYOR SHAXSINI TARKIB TOPTIRISHGA BO 'LGAN YONDASHUVLAR //Oriental Art and Culture. – 2024. – T. 5. – №. 3. – C. 732-737.
7. Rajabova S. AKTYORLIK SAN'ATIDA TRENING MASHQLARI VA UNING AKTYOR FAOLIYATIDA TUTGAN O 'RNI //Interpretation and researches. – 2024. – T. 2. – №. 19. – C. 59
8. Utayev A. et al. AKTYORLIK MAHORATI VA UNING O 'ZIGA XOS TEXNIKALARI //Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2025. – №. 2. – C. 375-382.
9. Utayev A. THE PLACE OF MAKEUP AND COSTUMES IN PUBLIC CELEBRATIONS //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2024. – T. 4. – №. 12. – C. 80-86.
10. Утаев А. РОЛЬ Сценарного мастерства в анимации //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022.

**REZYUME.** Ushbu maqolada drama janrining tabiati, uning sahnaviy ko'rinishi va tomoshabinga bevosita ta'sir o'tkazish mexanizmlari tahlil qilinadi. Drama san'atining asosi bo'lgan xatti-harakat, sahnaviy haqiqat va «oliy maqsad» tushunchalari orqali tomoshabin ongi va qalbiga ta'sir qilish yo'llari yoritib berilgan. Maqolada K.S. Stanislavskiy va boshqa yirik teatr arboblarning nazariy qarashlariga tayanilgan holda, dramaning ijtimoiy va badiiy funksiyasi ochib beriladi.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье анализируется природа драматического жанра, его сценическое воплощение и механизмы непосредственного воздействия на зрителя. Освещаются пути влияния на сознание и чувства аудитории через такие основополагающие понятия драматического искусства, как действие, сценическая правда и «сверхзадача». На основе теоретических взглядов К.С. Станиславского и других крупнейших деятелей театра раскрываются социальные и художественные функции драмы.

**SUMMARY.** This article analyzes the nature of the dramatic genre, its stage incarnation, and the mechanisms of direct impact on the audience. It explores the ways of influencing the consciousness and emotions of the public through the fundamental concepts of dramatic art, such as action, stage truth, and the "super-objective." Based on the theoretical views of K.S. Stanislavsky and other prominent theater figures, the social and artistic functions of drama are revealed.

## QARAQALPAQ ZAMANAGÓY KINO KÓRKEM ÓNERINDE BALALAR USHÍN MILLIY KONTENT JARATÍW MÁSELELERI

**Tajadinova Guljaxon** – *filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD)*  
*Ózbekstan mámleketlik kórkem óner hám mádeniyat instituti Nókis filiali*

**Tayanch so'zlar:** zamonaviy kino, tarixiy filmlar, milliy kontent, qadriyat, milliy tarbiya, kino tili, tasvir.

**Ключевые слова:** современное кино, исторические фильмы, национальный контент, ценности, национальное воспитание, язык кино, изображение.

**Key words:** modern cinema, historical films, national content, values, national upbringing, cinema language, image.

Qaraqalpaq kino kórkem ónerinde zamanagóy kórkem processte tariyxıy filmler dóretiw máselelerine itibar qaratıw zárúrligi

bar. Keyingi eki jıl ishinde mámleketimizde tariyxıy filmler jaratıw ushın arnawlı qararlar qabil etilmekte. Tariyxıy filmler jaratıw

boyınsha húkimet qararları kinodóretiwshiler ushın jańa wazıypalar belgilep berdi. Ózbek kinematografiyasında sońǵı jılları súwretke alınǵan Z.Musaqov "Qorǵasın," J.Ahmedov "Islamxoja," A.Ániev "Elparvar," D.Masaidov "Qoqand samalı," M.Erkinov "Avloniy" sıyaqlı tariyxıy filmleri súwretke alındı. Qaraqalpaq milliy kinosı da usı dástúrlerdı dawam ettiriwi kerek, sebebi kino tarawında ullı shaxslardıń ómiri tiykarında tárbiyalıq áhmieti joqarı filmlerdı jaratpasa, onda milliy kontent jaratıw máselelerinde artta qalıp ketedi.

Tariyxıy filmler jaratıwda dáwirdi qayta tiklew usılları, hújjetli anıqlıq penen kórkem oylap tabıw birlestiriledi.

Dereklerdi tereń úyreniw, kiyimler hám dekoratsiyalardı qayta jaratıw, ótmishti sáwlelendiriwde biografiya hám epikalıq janrlardan paydalanıw tiykarǵı usıllar bolıp esaplanadı. Tariyxıy detallar hám dramalıq bayanlaw arasında teń salmaqılıqtı tabıw principini áhmietli esaplanadı. Tariyxıy filmler jaratıwdıń tiykarǵı usılları -tariyxıy rekonstrukciya bolıp, bunda belgili bir dáwirdiń atmosfera, turmısın, kostyumların, arxitekturasın hám texnologiyasın vizual isenimlilikke támiyinlew ushın puxta qayta jaratıw kerek.

Hújjetli dereklerden paydalanıw zárúrligi de bar. Tariyxıy hújjetler, xronikalar, xatlar hám izertlewler analizin faktologiyalıq bazanı támiyinleytuǵın scenariydi jaratıw ushın qollanıw talap etiledi. Ótken ata-babalarımız haqqında tariyxıy shıǵarmalar jazıw, olardıń xalıq ushın etken xızmetlerin tereń tallap, kórkem filmler jaratıw olardı keleshek áwladqa tanıstırıp baratuǵın óshpes estelik bolıp esaplanadı.

Ullı klassik jazıwshı Ájiniyaz Qosıbay ulınıń 200 jıllıǵı húrmetine Prezident qararı menen jaratılǵan film mine usı talaptıń orınlanǵanına mısál bola aladı. Biraq, klassik shayırmız Ájiniyaz Qosıbay ulınıń ullılıǵın kinoda jáne de ashıp bergende film tásirshenligi joqarı bolar edi. Aqırı tariyxshı hám ádebiyattanıwshı alımlarımızdıń ilimiy miynetlerine dıqqat awdarsaq Ájiniyaz pútkil bir millettiń milliy maqtanıshı ekenligin dálillep bere alǵanlıǵın kóremiz. Mine kórkem publicistikalıq filmde usı táreplerge itibar berilmey qaladı. Nátiyjede bul ullı shaxs

haqqındaǵı tariyxıy filmniń sátsizligine sebep bolǵan.

Qaraqalpaq kino kórkem ónerinde áhmietli máselelerden biri ullıların balalıq ómirinen alıp balalar ushın tariyxıy filmler dóretiw kún talabındaǵı wazıypa bolıp turǵanlıǵı belgili. Bunda kinodóretiwshiler itibar beriwı kerek bolǵan tárepleri Ullı babalarımızdıń balalıq ómiri, olarǵa tárbiya bergen ata-anaları, sabaq bergen ustazları haqqında gúrriń etiwshi tariyxıy filmler jaratılса, keleshekte perzentlerimizdiń tárbiyası ushın salmaqılı úles bolıp qosıladı.

"Ullılar balalıǵı" ataması menen qaraqalpaq xalqınıń dańqlı perzentleriniń ómir jolı ilimiy dárekeleler tiykarında úyrenilip, ádebiyattanıwshı ilimpazlarımızdıń pikirleri tiykarında kinossenariyer tayarlanıwı kerek. Bunda kino scenariyer qoyılatuǵın talap hám qaǵıydalar tiykarında jazılıwı kerek. "Qaraqalpaqfilm" kinostudiyası tárepinen 2016-2024-jıllar aralıǵında hújjetli tariyxıy filmler kóplep súwretke alınǵan. Usı dáwirde Qaraqalpaq milliy kinosında belgili shaxslardıń kelbeti sáwlelengen filmlerden "Aqsaqal," "Miyweli terek," "Ámiwdárya jaǵası jırshısı," "Ashıq Ayaz," "Qara úyden keń dúnyaǵa," "Xalıqtıń márt perzenti," "Xalıǵına baǵıshlangan ómir," "Qálbinde keń dúnya," "Xalıq qádirlegen talant" hújjetli filmlerinde qaraqalpaq xalqınıń dańqlı perzentleriniń ómir jolı sáwlelendiriledi. Tariyxıy hújjetli filmler ullı insanlardıń kelbetin sheberlik penen ashıp bere alǵan. Tariyxıy filmlerde xudojnik ishki kiyim hám lipaslar sheshimi ústinde sheberlik penen isley alǵan. Máselen, "Xalıqına baǵıshlangan ómir" 2 bólimli hújjetli filmi (2022-j.) Qaraqalpaq xalqınıń ullı perzenti, belgili siyasachı Allayar Dosnazarovtıń ómiri hám jumısı haqqında sóz etiledi. Filmde tariyxıy dáwirler menen lipaslardıń úylesimi bul dáwir haqıyqatlıǵın kórsetip turıptı. Hújjetli kinonıń ózine tánligi haqqında Sergey Borisov: "Hújjetli kinonıń barlıq túrleri, kórinisleri hám janrları hám soǵan sáykes ráwishte haqıyqıy, saxnalastırılmaytuǵın haqıyqatlıq kadrlarınan ibarat bolıp, bul oǵan ayrıqsha isenimlilik dárejesin beredi. Hújjetli kinonıń materialı dáslep kórkem kinodagıday qayta jaratılǵan (ekilemshı) reallıqtıń emes, al haqıyqıy turmıslıq (birlemshı) reallıqtıń izi bolıp

tabıladı. Basqasha aytqanda, hújjetli filmniń hár bir ayrıqsha kadrı yamasa birligi haqıyqıy faktografıyalıq turmıslıq haqıyqatlıqtıń úlgisine, hújjetke aylanadı, onda tek ǵana real bar bolǵan obektler, predmetler, reńler, faktorlar hám keńislikler emes, al bul obektler, predmetler, reńler, fakturalar hám keńisliklerdiń ózi avtor tárepinen arnawlı qayta jaratılmaǵan, al ǵárezsiz, ápiwayı, turmıslıq yamasa dáslep kórkem bolmaǵan turmıs penen "jasaydı." Turmıs qanday bolsa, sonday bolıp bizge hújjetli ekrannan qarap turadı hám hújjetli kinonıń tiykarǵı fenomenini áne sonda. [1] Qaraqalpaq milliy kino kórkem ónerinde balalar ushın milliy kontent jaratıw áhmiyetli másele bolıp qalmaqta. Bul baǵdarda qaraqalpaq kino dóretiwshilerine mektep kerek. Bizge belgili, bul másele sońǵı dáwirde ózbek milliy kinosında jaqsı jolǵa qoyılmaqta. Balalar kontentin rawajlandırıw orayınıń direktorı Jahongir Ahmedov "TIMS Productions" kompaniyasınıń tiykarın salıwshısı, dúnyaǵa belgili Muhtasham yuz yil“ ("Ájayıp júz jıl") serialınıń prodyuseri, "Altın palma" xalıqaralıq sıylıǵınıń iesi Timur Savji menen usı másele boyınsha ushıraıdı.

Timur Savji tek ǵana Túrkiya emes, al xalıqaralıq kinoindustriyada da óz ornına ie belgili prodyuser esaplanadı. Onıń filmografiyasınan búgingi kúнге shekem 40 tan aslam hár qıylı janr hám baǵdarlarıdaǵı

kinofilmler hám seriallar orın alǵan bolıp, olardıń arasında eń belgilisi Muhtasham yuz yil“ ("Ájayıp júz jıl") serialı bolıp esaplanadı. Bul serial 70 ten aslam mámleketke eksport etilgen. Ol Shigis Aziyadan Batis Evropaga shekem, Jaqın Shıǵıstan Latin Amerikasına shekem bolgan úlken auditoriyanı qamtıp aldı. Bul bolsa Túrkiya serial sanaatınıń dúnya kóleminde keńnen tán alınıwı boldı hám onda Timur Savjidiń úlesi úlken. 50 den aslam xalıqaralıq tańlawlarda sıylıq alǵan bul serial Túrkiyaǵa turistler aǵımınıń keskin artıwına da xızmet etken. "TIMS Productions" kompaniyasını Balalar kontentin rawajlandırıw orayı tariyxıy filmler jaratıw baǵdarında scenariy avtorları, kiyim xudojnikleri hám dekorator xudojniklerdiń mamanlıǵın arttırıw boyınsha birge islesiwge shaqırdı. Bul baslama tariyxıy filmler jaratılıwı ushın jaqsı mektep bolıp xızmet etedi.

Juwmaq sıpatında sonı aytıp ótiwimiz kerek, Qaraqalpaq kino kórkem ónerinde de tariyxıy filmleri menen dúnya ekranlarında jetekshi orınlardı ielep turǵan kino sheberleri menen birgelikte filmler túsirilip, tájiriybelerinen sabaq alıw sıyaqlı dástúrler dawam ettirilse, "Ullılar balalıǵı" atı menen qaraqalpaq xalqınıń dańqlı perzentleriniń ómir jolı kino lentalarǵa kóshedi hám balalarımız ushın milliy kontent jaratıladı.

### Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. X.Abulqosimova "Kino san'ati asoslari" Toshkent-2007.
2. M.Aliev "Kino asoslari" Toshkent "Oqıtuvchi", 1993
3. Borisov Sergey texnologiya sozdaniya dokumentalnogo filma. M: Aspekt press, 2018. 92 b.
4. H.Muhamedaliev. "Scenariyavislik mahorati".-Toshkent. "Musıqa". 2009 y.
5. A. Isohov. «Kinematografiya tarixi». Toshkent, 2019-y. 311-b.
6. Madiyrov, Baxtiyor Smetovich. "QORAQALPOQ FILMLARIDA XARAKTER YARATISH XUSUSIYATLARI." *Oriental Art and Culture* 6.4 (2025): 246-250.
7. Tajadinova, Guljakhan Nizamatdinovna. "THE REALITY OF THE TIME IN KARAKALPAK FILMS." *Oriental Art and Culture* 6.4 (2025): 281-284.

**REZYUME.** Maqolada qoraqalpoq zamonaviy kino san'atida tarixiy filmlarning rivojlanishi va kelajakda qilinishi kerak bo'lgan masalalar haqida fikr yuritiladi. Qoraqalpoq kino san'atida muhim masalalardan biri - buyuklarning bolalik hayoti asosida bolalar uchun tarixiy filmlar yaratishdagi dolzarb masalalarga taklif va yechimlar ko'rsatib beriladi.

**РЕЗЮМЕ.** В статье рассматривается развитие исторических фильмов в современном каракалпакском киноискусстве и вопросы, которые необходимо решить в будущем. Один из важных вопросов в каракалпакском киноискусстве - это предложения и решения актуальных проблем создания исторических фильмов для детей на основе детской жизни великих людей.

**SUMMARY.** The article discusses the development of historical films in contemporary Karakalpak cinema and issues that need to be addressed in the future. One of the important issues in Karakalpak cinema is the creation of historical films for children based on the lives of great people.

## MADANIY-OMMAVIY TADBIRLARDA OVOZ REJISSYORINING KASBIY KOMPETENSIYALARI

**Tilepov Quatbay Nukusbaevich** – o‘qituvchi  
*O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukis filiali*

**Tayanch so‘zlar:** madaniy tadbir, ovoz rejissyori, akustika, fonogramma, jonli ijro, sahna texnologiyasi, ovoz muhandisligi.

**Ключевые слова:** культурное мероприятие, звукорежиссер, акустика, фонограмма, живое исполнение, сценическая техника, звукорежиссура.

**Key words:** cultural event, sound engineer, acoustics, phonogram, live performance, stage technique, sound engineer.

Bugungi globalashuv va axborot texnologiyalari rivojlangan davrda madaniy tadbirlar jamiyat ma’naviy hayotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Har qanday madaniy tadbir - u konsert, teatr tomoshasi yoki ommaviy bayram bo‘ladimi professional texnik ta’minotsiz o‘z maqsadiga to‘liq erisha olmaydi. Shu jihatdan ovoz rejissyori madaniy tadbirlarni tashkillashtirishda markaziy texnik-ijodiy shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Ovoz rejissyori nafaqat apparatura bilan ishlovchi texnik mutaxassis, balki badiiy jarayonning faol ishtirokchisi hisoblanadi. U sahnadagi ijroning mazmuni, tomoshabinning qabul qilish darajasi va umumiy estetik ta’sir uchun bevosita javobgar shaxsdir [1]. Quyida ovoz rejissyorining madaniy-ommaviy tadbirlarda kasbiy vazifalarini bir nechta misollar tariqasida ko‘rib chiqamiz.

### *Ovoz rejissyorining tushunchasi va kasbiy maqomi*

Ovoz rejissyori - bu ovoz signallarini yozish, qayta ishlash, kuchaytirish va real vaqt rejimida boshqarish orqali sahna yoki maydondagi tovush muhitini shakllantiruvchi mutaxassisdir. Ilmiy adabiyotlarda u “ovoz muhandisi” yoki “audio rejissyor” tushunchalari bilan ham izohlanadi [2]. Madaniy tadbirlarda ovoz rejissyorining maqomi quyidagi jihatlar bilan belgilanadi:

- texnik jarayonlarni to‘liq nazorat qilish; ijodiy guruh bilan hamkorlik;

- sahna va zal akustikasini hisobga olish;

- tomoshabin uchun sifatli va tushunarli tovush muhitini yaratish. Ovoz rejissyorining vazifalari tadbir turiga qarab farqlansa-da, asosiy funksiyalar quyidagilardan iborat:

1. Ovoz apparaturasini tanlash va sozlash;

2. Mikrofonlash tizimini to‘g‘ri tashkil etish;

3. Jonli ijro va fonogramma o‘rtasidagi muvozanatni saqlash;

4. Shovqin va akustik nuqsonlarni bartaraf etish;

5. Tadbir davomida real vaqt rejimida ovozni boshqarish [3].

### *1. Madaniy tadbirlarda akustik muhit va ovoz sifati*

Akustika — bu tovushning tarqalishi, aks etishi va inson tomonidan qabul qilinishi qonuniyatlarini o‘rganadigan fan sohasi hisoblanadi. Madaniy tadbirlarda zal yoki ochiq maydon akustikasi ovoz sifati va tushunarligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [4]. Ovoz rejissyori quyidagi akustik omillarni hisobga olishi zarur:

- reverberatsiya vaqti;
- tovushning so‘nishi;
- aks-sado (echo) hodisasi;
- fon shovqinlar darajasi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tomoshabin madaniy tadbirni baholashda birinchi navbatda tovushning aniqligi va muvozanatiga e’tibor beradi [5]. Ovoz

rejissyorining noto'g'ri sozlamalari hatto yuqori saviyadagi ijroning ham badiiy ta'sirini pasaytirishi mumkin.

*Ovoz rejissyorining ijodiy jarayondagi o'rni*

Ovoz rejissyori rejissyor, dirijyor, sahna rassomi va ijrochilar bilan uzviy hamkorlikda ishlaydi. Ayniqsa teatr va musiqiy sahnalashtirishda ovoz dramaturgiyasi muhim ahamiyat kasb etadi [6]. Zamonaviy madaniy tadbi jonli ijro bilan fonogramma uyg'unligi dolzarb masala hisoblanadi. Ovoz rejissyori ushbu jarayonda texnik halollik va estetik muvozanatni saqlashi lozim. Ilmiy manbalarda fonogrammadan haddan tashqari foydalanish tomoshabin ishonchini kamaytirishi qayd etilgan [7].

*Zamonaviy ovoz texnologiyalari va ularning ahamiyati*

So'nggi yillarda raqamli miksher pultlari, line-array akustik tizimlari va simsiz mikrofonlar madaniy tadbirlar sifatini sezilarli darajada oshirdi [8]. Ovoz rejissyori ushbu texnologiyalarni chuqur bilishi professional faoliyatning muhim sharti hisoblanadi.

Kuchli ovoz bosimi inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan isbotlangan. Shu sababli ovoz rejissyori ovoz diapazoni me'yorlariga amal qilgan holda maksimal va minimal ovoz darajasini nazorat qilishi zarur [9].

Xulosa qilib aytganda, mazkur ilmiy tadqiqot davomida madaniy tadbirlarni tashkillashtirish jarayonida ovoz rejissyorining o'rni va ahamiyati har tomonlama tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ovoz rejissyori madaniy tadbirlarning texnik ta'minoti bilangina cheklanib qolmay, balki ularning umumiy badiiy saviyasi, tashkiliy mukammalligi va tomoshabinlar tomonidan qabul qilinishida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Zamonaviy madaniy tadbirlar sharoitida tovush sifati tadbir muvaffaqiyatining asosiy mezonlaridan biriga aylangan bo'lib, bu jarayonda ovoz rejissyorining professional faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi: birinchidan, ovoz rejissyori madaniy tadbirlar samaradorligini belgilovchi asosiy mutaxassislardan biridir; ikkinchidan, tadbir sifatini oshirish uchun ovoz rejissyorini rejalashtirish bosqichidan boshlab jarayonga jalb etish zarur; uchinchidan, zamonaviy ovoz texnologiyalaridan samarali foydalanish va mutaxassislarning malakasini muntazam oshirib borish madaniy tadbirlar rivojining muhim sharti hisoblanadi. Mazkur xulosalar amaliyotda qo'llanilganda madaniy tadbirlar sifatini oshirishga va tomoshabinlar istagini ta'minlashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Кузнецов А. И. Основы звукорежиссуры. – Москва: Искусство, 2018.
2. Rumsey F., McCormick T. Sound and Recording. – Oxford: Focal Press, 2014.
3. Huber D., Runstein R. Modern Recording Techniques. – New York: Routledge, 2017.
4. Everest F. A., Pohlmann K. Master Handbook of Acoustics. – New York: McGraw-Hill, 2015.
5. Toole F. Sound Reproduction: Loudspeakers and Rooms. – London: Focal Press, 2020.
6. Sonnenschein D. Sound Design: The Expressive Power of Music, Voice and Sound Effects. – California: Michael Wiese Productions, 2013.
7. Katz B. Mastering Audio: The Art and the Science. – Oxford: Focal Press, 2015.
8. Eargle J. The Microphone Book. – Oxford: Focal Press, 2012.
9. WHO. Guidelines for Community Noise. – Geneva, 2018.

**REZYUME.** Mazkur ilmiy maqolada madaniy tadbirlarni samarali tashkillashtirish jarayonida ovoz rejissyorining kasbiy o'rni, funksional vazifalari va ijodiy mas'uliyati ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Ovoz rejissyorining texnik bilimlari, akustik muhitni boshqarish, sahna jarayonlarida ishtirokchilarning ovozi muvozanatlash, tomoshabin psixologiyasiga ta'sir ko'rsatishdagi roli aniq faktlar asosida yoritiladi. Maqolada madaniy tadbirlarning turlari (konsert, teatr tomoshalari, ommaviy bayramlar, konferensiyalar) misolida ovoz rejissyorining tashkiliy, texnologik va ijodiy faoliyati ochib berilgan. Shuningdek, zamonaviy ovoz texnologiyalarining rivoji va ularning madaniy tadbirlar sifatiga ta'siri ilmiy asosda tahlil qilinadi.

**РЕЗЮМЕ.** В данной научной статье научно-теоретически и практически анализируется профессиональная роль, функциональные обязанности и творческая ответственность звукорежиссера в процессе эффективной организации культурных мероприятий. Технические знания звукорежиссёра, управление акустической средой, баланс голосов участников в сценических процессах и его роль в воздействии на психологию зрителей освещаются на основе конкретных фактов. В статье на примере видов культурных мероприятий (концерты, театральные представления, массовые праздники, конференции) раскрывается организационная, технологическая и творческая деятельность звукорежиссёра. Также на научной основе анализируется развитие современных звуковых технологий и их влияние на качество культурных мероприятий.

**SUMMARY.** In this scientific article, the professional role, functional duties, and creative responsibility of the sound engineer in the process of effective organization of cultural events are analyzed from a scientific-theoretical and practical point of view. The role of the sound director in influencing the technical knowledge, managing the acoustic environment, balancing the voices of the participants in stage processes, and influencing the psychology of the audience is highlighted based on specific facts. The article reveals the organizational, technological, and creative activities of the sound engineer through examples of various cultural events (concerts, theatrical performances, public holidays, conferences). Also, the development of modern sound technologies and their impact on the quality of cultural events are analyzed on a scientific basis.

## TEATR OVOZ REJISSYORI FAOLIYATINING BADIY VA TEXNOLOGIK ASOSLARI

**Zaretdinov Karamatdin Qurbanbaevich – dotsent**

*O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukis filiali*

**Tayanch so‘zlar:** teatr san’ati, ovoz rejissyori, sahna akustikasi, ovoz dizayni, texnologiya, badiiy yaxlitlik.

**Ключевые слова:** театральное искусство, звукорежиссёр, сценическая акустика, звуковой дизайн, технология, художественная целостность.

**Key words:** theatrical art, sound director, stage acoustics, sound design, technology, artistic integrity.

Teatr san’ati sintetik san’at turi bo‘lib, unda dramaturgiya, aktyorlik ijrosi, sahna bezagi, yorug‘lik va ovoz bir butun badiiy tizimni tashkil etadi. Ushbu tizimda ovoz rejissyori faoliyati ko‘p yillar davomida ikkilamchi texnik vazifa sifatida qaralib kelgan bo‘lsa-da, zamonaviy teatr amaliyotida u mustaqil ijodiy kasb darajasiga ko‘tarildi. Bugungi kunda ovoz rejissyori nafaqat sahnada eshitaladigan tovushlarni boshqaradi, balki spektaklning dramatik ritmi, emotsional muhitini shakllantiruvchi muhim omilga aylanmoqda. Teatrda ovoz - bu so‘z, musiqa, shovqin, sukunat va akustik makonning badiiy uyg‘unligidir. Ushbu jarayonda ovoz rejissyori rejissyor konsepsiyasini anglab, uni tovush vositalari orqali ifodalaydi. Shu bois teatr ovoz rejissyorligi masalasi san’atshunoslik, akustika va zamonaviy

texnologiyalar kesishgan nuqtada tadqiq etilishi zarur.

*Teatr ovoz rejissyorining kasbiy vazifalari va ijodiy mas’uliyati*

Teatr ovoz rejissyori faoliyati ikki asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: texnik va ijodiy. Texnik jihatdan u sahna tovush kuchaytirish tizimlari, mikrofonlar, akustik muhit, ovoz yozish va qayta ijro texnologiyalarini mukammal bilishi lozim. Ijodiy jihatdan esa ovoz rejissyori spektakl dramaturgiyasini chuqur tahlil qilib, tovush orqali obraz va holatlarni yaratadi. Ovoz rejissyori spektakl tayyorlash jarayonida dastlabki repetitsiyalardanoq ishtirok etib, rejissyor bilan birgalikda sahna yechimlarini muhokama qiladi. Musiqa tanlovi, fon shovqinlari, sahna effektlari va pauzalarning badiiy ahamiyati aynan ovoz rejissyori

ishtirokida aniqlanadi. Bu jarayonda tovush faqat eshitish uchun emas, balki tomoshabinning psixologik idrokiga ta'sir etuvchi kuchli badiiy vosita sifatida qo'llanadi. Shuningdek, ovoz rejissyori aktyor nutqining aniqligi va tabiiylikini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Noto'g'ri sozlangan akustika yoki texnik xatolar sahna nutqining ta'sirchanligini pasaytiradi. Shu sababli ovoz rejissyori sahna akustikasini hisobga olgan holda har bir spektakl uchun individual ovoz yechimini ishlab chiqadi.

*Sahna akustikasi va ovoz dizaynining estetik xususiyatlari*

Sahna akustikasi teatr ovoz rejissyorligi faoliyatining ilmiy asosini tashkil etadi. Teatr binosining hajmi, materiali, tomoshabin zali va sahna o'rtasidagi masofa tovush tarqalishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ovoz rejissyori ushbu omillarni inobatga olib, tabiiy va sun'iy tovush muvozanatini yaratadi. Ovoz dizayni tushunchasi zamonaviy teatrda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu nafaqat musiqa yoki effektlar yig'indisi, balki spektaklning umumiy ovoz dramaturgiyasidir. Ovoz dramaturgiyasi sahna voqealari rivojiga mos ravishda tovush intensivligi, temбри va ritmini boshqarishni nazarda tutadi. Masalan, dramatik cho'qqilarda kuchli musiqiy yoki shovqin effektlari, lirik sahnalarda esa minimalistik va sokin tovushlar qo'llaniladi. Sukunat ham ovoz dizaynining muhim unsuri hisoblanadi. To'g'ri qo'llangan sukunat tomoshabinning e'tiborini kuchaytirib, sahna voqealarining ichki dramatzimini ochib beradi. Bu jihatdan ovoz rejissyori tovush va sukunat o'rtasidagi nozik muvozanatni topa bilishi lozim.

*Zamonaviy texnologiyalar va teatr ovoz rejissyorligi*

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi

teatr ovoz rejissyorligi imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Bugungi kunda raqamli mikserlar, ko'p kanalli ovoz tizimlari, virtual effektlar va kompyuter dasturlari teatr sahnasida keng qo'llanilmoqda. Bu vositalar yordamida ovoz rejissyori murakkab akustik makonlarni sun'iy tarzda yaratishi, realistik tovush effektlarini sahnaga olib kirishi mumkin. Biroq texnologiyaning ko'pligi badiiy maqsadga xizmat qilmagan taqdirda, spektaklning tabiiylikini buzishi mumkin. Shu sababli ovoz rejissyori texnik imkoniyatlarni estetik mezonlar asosida tanlab qo'llashi zarur. Teatr amaliyotida texnologiya vosita, badiiy g'oya esa asosiy mezon bo'lib qolmoqda. Teatr ovoz rejissyorining kasbiy tayyorgarligida ham zamonaviy bilimlar muhim o'rin tutadi. Akustika nazariyasi, psixoakustika, musiqa dramaturgiyasi, kompyuter texnologiyalarini uyg'un o'rganish bugungi kun talabi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, teatr ovoz rejissyori sahna asarining badiiy yaxlitligini ta'minlovchi muhim ijodiy shaxsdir.

Uning faoliyati texnik xizmat ko'rsatish bilan cheklanmay, spektaklning estetik konsepsiyasini shakllantirishda bevosita ishtirok etadi.

Ovoz, musiqa va sukunatning uyg'unligi tomoshabin idrokiga kuchli ta'sir ko'rsatib, sahna asarining badiiy qiymatini oshiradi. Zamonaviy texnologiyalar teatr ovoz rejissyorligiga yangi imkoniyatlar yaratmoqda, biroq ularni qo'llashda badiiy maqsad ustuvor bo'lishi lozim. Ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan ovoz yechimlari teatr san'atining rivojiga xizmat qiladi. Shu bois teatr ovoz rejissyorligi masalalarini chuqur tadqiq etish va mutaxassislar tayyorlash san'atshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Stanislavskiy K. *San'atdagi hayot*. – Moskva, 1989.
2. Alimuhamedov A. *Teatr san'ati nazariyasi*. – Toshkent, 2015.
3. Rumsey F., McCormick T. *Sound and Recording*. – Oxford, 2014.
4. Sonnenschein D. *Sound Design: The Expressive Power of Music, Voice and Sound Effects*. – Los Angeles, 2001.
5. O'zbek teatr san'ati bo'yicha ilmiy maqolalar to'plami. – Toshkent, 2020.

**REZYUME.** Mazkur ilmiy maqolada teatr san'atida ovoz rejissyorning o'rni, uning ijodiy va texnik faoliyati, sahna jarayonida tovushning estetik funksiyasi hamda zamonaviy texnologiyalarning teatr ovoz dizayniga ta'siri ilmiy asosda tahlil qilinadi. Ovoz rejissyori sahna asarining badiiy yaxlitligini ta'minlovchi muhim ijodiy subyekt sifatida ko'rib chiqilib, uning aktyor, rejissyor va sahna rassomi bilan o'zaro hamkorligi yoritiladi. Maqolada nazariy tahlil, amaliy tajriba va zamonaviy teatr amaliyotidan misollar asosida xulosalar beriladi.

**РЕЗЮМЕ.** В данной научной статье на научной основе анализируется роль звукорежиссера в театральном искусстве, его творческая и техническая деятельность, эстетическая функция звука в сценическом процессе и влияние современных технологий на театральный звуковой дизайн. Звукорежиссер рассматривается как важный творческий субъект, обеспечивающий художественную целостность сценического произведения, освещается его взаимодействие с актером, режиссером и художником сцены. В статье представлены теоретический анализ, практический опыт и выводы на основе примеров из современной театральной практики.

**SUMMARY.** This scientific article scientifically analyzes the role of the sound director in theatrical art, their creative and technical activities, the aesthetic function of sound in the stage process, and the influence of modern technologies on theatrical sound design. The sound director is considered as an important creative subject that ensures the artistic integrity of the stage work, and their interaction with the actor, director, and stage designer is highlighted. The article provides conclusions based on theoretical analysis, practical experience, and examples from modern theatrical practice.

## ҚАРАҚАЛПАҚ МИЛЛИЙ ТЕАТРЫНЫҢ БИРИНШИ ҚӘНИГЕЛИ РЕЖИСЁРЫ Т.АЛЛАЗАРОВ

**З.С.Зарипова** – ассистент оқытушы

*Өзбекстан мәмлекетлик көркем өнер хәм мәденият институты Нөкис филиалы*

**Таянч сўзлар:** қарақалпоқ театри, режисураинг шакилланиши, истидодли режисёрлар, Т.Алланазаров ижоди, маданиятнинг ривожиди, таржимо ишлар, олий таълим.

**Ключевые слова:** каракалпакский театр, образование режиссуры, профессиональные режисёры, творчество Т.Алланазарова, развитие культуры, переведённые произведения, высшее образование.

**Kew words:** karakalpak teatr, directing education, professional directors, creativity of T. Allanazarov, development of culture, translated , works, higher education.

Театр турмысында режиссура мәселеси тийкары мәселелердиң бири болып саналады. Сахнада қойылған хәр бир спектакль режисёрдың басшылығысыз әмелге аспайды. Хәр бир дәуирде театрдың раўажланып барыўында режисёрлардың хызмети уллы. Миллий театр труппасы «Таң нуры» 1926-жылы шөлкестирилген болса да, сахнада жергиликли халық ишинен шыққан бир неше драматурглердиң пьесалары қойылғаны менен режисёр кәсиби ХХ-әсирдиң 30-жылларына шекем жоқ еди. Ол ўақытлары сахналастырылған пьесалар суфлерлар жәрдемінде ойналатуғын еди.

Драматурглер спектакллер жаратыў менен бирге хәм режисёр хәм актёр хызметлерин өзлери атқарыўларына туўра келди. Анығырақ етип айтқанда усы жылларда Қ.Әүезов, С.Мәжитов, Ж.Аймурзаев, Ә.Өтепов, А.Бегимовлар хәм сол дәуирдиң көрнекли актёры Б.Сейтов хәм көрнекли бақсы Б.Юсуповлар «Таң нуры» труппасында режисёрлық қылған [1.5]. Бириншилерден болып қарақалпақ театр тарийхына өзбек, рус хәм жәхән драматургиясының классик шығармаларын алып келген өз кәсибиниң жетик қәнигеси Т.Алланазаров 1916-жылы Қарақалпақстан Республикасының Қоңырат районы

Соркөл аўылсоветине қараслы (Қоңырат пенен Мойнақтың ортасында жайласқан) Тахтақайыр Қара жар аўылында туўылып камалға келеди. Сол 1933-жылы Төрткүл педагогикалық техникумды питкергеннен кейин Кегейли районында муғаллим болып ислейди. 1934-жылы Москвадағы А.В.Луначарский атындағы Мәмлекетлик театр өнери институтына кирип, оны 1939-жылы табыслы питкерип шығады [2.3]. Усы студентлик дәўиринде-ақ Төреш Алланазаровтың өз кәсібине болған ықласы устазларының дыққатынан шетте қалмады. Атап айтқанда ХХ әсирдің уллы режисёры Г.А.Толстогонов режисёрдың кәсібине болған қызығыўшылығын хәм талантын итибарға алып оған бир қанша жол жобалар берген [3.84]. Соның менен бирге бул дәргайда белгили устаз О.И.Пижова хәм профессор И.В.Бибиковлардан режиссура саласын терең үйрениўге миясар болады. Т.Алланазаров спектакльлерде роль атқарыўға да қызығады. 1936-жылы студия талабалары биринши диплом спектакльине француз драматурги Мольердің «Скапеннің хийлеси» комедиясын сахналастырады. Бул спектакльде Т.Алланазаров бас рольди яғный Силвестр ролин шеберлик пенен атқарып шығады. Оқыўды питкергеннен кейин қарақалпақ театрында бас режисёр хызметин атқарады. 1930-жыллардың ақырында Т.Алланазаров Х.Хәкимзаданың «Майсараның иси» спектаклин сахналастырады. Жас режиссёр бул спектакльдің сатирик хәм лирикалық еки жөнелисин ашып бериўге хәрекет етеди. Т.Алланазаров бул спектакльдің идеясын ашып бериўде өз шеберлигин көрсетеди. Ол халық ўәкиллериниң садалығы, ақылы хәм қәбилетин көрсетиўге урынды. Усы мийнетинде режисёрдың жас болсада таланты хәм өз кәсибиниң шеберлиги көзге тасланды. Т.Алланазаров бул алған билимлери менен шекленип қалмастан өз үстинде көп мийнет ислейди. Орта Азия республика театрларына қәнигели актёр, режисёр кадраларын таярлаўда 1945-жылы Ташкент қаласында ашылған Островский атындағы театр хәм көркем өнери

институтының әхмийети күтә уллы болды. Жас драматургтың режиссураға болған ықласы оны усы институтқа жетелеп келди. Ол бул дәргайда 1946-1951 жыллар аралығында режисёрлық тараўының қурамалы, машақатлы жолларын тереңирек үйренеди. Оқыўды питкерген кейин Станиславский атындағы мәмлекетлик музыкалы драма театрында бас режисёр болып ислейди. Усы дәўирде Т.Алланазаров, А.Бегимов пенен бирге «Ғәрип ашық» шығармасын (1954), Ж.Аймурзаев пенен биргеликте «Раушан» пьесасын (1956), Пирлепес Тилегеновтың «Биринши гудок» (1960) пьесаларын сахналастырды[4.60]. Бул дәўирде тек қарақалпақ театрында ғана емес дерлик барлық халықлар драматургиясында қурамалы дәўир болған еди. Себеби сол дәўирдің талабы шығармада конфликттиң орын алыўын қолламайтуғын еди. Усы «конфликтсизлик теориясы»ның ен жайыўы себепли драматурглердің мийнетлери, режисёрлардың тер төгиўлери әўметсизликке алып келе берди. Себеби, ол әдебий шығарма болсын, яки драмалық шығарма болсын егер конфликт болмаса, ол шығарманың сәтсизликке ушыраўы сөзсиз еди. Мине усындай мийнетлердің бири П.Тилегеновтың «Биринши гудок», С.Хожаниязовтың «Жас жүреклер» шығармаларын атап өтсек болады [3.60]. Т.Алланазаров жергиликли драматурглердің шығармаларын ғана сахналастырып қоймастан түркий тиллес хәм рус халқының шығармаларын аўдармалап миллий театр сахнасына алып келди. Бул шығармалар тамашагөйлер тәрәпинен жақсы қабыл етилди. Оның аўдармасындағы Максим Горькийдің «Душпанлар», «Васса Железнёва»(1941), А.Каххордың «Шайы сюзана», «Жаңа жер» (1952), Иван Франконың «Урланған бахыт» (1954), Эстон драматурги Ранеттиң «Адасқан ул», Б.Лабраневтың «Америка ҳаўазы», Б.Мүсреповтың «Қозы көрпеш-Баян сулыу», «Қыз жибек» (1950), Гусеиновтың «Семья намысы» хәм басқа да пьесалар бизиң театрымыз сахнасында жарық көрди [3.79]. Режисёрлық, актёрлық, драматург, дилмаш тараўлары менен шекленип қалмастан Т.Алланазаров

халқымызға изертлеушілік мийнетлери менен де кеңнен танылды. Оның қәлеминен дөреген 50 ден аслам хәр қыйлы очерклер, мақалалар, пикирлер хәм монографиялар, театр өнериниң кеңнен раўажланыўына салмаклы тәсирин тийгизди. Солардан атап айтканда 1965-жылы жазылған «Қарақалпақ совет театры», 1979-жылы «Театр хәм драматургия», 1967-жылы «Бизиң көркем өнеримиздиң биринши жулдызлары» атлы мийнетлери хәтте университет хәм институт оқыў программаларынан орын алғаны әлбетте мақтанышлы болды.

«Қарақалпақ театрында миллий режисураның қәлиплесиўи» атамасындағы мийнети қарақалпақ театр тарийхындағы миллий режисураның қәлиплесиўи хәм оның жетискенликлери хәққында бахалы мағлыұмат беретугын илимий мийнет саналады. Бул китап қарақалпақ миллий театры қәлиплескен дәўирлердеги режисура хәм оннан соңғы дәўирдеги режисура тараўындағы машақатлар хәм жетискенликлер бойынша дөреген мийнет болып табылады. Автор усы мийнетинде 1926-1959 жыллар аралығындағы режисураны үш дүркинге бөлип қарайды. Олар төмендегилерден ибарат: Биринши дүркин Европалық театр үлгисинде пайда болған миллий театрды қарақалпақ халқына кеңнен таратыўға хәм хәр қыйлы қәўетерден аман алып қалыўға аянбай хызмет қылған 1926-1930 жыллар аралығындағы хәўескерлер топарындағы дәслепки драматурглер хәм режисёр, хәм актёр сыпатында аянбай мийнет ислеген еди. Екинши дүркин миллий режисёрлары 1930-1939 жыллар аралығында қарақалпақ миллий театрына сахналық реализм ис усылын толық ендириў арқалы оны профессионал театрлар дәрежесине жеткерий ушын пидәкерлик мийнет ислеген жаслардан ибарат болды. Бул дүркин режисёрлары да театр искерлигиниң раўажланыўы ушын өз алдыларына талаплар қойды хәм тәртиплер орнатты. Мәселен, ең биринши сахналастырыў ушын қолға алынған хәр бир пьесаға режисёрлық жоба жазыў усылын театрлық жумыс тәжирейбесине ендирди. Соның менен бирге, актёрлар

менен таза пьесаның үстинде ислеўди стол этирапында отырып таярлықлар жүргизиўден баслаў хәм жумысқа белгили муғдарда ўақыт берий тәртибин орнатты. Усы екинши дүркин режисёрлары дәўиринде яғный 1930-жыллардың орталарында қарақалпақ театрына әмелий жәрдем көрсетиў ушын Бухара театрының режисёры Р.Файзиев, З.Қабулов, Өзбекстанлы белгили режисёр Ж.Обидов, қазақстанлы Т.Омаровлар қарақалпақ театрына келеди хәм актёрларға сахна мәдениаты, актёрлық шеберлик бойынша сабақлар өтеди [4.6]. Үшинши дүркин режисёрлары булар - Москвада хәм Ташкент қаласында ашылған театр көркем өнери тараўындағы жоқары арнаўлы оқыў орынларында белгили устазлардан кәсиплик сырларын үйренип келген қәнигели жаслар еди. Олар актёр, актрисалардың сахналық қәнигелигин жетилистирип барыў мақсетинде хәр жылы бир мәрте еки айлық оқыўлар жүргизиў, соның менен бирге тамашагөйлер менен тығыз ислесиўди қолға алды[5.4]. Қарақалпақ миллий театрының қәлиплесиў хәм раўажланыў дәўириниң гүўасы болған Т.Алланазаров миллий театрдың басып өткен машақатлы жолына илимий анализ жасады хәм 1954-жылы «Қарақалпақ театрының раўажланыў жоллары» атлы темада илимий кандидатлык жумысын табыслы қорғап шығады. Т.Алланазаровтың халқымыздың мәдениатына, әдебиятына, илимге қосқан үлеси оғада уллы. Талантлы режисёр хәм алымның ислеген мийнетлери жоқары бахаланып оған бир неше сыйлықлар хәм хұрмет белгилери инам етилди. Қарақалпақ миллий театр өнерин раўажландырыўға қосқан салмаклы үлеслери ушын оған 1944-жылы «Қарақалпақстанға мийнети сиңген артист», 1957-жылы Өзбекстан ССрына хызмет көрсеткен артист, 1959-жылы Өзбекстан хәм Бердақ атындағы мәмлекетлик сыйлықтың лауреаты атағына ийе болды. Т.Алланазаров режисёрлық кәсиби менен тоқтап қалмастан бир қанша лаўазымлы орынларда, соның менен бирге илим жолында да аянбай мийнет ислеген. Ол 1959-жылы 16-ноябрьден баслап 1974-

жылға шекем Өзбекстан ССР илимлер академиясының Қарақалпақстан бөлімінің тил, әдебиат хәм тарийх институтында бөлім басшысы болып мийнет етеди.

Соның менен бирге Т.Алланазаров 1965-1967-жыллары Қарақалпақстан мәдениат министрлиги лаўазымында, 1974-1983 жыллары Ташкент мәдениат институтында режисура хәм актёр шеберлиги кафедрасының баслығы лаўазымында ислеиди [6]. 1983-94 жыллары ӨзССР Илимлер Академиясы Қарақалпақстан филиалының тарийх хәм әдебиат бөлімінде мийнет етти. Ол Искусство таныў илимінің кандидаты. Алым Қарақалпақ театрының, қарақалпақ драматургиясының тарийхы ҳаққында илимий изерлеў жумысларын алып барды. Усы темалар бойынша қарақалпақ, рус тиллеринде 7 монографиясы баспадан шыққан. Және де алымның қәлемине тийисли 200 ден аслам мақалалары жарық көрген. Т.Алланазаров 1959-жылы Ұатан алдындағы хызметлери ушын ол «Хұрмет белгиси» ордени менен сыйлықланды.

Солар менен бирге ол бир қанша Көкирек нышанлары менен, Өзбекстан хәм Қарақалпақстан Жоқары Кеңесиниң бир қанша хұрмет жарлықлары менен сыйлықланды.

Өзбекстан Жоқары Кеңесиниң қарары менен «Шухрат» ордени менен 1994-жылы 6-май күни сыйлықланды. [6.] Т.Алланазаров 2000-жылы 4-августта 84 жасында қайтыс болды. Солай етип, Т.Алланазаров тек ғана қарақалпақ миллий театрының раўажланыўына үлес қосып қоймастан мәдениаттың, илимниң раўажланыўында да қосқан үлеси уллы деп айтсақ алжаспаймыз. Оның пүткил өмири хәм дөретиўшилиги даўамында ислеген мийнетлери қарақалпақ режисура тараўының пайда болыўы, кәлиплесиўи, раўажланыўы бойынша мағлыўматлар беретугын кунлы материаллар болып табылады. Т.Алланазаровтың мийнетлери алымның өмир жолының қарақалпақ режисура тараўының кәлиплесиў хәм раўажланыў дәўири менен сыбайлас болыўы менен кунлы.

### **Пайдаланған әдебиатлар**

1. Бердақ атындағы Қарақалпақ мәмлекетлик музыкалы театры. Нөкис: «Билим» 2017. 5-б.
2. Т.Алланазаров Қарақалпақ театрында миллий режисураның кәлиплесиўи. 1926-1959 жж. -Нөкис:Билим,1996-ж.3-б.
3. Б.Сайфуллаев, Т.Баяндиев Қарақалпақ театр тарийхы (оқыў қолланба) Ташкент-2023, “FAN ZIYOSI”, 84-б.
4. Бердақ атындағы Қарақалпақ мәмлекетлик музыкалы театры. Нөкис: «Билим» 2017. 6-б.
5. Интернет мағлыўмат. <https://share.google/gOAv6Z0uIFY9YKj3G>.

**РЕЗЮМЕ.** Ушбу мақолада Қарақалпақ театрида режисуранинг шакилланиши, ривожланиши дастлабки режисёрлар ва истедодли режисёрларнинг кирип келиши ҳақида сўз этилади. Истидодли режисёр Т.Алланазаровнинг хаёти ва ижоди, унинг қарақалпақ миллий театри, маданияти, илмидаги фаолияти ва етишган ютуқлари келтирилган.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье рассматривается формирование и развитие режиссуры в каракалпакском театре, а так же упоминается о первых режисёрах и приходе в театр профессиональных режисёров. В статье представлены жизнь и творчество талантливого режисёра Т.алланазарова, его деятельность и достижения в Каракалпакском национальном театре, культуре и науке.

**SUMMARY.** The article examines the formation and development of directing in the Karakalpak theatre, and also mentions the first directors and the arrival of professional directors to the theatre. The article presents the life and work of the talented director T.Allanazarov, his activities and achievements in the Karakalpak National theatre, culture and science.

**MADANIYAT VA IJTIMOYIY-MADANIY FAOLIYAT: IJTIMOYIY O‘ZGARISHLAR VA YANGI MADANIY QADRIYATLARNING SHAKLLANISHI**

**Abatova Gúlnaz Maksetbaevna** – *assistent o‘qituvchi*  
*O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukis filiali*

**Tayanch so‘zlar:** madaniyat, ijtimoiy-madaniy faoliyat, jamiyat, ijtimoiy o‘zgarishlar, madaniy qadriyatlar, an’ana, innovatsiya, milliy identitet, madaniy meros, zamonaviylik, integratsiya, jamiyat taraqqiyoti, yoshlar, raqamli texnologiyalar, madaniyat siyosati, kreativlik, ijtimoiy birdamlik, madaniy yangilanish, ijtimoiy barqarorlik.

**Ключевые слова:** культура, социально-культурная деятельность, общество, социальные изменения, культурные ценности, традиция, инновация, национальная идентичность, культурное наследие, современность, интеграция, развитие общества, молодежь, цифровые технологии, культурная политика, креативность, социальное единство, культурное обновление, социальная стабильность.

**Key words:** culture, socio-cultural activity, society, social changes, cultural values, tradition, innovation, national identity, cultural heritage, modernity, integration, social development, youth, digital technologies, cultural policy, creativity, social cohesion, cultural renewal, social stability.

**Kirish.** Madaniyat va ijtimoiy-madaniy faoliyat jamiyat hayotining ajralmas qismi bo‘lib, u insonlarning ijtimoiy munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bugungi globallashtirish va texnologik taraqqiyot davrida ijtimoiy o‘zgarishlar madaniyatning dinamikasini yanada murakkablashtirmoqda, yangi madaniy qadriyatlar va shakllanish jarayonlarini tezlashtirmoqda. Shu sababli, madaniyat va ijtimoiy-madaniy faoliyat orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqur o‘rganish, jamiyatdagi barqarorlik, integratsiya va madaniy yangilanishni ta‘minlash uchun zarurdir. Ushbu maqola doirasida madaniyat va ijtimoiy-madaniy faoliyatning jamiyatdagi o‘rni, ularning ijtimoiy o‘zgarishlar bilan o‘zaro ta‘siri, shuningdek yangi madaniy qadriyatlarning shakllanishi ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Madaniyat va ijtimoiy-madaniy faoliyat o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi va ruhiy hayotini belgilaydi. Madaniyat nafaqat an’analar, urf-odatlar va san’at asarlaridan iborat, balki ijtimoiy qadriyatlar, e’tiqodlar va axloqiy normalarni ham o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy-madaniy faoliyat esa madaniyatni amalda targ‘ib qilish, yangi ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish va o‘zgarishlarni boshqarishda vosita vazifasini

bajaradi. Bugungi kunda global jarayonlar va raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi madaniyatning shakllanishiga yangi yo‘nalishlar beradi, an’anaviy qadriyatlar bilan zamonaviylikni uyg‘unlashtirish imkoniyatlarini yaratadi. Bu jarayonda yosh avlodning faolligi, madaniyat instituti va davlat siyosati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, madaniyat va ijtimoiy-madaniy faoliyat o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sirni chuqur o‘rganish jamiyatda barqarorlik, kreativlik va ijtimoiy birdamlikni ta‘minlash uchun zarur shartlardan biridir. Madaniyat va ijtimoiy-madaniy faoliyat bir-birini to‘ldiruvchi va jamiyatning asosiy ustunlari hisoblanadi. Madaniyat ijtimoiy hayotning ruhiy, axloqiy va estetik asoslarini yaratadi, ijtimoiy-madaniy faoliyat esa bu asoslarni amaliyotga tatbiq etib, jamiyatda o‘zaro anglashuv va hamjihatlikni kuchaytiradi. Zamonaviy davrda madaniyat doimiy o‘zgarishlarga duchor bo‘lib, yangi texnologiyalar va global muloqotlar orqali tez rivojlanmoqda. Bu jarayonlarda an’anaviy qadriyatlarni saqlab qolish va yangilarini shakllantirish muvozanatini topish muhim vazifaga aylanadi. Ijtimoiy-madaniy faoliyat esa shu muvozanatni ta‘minlashda vositachi rolini bajarib, madaniy yangilanish va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Shu bois, madaniyat va ijtimoiy-madaniy faoliyatni

zamonaviy kontekstda o'rganish, ularning o'zaro ta'siri va ijtimoiy jarayonlardagi o'rni haqida chuqur tahlillar olib borish zarurdir.

**Fikir va takliflar.** Madaniyat va ijtimoiy-madaniy faoliyatni rivojlantirishda an'anaviy qadriyatlarni asrab-avaylash bilan birga, zamonaviy innovatsiyalarni faol joriy etish zarur. Yoshlarni madaniyatga jalb etish, ularning ijodiy salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali yangi madaniy platformalar yaratish muhim ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish madaniyatning keng ommaga yetib borishini ta'minlaydi hamda ijtimoiy birdamlikni mustahkamlaydi. Davlat siyosatida madaniyat va ijtimoiy-madaniy faoliyatga oid strategik dasturlar ishlab chiqish, mahalliy va xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda ular o'rtasidagi muvozanatni saqlash lozim. Shu tarzda

madaniyat jamiyat taraqqiyotining barqaror va uzluksiz jarayoni sifatida yanada mustahkamlanadi.

**Xulosa.** Madaniyat va ijtimoiy-madaniy faoliyat jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va rivojida muhim omil hisoblanadi. Ular o'zaro uzviy bog'lanib, an'anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy o'zgarishlarni uyg'unlashtirish orqali yangi madaniy muhit yaratadi. Zamonaviy texnologiyalar va global jarayonlar madaniyatni boyitib, uning rivojlanishiga yangi imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy-madaniy faoliyat jamiyatda integratsiya, kreativlik va ijtimoiy birdamlikni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shunday ekan, madaniyat va ijtimoiy-madaniy faoliyatni chuqur o'rganish va ularni samarali rivojlantirish jamiyat taraqqiyotining asosiy ustunlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tursunov, B. "Ijtimoiy-madaniy jarayonlar va ularning jamiyatdagi roli." Nukus, 2018.
2. Usmonov, M. "Madaniyat va jamiyat: nazariy va amaliy jihatlar." Toshkent, 2019.
3. Qodirov, S. "Milliy madaniyat va zamonaviylik muammolari." Samarqand, 2017.
4. Yusupov, A. "Ijtimoiy integratsiya va madaniy qadriyatlar." Toshkent, 2020.
5. Raximova, D. "Yoshlar va madaniy o'zgarishlar." Nukus, 2021.
6. O'rozboyev, N. "Madaniyat siyosati va jamiyat taraqqiyoti." Toshkent, 2016.
7. Xolmirzaev, F. "Zamonaviy jamiyatda madaniyat va ijtimoiy-madaniy faoliyat", 2022.
8. Islomov, R. "Madaniyat va kreativlik: yangi yondashuvlar." Toshkent, 2023.
9. Abdurahmonov, T. "Raqamli texnologiyalar va madaniyat." Nukus, 2020.

**REZYUME.** Maqolada madaniyat va ijtimoiy-madaniy faoliyatning jamiyatdagi o'rni va roli ilmiy asosda tahlil qilinadi. Jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlar madaniyatga ta'sir ko'rsatib, yangi madaniy qadriyatlarning shakllanishiga sabab bo'ladi. Tadqiqotda ijtimoiy-madaniy faoliyat orqali an'anaviy va zamonaviy elementlarning uyg'unlashuvi, madaniyatning jamiyat barqarorligi va rivojiga qo'shgan hissasi ko'rsatib beriladi. Zamonaviy texnologiyalar va global jarayonlar sharoitida madaniy yangilanish va identitet masalalari o'rganiladi. Maqola natijalari madaniyatshunoslar, ijtimoiy tadqiqotchilar va siyosat ishlab chiquvchilar uchun konseptual asos bo'lib xizmat qiladi.

**РЕЗЮМЕ.** В статье научно анализируется роль и место культуры и социально-культурной деятельности в обществе. Социальные изменения в обществе оказывают влияние на культуру, способствуя формированию новых культурных ценностей. В исследовании показано, как через социально-культурную деятельность происходит гармоничное сочетание традиционных и современных элементов, а также вклад культуры в стабильность и развитие общества. Рассматриваются вопросы культурного обновления и идентичности в условиях современных технологий и глобальных процессов. Результаты статьи могут служить концептуальной основой для культурологов, социальных исследователей и разработчиков государственной политики.

**SUMMARY.** The article provides a scientific analysis of the role and position of culture and socio-cultural activities within society. Social changes influence culture, leading to the emergence of new cultural values. The study demonstrates how socio-cultural activities facilitate the

harmonious integration of traditional and modern elements, contributing to social stability and development. It also explores issues of cultural renewal and identity in the context of modern technologies and global processes. The findings offer a conceptual framework valuable for cultural scholars, social researchers, and policymakers.

UDK: 316.74

## MAHALLA INSTITUTI VA KITOBXONLIK MADANIYATI UYG‘UNLIGI

**Gulmira Bektursinova** – o‘qituvchi

*O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali*

**Tayanch so‘zlar:** mahalla instituti, kitobxonlik madaniyati, ma’naviyat, ijtimoiy muhit, yoshlar tarbiyasi, ma’rifat, ijtimoiy hamkorlik.

**Ключевые слова:** институт махалли, культура чтения, духовность, социальная среда, воспитание молодежи, просвещение, социальное партнерство.

**Key words:** mahalla institution, reading culture, spirituality, social environment, youth education, enlightenment, social cooperation.

Globalashuv va axborotlashuv jarayonlari jadallashib borayotgan bugungi sharoitda jamiyatning ma’naviy va intellektual rivoji masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Ushbu jarayonda kitobxonlik madaniyati shaxsning ma’naviy yetukligi va ijtimoiy faolligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda ta’lim muassasalari bilan bir qatorda ijtimoiy institutlar, xususan, mahalla institutining roli muhim ahamiyatga ega. Mahalla O‘zbekiston jamiyatida tarixan shakllangan ijtimoiy tuzilma bo‘lib, u aholi o‘rtasida tarbiya, ma’naviyat va ijtimoiy birdamlikni ta’minlovchi muhim muhit hisoblanadi. Kitobxonlik inson tafakkurini kengaytiradi, mustaqil fikrlashni rivojlantiradi va ma’naviy barkamollikni ta’minlaydi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda ijtimoiy institutlarning, xususan, mahalla institutining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi.

Mahalla azaldan xalqning tarbiya, ma’naviyat va ijtimoiy nazorat maskani bo‘lib kelgan. Bugungi kunda esa u jamiyatda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va mustahkamlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mahalla instituti O‘zbekiston jamiyatida o‘ziga xos ijtimoiy tuzilma bo‘lib, u aholining kundalik hayoti, tarbiyasi, ijtimoiy faolligi va ma’naviy muhitini shakllantiradi. Mahalla - bu

faqatgina hududiy birlik emas, balki ijtimoiy tarbiya, milliy qadriyatlar va an’analarni avloddan avlodga yetkazuvchi muhim makondir. Aynan mahalla orqali yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni zararli illatlardan himoya qilish hamda ma’naviy yetuk shaxs sifatida voyaga yetkazish imkoniyati mavjud. Mahalla faollari, nuroniylar, ziyolilar va jamoatchilik vakillari orqali yoshlar ongiga ijobiy g‘oyalar singdiriladi. Shu jarayonda kitob va kitobxonlikni targ‘ib etish mahallaning ma’naviy vazifalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Kitobxonlik madaniyati - bu shaxsning kitob o‘qishga bo‘lgan ehtiyoji, o‘qilgan asarni anglash, tahlil qilish va undan xulosa chiqarish qobiliyatidir. Kitobxonlik madaniyati yuksak bo‘lgan jamiyatda intellektual salohiyat, ma’naviy barqarorlik va ijtimoiy faollik yuqori bo‘ladi. Zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlangan sharoitda kitobxonlikka bo‘lgan e’tibor ayrim hollarda susayib borayotgani kuzatilmoqda. Shu sababli kitobxonlikni rag‘batlantirishda oila, ta’lim muassasalari bilan bir qatorda mahalla institutining ham faol ishtiroki zarur. Mahalla instituti va kitobxonlik madaniyati o‘rtasidagi uyg‘unlik, avvalo, mahalla muhitida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish orqali namoyon bo‘ladi. Kitob taqdimotlari, adabiy kechalar, “Eng faol kitobxon” tanlovlari, yozuvchi va shoirlar bilan

uchrashuvlar mahalla doirasida o'tkazilganda, ular aholining barcha qatlamlarini qamrab oladi. Mahallalarda kutubxona burchaklari, kitob almashish tizimlari va oilaviy kitobxonlik an'analari yo'lga qo'yish orqali kitobga bo'lgan qiziqishni oshirish mumkin. Ayniqsa, yoshlar va o'smirlar orasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda mahalla muhitining ta'siri beqiyosdir. Mahallalarda kitobxonlikni rivojlantirishda bir qator muammolar mavjud. Jumladan, zamonaviy adabiyotlar yetishmasligi, yoshlarning raqamli axborot vositalariga haddan tashqari berilib ketishi, ota-onalarning kitobxonlikdagi faolligi pastligi shular jumlasidandir. Ushbu muammolarni bartaraf etishda mahalla faollari, ta'lim muassasalari va madaniyat tashkilotlari hamkorligini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Mahalla institutining kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishdagi roli uning tashkiliy va institutsional imkoniyatlari bilan bevosita bog'liqdir. Mahalla fuqarolar yig'ini huzurida faoliyat yurituvchi ma'naviy-ma'rifiy komissiyalar, xotin-qizlar va yoshlar masalalari bo'yicha mas'ullar kitobxonlikni targ'ib etishda muhim subyektlar hisoblanadi. Ular tomonidan rejalashtirilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar aholining turli yosh va ijtimoiy qatlamlarini qamrab olish imkonini beradi. Mahalla doirasida olib boriladigan kitobxonlikka oid faoliyatning samaradorligi, avvalo, tizimlilik va uzluksizlik tamoyillariga asoslanishi lozim. Bir martalik tadbirlardan ko'ra, doimiy ravishda tashkil etiladigan kitobxonlik klublari, adabiy muhokamalar va mutolaa mashg'ulotlari yuqori natija beradi. Bu jarayonda mahalla rahbariyati bilan bir qatorda mahallada yashovchi ziyolilar va ijodkorlarning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish ko'p bosqichli jarayon bo'lib, unda mahalla, oila va ta'lim muassasalari o'zaro uzviy hamkorlikda faoliyat yuritishi zarur. Oila kitobxonlikning dastlabki muhitini shakllantirsa, mahalla bu jarayonni ijtimoiy jihatdan mustahkamlovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Ta'lim muassasalari esa mazkur jarayonning ilmiy-pedagogik asoslarini ta'minlaydi. Mahalla tomonidan tashkil etiladigan ota-onalar yig'ilishlarida oilaviy kitobxonlik masalalariga alohida

e'tibor qaratilishi, bolalarning mutolaaga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, maktab va kutubxonalar bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan loyihalar kitobxonlik madaniyatining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar sharoitida kitobxonlik tushunchasi yangi mazmun kasb etmoqda. Elektron kitoblar, audiokitoblar va onlayn kutubxonalar mutolaaga bo'lgan imkoniyatlarni kengaytirmoqda. Mahalla instituti ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanib, raqamli kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga hissa qo'shishi lozim.

Mahalla doirasida raqamli savodxonlikni oshirishga qaratilgan treninglar, elektron resurslardan foydalanish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar tashkil etilishi yoshlar va keksalar uchun teng imkoniyat yaratadi. Bu esa kitobxonlik madaniyatining zamon talablariga mos rivojlanishini ta'minlaydi. Mahallalarda kitobxonlik madaniyatining yuksalishi ijtimoiy barqarorlik, huquqiy ong va fuqarolik faolligining oshishiga xizmat qiladi. Kitobxon shaxs jamiyat hayotida faol ishtirok etadi, voqelikka tanqidiy yondashadi va ijtimoiy mas'uliyatni chuqur anglaydi. Shu bois, mahalla orqali kitobxonlikni rivojlantirish jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda kitobxonlik madaniyati shaxs va jamiyat rivojining muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida talqin etiladi. Mashhur pedagog-olim V.A.Suxomlinskiy o'z tadqiqotlarida kitobni "insonning ma'naviy dunyosini boyituvchi asosiy manba" sifatida baholab, kitobxonlikni bolalik davridan boshlab shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, kitob bilan do'stlashgan bola tafakkuri keng, axloqiy jihatdan yetuk shaxs bo'lib voyaga yetadi. [5,44] Amerikalik sotsiolog R.Putnam ijtimoiy kapital nazariyasida jamoaviy muhitning shaxs tarbiyasidagi rolga alohida e'tibor qaratadi. Uning qarashlariga ko'ra, jamoa ichida shakllangan madaniy qadriyatlar, jumladan, kitobxonlik an'analari jamiyatda ishonch, hamkorlik va ijtimoiy faollikni kuchaytiradi. Ushbu fikrlar mahalla institutining kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishdagi rolini ilmiy jihatdan asoslab

beradi. Sharq mutafakkirlari asarlarida ham jamoa va bilim uyg'unligi muhim o'rin egallaydi. Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida jamiyat taraqqiyoti bilimli va ma'rifatli fuqarolar faoliyatiga bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ma'naviy barkamol shaxs faqatgina bilim orqali shakllanadi. Bu bilim manbalarining eng muhimlaridan biri esa kitobdir. [4,53] O'zbek olimlaridan N.Jo'raev va R.Qodirovlar ma'naviy tarbiya masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarida mahalla institutini shaxs ma'naviyatini shakllantiruvchi muhim ijtimoiy muhit sifatida baholaydilar. Ularning fikricha, mahalla orqali olib boriladigan ma'rifiy ishlar, xususan, kitobxonlikka oid tadbirlar yoshlar dunyoqarashiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. [7, 61b]

Pedagogika fanida kitobxonlik shaxsning intellektual rivojlanishida yetakchi omil sifatida e'tirof etiladi. L.S.Vygotskiy tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasiga ko'ra, shaxsning bilim va tafakkuri ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, mahalla - yoshlar uchun muhim ijtimoiy-pedagogik makon hisoblanadi. [6, 74b] Mahallada tashkil etiladigan jamoaviy mutolaa, adabiy muhokamalar va kitobxonlik klublari yoshlarning ijtimoiy faolligi va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Bu esa kitobxonlikni shunchaki individual mashg'ulot emas, balki ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, mahalla orqali kitobxonlikni rivojlantirish quyidagi konseptual asoslar orqali amalga oshirilishi lozim: tizimlilik, uzluksizlik, ijtimoiy hamkorlik milliy qadriyatlarga tayanganlik. Ushbu tamoyillar asosida tashkil etilgan faoliyat mahallada barqaror kitobxonlik muhitini yaratishga imkon beradi.

Olimlarning tadqiqotlariga tayangan holda aytish mumkinki, mahalla institutining kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishdagi samaradorligi uning ijtimoiy-pedagogik salohiyati bilan belgilanadi. Bu salohiyatdan to'g'ri foydalanish jamiyatning ma'naviy rivojlanishiga xizmat qiladi. Ilmiy manbalar va olimlar qarashlari tahlili shuni ko'rsatadiki, mahalla instituti va kitobxonlik madaniyati o'rtasidagi uyg'unlik tarixiy, ijtimoiy va

pedagogik asosga ega. Mahalla orqali kitobxonlikni rivojlantirish nafaqat shaxs ma'naviyatini yuksaltiradi, balki jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, mahalla institutini kitobxonlik madaniyatining faol targ'ibotchisi sifatida rivojlantirish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Ilmiy tahlillar va mavjud tajribalar shuni ko'rsatadiki, mahalla instituti imkoniyatlaridan to'liq foydalanish orqali kitobxonlik madaniyatini tizimli ravishda rivojlantirish mumkin. Shu munosabat bilan quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, mahalla fuqarolar yig'inlari huzurida doimiy faoliyat yurituvchi "Kitobxonlik kengashlari"ni tashkil etish zarur. Ushbu kengashlar mahallada kitobxonlikka oid tadbirlarni rejalashtirish, muvofiqlashtirish va monitoring qilish bilan shug'ullanishi lozim. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tashkiliy mexanizmlarning mavjudligi ma'naviy-ma'rifiy faoliyat samaradorligini oshiradi.

Ikkinchidan, mahalla hududida kichik mahalla kutubxonalari yoki "ochiq kitob javonlari" tizimini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bunday tizim aholining kitobga erkin kirish imkoniyatini kengaytiradi va kitobxonlikni kundalik ehtiyojga aylantiradi. Xorijiy tajribada bunday amaliyotlar jamoaviy kitobxonlikni rivojlantirishda samarali natija bergani ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan.

Uchinchidan, mahalla, maktab va axborot-kutubxona muassasalari o'rtasida institutsional hamkorlikni kuchaytirish lozim. Ushbu hamkorlik asosida qo'shma loyihalar, adabiy kechalar, mutolaa marafonlari va ijodiy uchrashuvlar tashkil etilishi yoshlar kitobxonligini oshirishga xizmat qiladi. Pedagogik tadqiqotlar bunday integratsiyalashgan yondashuvning yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.

To'rtinchidan, mahalla doirasida oilaviy kitobxonlikni qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish zarur. Ota-onalarning shaxsiy namunasiga asoslangan kitobxonlik muhitining yaratilishi bolalarda barqaror mutolaa odatini shakllantiradi. Ilmiy tadqiqotlar oilaviy muhit kitobxonlik

madaniyatining asosiy poydevori ekanini ko'rsatadi.

Beshinchidan, zamonaviy sharoitni inobatga olgan holda, mahallalarda raqamli kitobxonlikni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Elektron va audiokitoblardan foydalanish bo'yicha treninglar tashkil etish, raqamli platformalarga yo'naltirish yoshlar orasida kitobga bo'lgan qiziqishni oshiradi va an'anaviy kitobxonlikni yangi shakllar bilan boyitadi. Yuqorida keltirilgan ilmiy-amaliy takliflarning amalga oshirilishi natijasida mahallalarda barqaror kitobxonlik muhiti shakllanadi, yoshlarning intellektual

salohiyati oshadi hamda jamiyatda ma'naviy-ma'rifiy barqarorlik ta'minlanadi. Shuningdek, mahalla instituti zamonaviy ma'naviy tarbiya markazi sifatida o'z funksional imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, mahalla instituti va kitobxonlik madaniyatining uyg'unligi ilmiy, ijtimoiy va pedagogik jihatdan asoslangan jarayondir. Ilmiy tahlillar va ilgari surilgan takliflar mahalla orqali kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini belgilab beradi. Ushbu takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi jamiyatning intellektual va ma'naviy taraqqiyotiga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2021. - 464 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi — faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. - Toshkent: O'zbekiston, 2018. - 400 b.
4. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. - Toshkent: Fan, 1993. - 320 b.
5. Suxomlinskiy V.A. Yurakdan berilgan tarbiya. - Moskva: Pedagogika, 1981. - 384 b.
6. Vygotskiy L.S. Tafakkur va nutq. - Moskva: Labirint, 1982. - 352 b.
7. Jo'raev N. Ma'naviyat asoslari. - Toshkent: Ma'naviyat, 2015. - 256 b.
8. Qodirov R. Yoshlar ma'naviyati va tarbiya masalalari. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

**REZYUME.** Mazkur maqolada mahalla institutining jamiyatda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishdagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida kitobxonlik madaniyatining ijtimoiy mohiyati, uning shaxs ma'naviy rivojidagi ahamiyati hamda mahalla muhitining tarbiyaviy imkoniyatlari yoritilgan. Mahalla, oila va ta'lim muassasalari hamkorligining kitobxonlikni rivojlantirishdagi o'rni ochib berilgan. Shuningdek, mahalla instituti orqali kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируется роль института махалли в формировании и развитии культуры чтения в обществе. В ходе исследования раскрывается социальная сущность культуры чтения, её значение в духовном развитии личности, а также воспитательный потенциал махаллинской среды. Особое внимание уделено вопросам взаимодействия махалли, семьи и образовательных учреждений в развитии культуры чтения. Кроме того, в статье разработаны научно-практические предложения, направленные на совершенствование механизмов формирования культуры чтения через институт махалли.

**SUMMARY.** This article analyzes the role of the mahalla institution in the formation and development of reading culture in society from a scientific and theoretical perspective. The study reveals the social essence of reading culture, its importance in the spiritual development of individuals, and the educational potential of the mahalla environment. The role of cooperation between the mahalla, family, and educational institutions in promoting reading culture is examined. In addition, scientific and practical recommendations aimed at developing reading culture through the mahalla institution are proposed.

## BIR EKSPONAT TARIXI

(Qoraqalpog‘iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyidagi arxeologik topilma bronza qozon haqida)

**Bo‘ribaeva Rita Ametovna - ilmiy xodim**

*Qoraqalpog‘iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyi*

**Tayanch so‘zlar:** bronza qozon, miloddan avvalgi VI–V asr, Qoraqalpog‘iston, arxeologik topilma, metallsozlik texnologiyasi, marosimiy amaliyot, muzeyshunoslik.

**Ключевые слова:** бронзовый котел, VI–V вв. до н. э., Каракалпакстан, археологическая находка, технология металлообработки, ритуальная практика, музееведение

**Key words:** bronze cauldron, 6th–5th centuries BCE, Karakalpakstan, archaeological find, metalworking technology, ritual practice, museology.

Muzey fondlarida saqlanayotgan arxeologik buyumlarning tarixiy qiymati ko‘pincha ularning “nimaga xizmat qilgani”ni aytish bilangina ochilmaydi; buyumning tayyorlanish texnologiyasi, foydalanish izlari, topilgan konteksti va keyingi “muzey hayoti” ham birgalikda tahlil etilgandagina u real tarixiy manbaga aylanadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi tarixi va madaniyati muzeyida saqlanayotgan miloddan avvalgi VI–V asrlarga mansub bronza qozon ana shunday ko‘p qatlamli manba sifatida e‘tiborga molikdir. Mazkur maqolaning maqsadi qozon ekspонатining ilmiy tavsifini berish emas, balki uning mintaqaviy madaniyatlar chorrahasidagi o‘rnini, metallsozlik maktabi va marosimiy amaliyotlar bilan bog‘lanishini, shuningdek muzeyshunoslik nuqtai nazaridan talqin va ekspozitsiya imkoniyatlarini asoslashdan iborat. Bu yondashuv O‘rta Osiyo ilk temir davri yodgorliklari bo‘yicha shakllangan tipologik va tarixiy-madaniy konsepsiyalar bilan uyg‘un holda olib borildi [1; 2]. Miloddan avvalgi VI–V asrlar O‘rta Osiyoda ijtimoiy murakkablik kuchaygan, ko‘chmanchi va o‘troq guruhlar o‘rtasidagi iqtisodiy hamda madaniy almashinuv jadallashgan davr bo‘lib, metall buyumlar ayni jarayonlarning “ko‘rinadigan” dalillaridan hisoblanadi. Bronza qozonlar, ayniqsa, keng hududlarga tarqalganligi sababli, ularni bir vaqtning o‘zida texnologik bilimlar tarqalishi, marosimiy-ziyofat amaliyotlari va nufuz belgisi sifatida o‘rganish mumkin. Yevroosiyo dasht mintaqasida qozonning umumiy semantikasi “jamoviy iste‘mol” va “marosimiy taqsimot”

g‘oyalari bilan bog‘lanishi ko‘p tadqiqotlarda qayd etilgan; ammo har bir konkret nusxa mahalliy an‘ana va resurs bazasiga ko‘ra o‘ziga xos yechimlarni beradi [3]. 1980-yili Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ellikqal‘a tumani hududida, Burli qal‘a bilan Tuproqqal‘a oralig‘idagi kenglikda o‘tkazilgan gidrogeologik ekspeditsiya vaqtida ishchi A.Tawbayev tomonidan topilgan. Topilma bronzadan shar shaklida quyilgan idishni eslatadi. Uning tubi yumaloq bo‘lgani uchun yerda mahkam turishi maqsadida unga uch oyoq o‘rnatilgan. Oyoqlari bukilib turgan hayvon oyoqlarini eslatadi. Hattoki uchlarida tirnoqqa o‘xshash belgilari ham bor. Uning dastasi yilqi shaklida ishlangan. O‘lkamiz hududidan birinchi marta topilgan bu topilma bilan tanishgan arxeolog olimlar M.Mambetullayev va N.Yusupovlar uni bizning eramizgacha bo‘lgan VI-V asrlarga tegishli ko‘chmanchi qabilalarga xos buyum sifatida aniqlagan.[ 7 ] Ushbu qozonga yaqin moddalar, olimlarning aniqlashicha ilgari Qozog‘iston Respublikasining Semireche viloyati hududidan ma‘lum bo‘lgan va ular mil. avv. V-III asrlarga tegishli ekanligi, ikkinchi birlari hatto mil. avv. VI-asrga tegishli ekanligi ma‘lum. Qozon Sulton Vays tog‘i hududida mil. avv. VI-V asrlardagi ko‘chmanchi massaget qabilalariga tegishli bo‘lishi mumkin. Tarixning otasi Gerodot Orol-Kaspiy oralig‘idagi Amudaryoning quyi qirg‘oqlarida yashovchi massaget qabilalari haqida gapira turib ularning quyoshga sig‘inishini va unga yilqilarni sadaqa qilishini ta‘kidlaydi. Chindan ham islomgacha O‘rta Osiyo

ko'chmanchi qabilalari orasida turmushida yilqi markaziy o'rin egallagan. Iloji boricha idishlarida, san'at buyumlarida ot bilan qo'shib ko'mish udumi bo'lgan. Olimlarning aniqlashicha ular yilqiga ham sig'ingan. Demak biz so'z yuritayotgan qozon dastasi umuman idishning o'zi ham alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun, Qoraqalpog'iston hududidagi bronza qozonni umumiy skif-saka doirasi bilan bog'lash bilan cheklanib qolmasdan, Amudaryo quyi havzasining metallurgik xomashyosi, ustaxonalar ehtimoli, hamda foydalanish madaniyati bilan bog'lab tahlil qilish zarur.

Tadqiqot metodologiyasi uch yo'nalishni birlashtiradi. Birinchisi tipologik-taqqoslash bo'lib, qozonning konstruktiv elementlari, nisbatlari va ehtimoliy tutqich yechimlari bo'yicha O'rta Osiyo va dasht mintaqasi materiallari bilan qiyoslashga tayanadi [1; 4].

Ikkinchisi texnologik rekonstruksiya bo'lib, bronza quyish, keyingi mexanik ishlov, sirtni tekislash, qirra va bo'yin qismini mustahkamlash kabi jarayonlar izlarini aniqlashga intiladi; bu yerda arxeometallurgiya bo'yicha umumiy yondashuvlar nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [5]. Uchinchi yo'nalish muzeyshunoslik tahlili bo'lib, buyumning fondga qabul qilinishi, ilmiy pasporti, restavratsiya ehtiyoji, saqlash sharoiti va ekspozitsiyadagi kommunikativ roli masalalarini qamrab oladi [6]. Ushbu uchlik yondashuv qozonni "faqat arxeologik narsa" sifatida emas, balki tarixiy xotira va ilmiy bilim aylanishiga kiritilgan eksponat sifatida ko'rishga imkon beradi. Bronza qozonning ilmiy talqinida avvalo uning funksional doirasi aniqlanadi. Ilk temir davrida qozonlar kundalik ovqat pishirish idishi bo'lishi mumkin, biroq bronza kabi qimmat materialdan yasalgan yirik idishlar ko'proq marosimiy ziyofatlar, jamoaviy yig'inlar va ijtimoiy ierarxiyani ko'rsatishga xizmat qilgan. Qozonning material tanlovi va mehnat sig'imi uning oddiy maishiy buyum emasligini kuchaytiradi: bronzani olish, eritish, qolip tayyorlash, quyish va keyin sirtni ishlash jarayonlari ko'p bosqichli bo'lib, bunday buyum ortida malakali ustalar turganini bildiradi. Odatda bunday idishlar yodgorliklardan turlicha kontekstlarda

uchraydi: qo'rg'onlarda marhum bilan qo'shib qo'yilgan nufuz buyumi, muqaddas joylarda qurbonlik-ziyofat atributi yoki aholi manzilgohlarida markaziy xonadonning obro'-e'tibor belgisi.

Qoraqalpogiston hududidagi topilmalar umumiy manzarasi shuni ko'rsatadiki, quyi Amudaryo havzasi ko'chmanchi yo'llar va o'troq sug'orma dehqonchilik vohalari o'rtasida aloqa hududi bo'lgan; bu esa qozonning funksiyasini ham "transmadaniy" jarayonlar kontekstida ko'rishga undaydi [2].

Texnologik jihatdan bronza qozonlar ko'pincha quyma usulda tayyorlangan, ayrim hollarda esa bir necha detal alohida quyilib, keyin birlashtirilgan. Bunda idish tanasining bir butun quyilishi ham, bo'yin yoki qalinlashtirilgan qirra qismlarining qo'shimcha ishlovi ham uchraydi. Qozonning og'iz qismi, ayniqsa, mexanik stressga ko'proq duch kelganligi sababli, u yerda qalinlashtirish, bukish yoki maxsus halqa ko'rinishidagi mustahkamlash elementlari qo'llangan bo'lishi ehtimol. Quyma sifati, pufakchalar izlari, sirtning notekisligi yoki aksincha puxta sayqallanganligi ustaxonadagi texnik intizomni aks ettiradi. Arxeometallurgiya bo'yicha tadqiqotlar bronza tarkibidagi qalay va qo'rg'oshin nisbatlari, shuningdek mikroqo'shimchalar buyumning xomashyo manbai va texnologik maqsadini anglashga yordam berishini ko'rsatadi; masalan, qo'rg'oshin qo'shimchasi suyuqlikni oshirib, quyishni yengillashtiradi, qalay esa qattqlikni kuchaytiradi [5]. Muzei sharoitida bunday xulosaga kelish uchun laborator tahlillar zarur bo'lsa-da, tezis doirasida texnologik rekonstruksiya asosan vizual diagnostika va analogiyalar orqali ehtimoliy sxemani tiklash bilan cheklanadi.

Qozonning madaniy-semantik talqini "ziyofat" tushunchasining o'zi bilan chegaralanmaydi. Ziyofat marosimi ko'pincha siyosiy boshqaruvning yumshoq mexanizmlaridan biri bo'lib, sovg'a berish, taqsimot, ittifoq tuzish, harbiy otryadni birlashtirish kabi vazifalarni bajargan. Demak, qozon jamoaning o'zini tasdiqlash marosimida markaziy predmet bo'lishi mumkin. Bu fikr dasht madaniyatlaridagi qozonlarning nufuz va identitet belgisi

sifatida keng tarqalganligini ko'rsatgan tadqiqotlar bilan mos tushadi [3]. Quyi Amudaryo hududida esa ushbu semantika mahalliy o'troq an'analardagi katta hajmli idishlar va ommaviy marosimlar bilan tutashishi mumkin. Natijada bronza qozon "ikki dunyo"ning, ya'ni ko'chmanchi dasht va voha madaniyatining kesishgan nuqtasini bildiruvchi eksponat sifatida talqin qilinadi. Muzeyshunoslik kontekstida mazkur qozonning ilmiy qiymati uning ekspozitsiyadagi kommunikativ imkoniyatlari bilan ham belgilanadi. Ko'plab arxeologik buyumlar ekspozitsiyada "sukutli" qoladi: ularning yonida minimal yozuv bo'ladi, tomoshabin esa buyumning texnologiyasi va ijtimoiy vazifasini tasavvur qila olmaydi. Bronza qozon kabi yirik va vizual ta'sirchan predmetda esa interpretatsiya imkoniyati ancha keng: uning yonida metall quyish jarayonini ko'rsatadigan rekonstruksiya, o'sha davr ziyofat marosimi manzarasini ilmiy asoslangan grafik tasvir, hamda qozonning tarqalish hududini ko'rsatadigan xarita berilishi eksponatning "tilini ochadi". Muзей tadqiqotlari eksponatning mazmunini ko'p qatlamli hikoya orqali yetkazish tomoshabinning tarixiy tafakkurini faollashtirishini ta'kidlaydi; bunda buyumning ilmiy pasporti, saqlash rejimi va restavratsiya etikasi ham muhim o'rin tutadi [6]. Bronza buyumlar uchun korroziya jarayonlari, xususan "bronza kasalligi" deb ataladigan xloridli korroziya xavfi mavjud bo'lgani sababli, mikroiklim nazorati va profilaktik konservatsiya ilmiy talqinning ajralmas qismiga aylanadi: noto'g'ri saqlash buyumni yo'qotish bilan birga uning tarixiy axborotini ham kamaytiradi.

Mazkur eksponatning "tarixi"ni ilmiy nuqtai nazardan to'liq anglash uchun uning arxeologik kontekstini maksimal darajada

aniqlashtirish zarur. Agar topilmaning aniq topilgan joyi, qatlam sharoiti, hamroh topilmalar va dastlabki fiksatsiya materiallari (dalolatnoma, fotosurat, dala kundaligi) mavjud bo'lsa, qozonning xronologik va madaniy mansubligi ancha ishonchli asoslanadi; aks holda, tipologik qiyoslash ustuvor bo'ladi. Ilk temir davri uchun xronologiyani aniqlashda metall buyumlar bilan birga sopol majmualar, bezak buyumlari va qurollar kompleksi muhim; chunki bronza qozonlarning ayrim formalari uzoq vaqt davomida yashab qolishi, "arxaik" ko'rinishlarning keyingi davrlarda ham uchrashi mumkin [1; 2]. Shu ma'noda, muзей fond hujjatlarini qayta ko'rib chiqish, arxiv izlanishlari va zarur bo'lsa dala materiallarini qayta tahlil qilish qozonning ilmiy tarjimai holini tiklashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Qoraqalpogiston Respublikasi tarixi va madaniyati muzeyida saqlanayotgan miloddan avvalgi VI–V asrlarga mansub bronza qozon bir vaqtning o'zida uch darajadagi manbadir: birinchidan, u quyi Amudaryo hududida metallsozlik bilimlari va ustachilik an'analari mavjud bo'lganini ko'rsatuvchi texnologik dalildir; ikkinchidan, u jamoaviy ziyofat va marosimiy taqsimot orqali ijtimoiy munosabatlar boshqarilgan davrning semantik belgisi sifatida talqin etiladi; uchinchidan, u muзей ekspozitsiyasida mintaqalararo aloqalar va madaniy chorrahalilik g'oyasini ilmiy asosda ochib beradigan kuchli kommunikativ obyekt bo'lib xizmat qiladi. Mazkur yondashuv eksponatning "qadimiy buyum" sifatidagi passiv mavqeini yengib, uni ilmiy bilish, saqlash va ommalashtirishning yagona tizimida ko'rish imkonini beradi; natijada bitta predmet tarixidan butun bir davrning madaniy dinamika va texnologik imkoniyatlari haqida xulosalarga kelinadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Толстов С. П. По следам древнехорезмийской цивилизации. Москва: Издательство АН СССР, 1948. 324 с.
2. Вайнберг Б. И. Древний Хорезм. - М.: Наука, 1972. 256 с.
3. Rolle R. The World of the Scythians. Berkeley: University of California Press, 1989. 198 p.
4. Смирнов К. Ф. Скифы. Москва: Издательство Московского университета, 1961. 286 с.
5. Craddock P. T. Early Metal Mining and Production. Edinburgh: Edinburgh University Press, 1995. 310 p.

6. Boymetov B. Muzeyshunoslik: nazariya va amaliyot. Toshkent: O‘zbekiston, 2018. 240 b.

7. Мамбетуллаев М. Юсупов Н. «Уникальная находка» 12-апрель 1984г. Газета «Советская Каракалпакия».

8. Qoraqalpog‘iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyi katalog va akt kitoblari.

**REZYUME.** Ushbu maqola Qoraqalpog‘iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyida saqlanayotgan miloddan avvalgi VI–V asrlarga mansub bronza qozon eksponatini kompleks tahlil qilishga bag‘ishlanadi. Tadqiqotda tipologik-taqqoslash, texnologik rekonstrukciya va muzeyshunoslik yondashuvlari qo‘llanib, buyumning funksiyasi, marosimiy semantikasi hamda mintaqalararo aloqalar ko‘rsatkichi sifatidagi o‘rni asoslanadi. Ilmiy yangilik qozonni lokal metallsozlik an‘analari va skif-saka doirasi bilan bog‘liq ikonografik-texnik belgilar uyg‘unligida izohlashdan iborat.

**РЕЗЮМЕ.** Настоящая статья посвящена комплексному анализу бронзового котла VI–V вв. до н. э., хранящегося в Государственного музея истории и культуры Республики Каракалпакстан. Используются типологическое сопоставление, технологическая реконструкция и музееведческий подходы для выявления функции, ритуальной семантики и роли предмета как индикатора межрегиональных контактов. Научная новизна состоит в интерпретации котла через сочетание локальных традиций металлообработки и признаков, соотносимых со скифо-сакским кругом.

**SUMMARY.** This article provides a comprehensive study of a bronze cauldron dated to the 6th–5th centuries BCE, housed in the State Museum of History and Culture of the Republic of Karakalpakstan. Typological comparison, technological reconstruction, and museological analysis are applied to clarify its function, ritual semantics, and value as evidence of interregional exchange. The novelty lies in interpreting the object through the intersection of local metalworking traditions and features associated with the Scytho-Saka horizon.

## KITAPXANASHÍLÍQ ISI GÁREZSIZLIK JÍLLARÍNDÁ

**G. S. Dauletbaeva** – *magistr*

*Ózbekstan mámleketlik kórkem óner hám mádeniyat instituti Nókis filiali  
«Kitapxana iskerligi» tálim baǵdari*

**Tayanch so‘zlar:** kutubxona faoliyati, axborot-kutubxona sohasi, me‘yoriy hujjatlar, kutubxona islohotlari.

**Ключевые слова:** библиотечная деятельность, информационно-библиотечная сфера, нормативные акты, библиотечные реформы.

**Key words:** library activities, information and library sphere, regulations, library reforms.

Mámleketimizde málimleme - kitapxana isiniń búgingi kúndegi jaǵdaym úyreniw álbette ilim hám texnika, málimleme kommunikatsiya texnologiyaları bargan sayın rawajlanıp atırǵan házirgi kúnde oǵada aktual áhmiyetke iye bolıp esaplanadı. Solar qatarında, usı tarawda alıp barılıp atırǵan túpkilikli reformalardıń tiykarǵı maqseti xalıqtıń ruwxıy sanasın jetilistiriw, mádeniyatın joqarılalıw, jaslardıń bilim alıwı hám jetik insan bolıp qalıplestiriwden ibarat.

Pútkil málimleme zapasları tiykarınan kitapxanalarda jıynalǵan bolıp, paydalanıwshılar usı jerde jıynalǵan málimlemeden paydalanıwı múmkin. Málimleme hám internet texnologiyalarınıń rawajlanıwı, elektron maǵlıwmatlar bazasınıń jaratılıwı olardan erkin paydalanıwdı talap etedi. [1.5]

Prezidentimiz «Dúnyadaǵı hár bir mámleket, hár bir millet birinshi náwbette óziniń intellektual jetiskenligi, joqarı

mánáwiyatı menen qúdiretli. Bunday jeńilmes kúsh deregi bolsa kitap hám kitapxanalarda» dep atap ótti. [2.324] 1991-jılı Ózbekstan gárezsizlikke eriskennen soń jámiyettiń barlıq qatlamlarında ózgerisler júz berdi. Ótiw dáwiriniń ekonomikalıq qıyınshılıqları, mádeniyat tarawın, sonday-aq baspa hám kitapxanashılıq jumısın mámleket tárepinen finanslıq támiynlew kólemleriniń qısqarıwı, kitap baspa etiw, shet elden baspalardı valyutağa satıp alıw, kitapxanalar fondların toltırıw, olardıń materiallıq-texnikalıq támiynatı, xızmetkerlerge miynet haqı tólewge unamsız tásir kórsetti. Qárejet jetispewshiligi bárinen burın universal galabalıq kitapxanalar tarmaǵınıń jaǵdayında óz ornın taptı. Orınlarda olardıń sanı filiallardıń birlestiriliwi hám hátteki ayırım kitapxanalarardıń jabılıwı esabına ótken ásirdiń sońǵı on jıllıǵında 15-20 payızǵa kemeydi. Kitapxanalarardıń bir bólegi remontlaw jumıslarına qárejet joqlıǵı sebepli, taǵı bir bólegi imaratlardıń eskiligi sebepli jaramsız jaǵdayǵa keldi. «Hújjetlerdiń májbúriy nusqası tuwrısında»ǵı nızamınıń joqlıǵı kitapxanalardı toplawdıń jaǵdayına sezilerli dárejede tásir kórsetti. Kitapxanalarardıń texnikalıq jaǵdayın anıqlaw boyınsha ótkerilgen dáslepki tekseriwler nátiyesinde respublikamızdıń kóplegen kitapxanaları awır jaǵdayda ekenligi anıqlandı. Kópshilik kitapxanalarardıń imaratları hám qızdırıw sistemaları kapital remontlawǵa mútáj. Kitapxanalarıdaǵı úskenerler hám mebeller gónergen hám házirgi jumıs sharayatı talaplarına juwap bermeydi. Kitapxanalarardıń fondların jaylastırıw ushın mólsherlengen stellajlar jaǵdayı órtke qarsı qawipsizlik normalarına tuwrı kelmeydi. Kitapxanashılıq isin jetilistiriw tarawında tiykarǵı mashqala kitapxanadaǵı jumıs processlerin avtomatlastırıw dárejesiniń tómenligi bolıp tabıladı. Kitapxanalar tarmaǵı málimleme sistemaları menen biriktirilmegen. Bul mashqalanı sheshiwdiń bir jolı wálayatlar hám respublika dárejesinde kompyuter tarmaqların shólkemlestiriw bolıp tabıladı. Respublika kitapxanalarınıń avtomatlastırıw dárejesiniń tómenligi, avtomatlastırıw strategiyası hám dástúriiniń joqlıǵı, olardıń materiallıq-texnikalıq bazası nasazlıǵı,

kompyuter úskenerleri hám dástúriy ónimlerdi satıp alıwǵa qárejetler jetispewi, kadrlar jetispewshiligi, kitapxanalarda avtomatlastırıwdı ámelge asırıw ushın juwapker strukturalardıń hám málimleme texnologiyaları boyınsha normativ bazanıń joqlıǵı menen túsindirildi». [3, 308]

2002-jılı mámleket kitapxanashılıq isi tariyxında burılıs jıl boldı. Alisher Nawayı atındaǵı Ózbekstan Mámleketlik kitapxanası hám Ózbekstan Respublikası Pán hám texnika mámleketlik komitetiniń Respublika ilimiy-texnika kitapxanası negizinde Ózbekstan Milliy kitapxanasın shólkemlestiriw názerde tutıldı. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń «Ilimiy-izertlew iskerligin shólkemlestiriwdi jetilistiriw haqqında»ǵı 2002-jıl 20-fevraldaǵı Pármanın orınlaw maqsetinde, Ózbekstan Respublikası Ministrler Keńesi 2002-jıl 12-aprelde «Alisher Nawayı atındaǵı Ózbekstan Milliy kitapxanasın shólkemlestiriw haqqında» qarar qabıladı, Milliy kitapxana haqqındaǵı Nızamdı tastıyıqladı. Bul hújjetlerdiń qabıl etiliwi respublikamızdıń mádeniy turmısında ayrıqsha waqıya boldı. Qararda tiyisli keńselerge eki hújjet respublikada kitapxanashılıq jumısın rawajlandırıwdıń 2010 jılǵa shekem bolǵan dáwir mólsherlengen Kontseptsiyası hám Dástúrin islep shıǵıw hám Ózbekstan Respublikası Ministrler Keńesiniń talqılawına kirgiziw tapsırıldı. Kontseptsiya avtorları ózleriniń bas maqsetleri hám wazıypaların respublikada kitapxanashılıq jumısın rawajlandırıwdıń perspektivalı baǵdarlarına tiykarlaw, jámiyette hám dúnyada júz bergen ózgerislerdi esapqa alıp, tarmaqıtı shólkemlestiriw hám onıń iskerligin támiyinlewdiń strategiyalıq baǵdarların belgilewdi kórip shıqtı. Málimleme texnologiyalarınıń tez pát penen insan iskerliginiń barlıq tarawlarına kirip barıwı málimleme-kitapxana shólkemleri aldına jańa maqset hám wazıypalardı qoydı. Ásirese, húkümetimiz tárepinen málimleme-kitapxana jumısın rawajlandırıw hám zamanagóy xızmet kórsetiwdi shólkemlestiriw boyınsha bir qatar normativlik hújjetler Ózbekstan Respublikasınıń 2003-jıl 11-dekabrde «Málimlemelestiriw haqqında» ǵı Nızamı qabıl etildi. [4,172]

Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2006-jıl 20-iyundegi “Respublika xalqın málimleme-kitapxana menen támiyinlewdi shólkemlestiriw haqqında”ǵı Qararınıń qabıl etiliwi, 2011-jıl 13-apreldegi «Málimleme-kitapxana jumısı haqqında»ǵı Ózbekstan Respublikasınıń Nızamınıń tastıyqlanıwı mámleketimiz xalqına málimleme-kitapxana xızmetin joqarı, dúnya standartlarına say dárejede shólkemlestiriwge, taraw qániygeleriniń nátiyjeli jumıs alıp barıwları ushın huqıqiy mexanizmler menen bekkemlendi. [5,4] 2012-jıl 20-martda qabıl etken “Alisher Nawayı atındaǵı Ózbekstan Milliy kitapxanası málimleme-resurs orayı iskerligin shólkemlestiriw ilájları haqqında”ǵı Qarardıń ózi-aq bul dáwirdeń ayrıqsha qásiyetlerin hám áhmiyetin kórsetken bolsa, Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2017-jıl 12-yanvardaǵı «Kitap ónimlerin baspadan shıǵarıw hám tarqatıw sistemasın rawajlandırıw, kitap oqıw hám kitapqumarlıq mádeniyatın asırıw hám úgit-násiyatlaw boyınsha komissiya dúziw haqqında” ǵı PF-4789 sanlı pármanı, 2017-jıl 13-sentyabrde “Kitap ónimlerin basıp shıǵarıw hám tarqatıw sistemasın rawajlandırıw, kitap oqıw hám kitapqumarlıq mádeniyatın rawajlandırıw haqqında”ǵı PF-3271-sanlı qararı qabıllandı.

Mámleketimizde 2017-2021-jıllarda Ózbekstan Respublikasınıń rawajlandırıwdıń bes nátiyjeli baǵdarı boyınsha Háreketler strategiyası tiykarında barlıq taraw hám tarmaqlarda úlken ózgerisler ámelge asırıldı.

Háreketler strategiyasınıń tórtinshi baǵdarı- ilim pán tarawın rawajlandırıwǵa baǵdarlanǵan bolıp, onda Prezidentimizdiń xalqımız arasında kitapqumarlıq mádeniyatın jáne de rawajlandırıw, kitap oqıwǵa keń itibar qarattıw boyınsha ámelge asırıp atırǵan isháreketleri dıqqatqa ılayıqlı bolmaqta.

2017-jıldıń sentyabr ayında oqıwshı jaslardıń ideologiyalıq immunitetin bekkemlew maqsetinde orınlarda «Men súyip oqıǵan kitap» hám «Eń jaqsı kitapqumar» tańlawları shólkemlestirildi. Bunıń ushın byudjetten tısqarı qárejetler hám qayırqomlıq qarjıları esabınan 160 million swm qarjı ajratıldı. Bunday is-ilájlar járdeminde oqıwshı jaslar túrli jat illet hám ideologiyalardan qorǵaladı, olardıń

ideologiyalıq immuniteti bekkemlenedi hám jámiyette joqarı mánawiyatlı bolıwına erisedi. [6,205] Ósip kiyatırǵan áwladtıń kitapqa qızıǵıwshılıǵın arttırıw maqsetinde Ózbekstan xalqınıń mádeniy-áǵartıwshılıq miyrası, tariyxı boyınsha ádebiyatlar shıǵarıwshı baspa orınları, baspaxanalar, shıǵarma avtorlarına salıq hám basqa preferentsiyalar usınıldı, ekonomikalıq xoshametlew sharaları kórildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiniń 2019-jıl 7-iyundegi “Ózbekstan Respublikası xalqına málimleme-kitapxana xızmeti kórsetiwdi ele de jetilistiriw haqqında”ǵı PQ-4354-sanlı qararı Respublikada social ekonomikalıq tarawdı reformalawdıń, málimleme-kitapxana iskerligin rawajlandırıwdıń maqset hám wazıypaları xalıq aralıq tájiriybege say bolıwı zárurlıǵı, milliy qadiryatlar hám dúnya mádeniyatı, ámeliy hám fundamental bilimlerden paydalanıwdı támiyinlew xalıqqa málimleme-kitapxana xızmetin kórsetiwdiń sapa tárepinen jańa sistemasın jaratıw, kitapxanalarda saqlanıp atırǵan milliy mádeniy miyraslardı saqlaw hám bayıtıw, málimleme-kommunikaciya texnologiyaların keńnen engiziw, málimleme-kitapxana mákemeleri iskerligin shólkemlestiriw, jetilistiriw ústin turatuǵın wazıypalardı aylanbaqta. [7] 2020-jılı 14-dekabrde Ózbekstan Respublikası Ministrler Keńesi tárepinen qabıl etilgen «2020-2025-jıllarda kitapqumarlıq mádeniyatın rawajlandırıw hám qollap-quwatlaw milliy dástúri haqqında»ǵı 781-sanlı qararı shınında da, Renessans tiykarın qurıwǵa qaray qoyılǵan ámeliy qádemlerden biri. Dástúr mámleketimizde kitap oqıw mádeniyatınıń jetilisiwi ushın xalqımızdıń joqarı kórkem-estetikalıq talapları, ilimiy-intellektual talaplarına juwap beretuǵın kitaplardı joqarı sıpat penen basıp shıǵarıwdan baslap, baspaxana hám dóretiwshiler jumısına kómeklesiw, kitap sawdasın qurıw tártiplerin ápiwayılastırıw, jańa basıp shıǵarılǵan kitaplardıń óz oqıwshılarına jetip barıwın támiyinlew, málimleme dereklerin tarqatıw sistemasın jedellestiriw, elektron kitaplardı jaratıw, olardıń nusqaların kitapxanalardı tarqatıwǵa shekemgi bolǵan keń is-ilájlar kompleksin qamrap alǵanı menen ajıralıp turadı.

Dástúr úsh basqishta ámelge asırıldı, 2020-2021-jıllardı óz ishine alǵan birinshi basqishta kitapqumarlıq mádeniyatın rawajlandırıw boyınsha shólkemleskenlik-huqıqıy mexanizmlerdi jedellestiriw is-ilájları kóridi;

2022-2023-jıllardı óz ishine alǵan ekinshi basqishta kitapqumarlıqqa tiyisli infrastruktura bekkemlendi;

2024-2025-jıllardan ibarat úshinshi basqishta jaslardın kitapqumarlıq mádeniyatın rawajlandırıw, olardıń intellektual qábiletiniń ósiwi esabına insan kapitalı sıpatın jaqsılawǵa erisildi.

2019-2024-jıllarda Ózbekstan Respublikası málimleme-kitapxana tarawın rawajlandırıw Kontseptsiyası respublika málimleme-kitapxana tarawın rawajlandırıwdıń maqsetleri, wazıypaları, reformaları, nátiyjeli baǵdarları hám mexanizmlerin belgilewshi ideyalardıń bir ǵana pútin sistemasın ózinde jámleydi.

Kontseptsiyada: Málimleme-kitapxana orayları xızmetkerleriniń nátiyjeli jumıs alıp barıwı hám olardı jámiyetlik qollap-quwatlaw maqsetinde múnásip shárayatlar jaratıw belgilendi. Máselen: Málimleme-kitapxana oraylarınıń normal rawajlanıwına kepil beretuǵın miynetke haqı tólew dárejesin támiyinlew; Málimleme-kitapxana orayları xızmetkerlerine kóp jıllıq is stajları ushın qosımsha haqı tólewdi jolǵa qoyıw; Kásiplik dárejeler hám mámleketlik sıylıqlardı

ornatıw; «Kitapxana aǵlası» ko'kirek nıshanın beriw; Kitapxanalardıń materiallıq-texnikalıq bazasın bekkemlew jolǵa qoyıldı. Kontseptsiya eki basqishta alıp barıladı:

Birinshi basqishta (2019-2020-jıllar) tómendegiler názerde tutıldı: Aymaqlıq málimleme - kitapxana shólkemlerin keleshekte xalıq aralıq sistemalar menen integratsiyalaw ushın olardı birden-bir maǵlıwmatlar bazasına jalǵaw; Milliy ulıwma bilim elektron kitapxana orayı haqqındaǵı nızamdı islep shıǵıw hám tastıyıqlaw; Tarawǵa qánigelestirilgen joqarı bilimlendiriw orınlarında «Kitapxana-málimleme isi» baǵdarı boyınsha qabıllaw kvotaların belgilew; «Kitapxana aǵlası» kókierek nıshanın belgilew boyınsha usınıslar islep shıǵıw hám Ózbekstan Respublikası Ministrler Keńesine kiritiw;

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье с научной точки зрения анализируются теоретические и методические основы преподавания музыкальной литературы, взаимосвязь традиционных и инновационных педагогических методов. Раскрывается влияние музыкального анализа, культуры слушания, интерактивных образовательных технологий и интегративного подхода на эффективность обучения. Также обосновывается важность компетентного подхода на основе национального и мирового музыкального наследия.

**SUMMARY.** This article scientifically analyzes the theoretical and methodological foundations of teaching music literature, the harmony of traditional and innovative pedagogical methods. The influence of musical analysis, listening culture, interactive educational technologies, and an integrative approach on the effectiveness of education is revealed. The importance of a competency-based approach based on national and world musical heritage is also substantiated.

## O‘ZBEK XALQ RAQSI IJROCHILARINING IJODIY VA PEDAGOGIK FAOLIYATI

**Fazliyeva Zebo Kamarbekovna** – dotsent  
*O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti*

**Tayanch so‘zlar:** xalq raqsi, tarixiy davr, marosim raqs, mahorat, xususiyat, san’at, ansambl.

**Ключевые слова:** народный танец, исторический период, обрядовой танец, мастерство, особенность, искусство, ансамбль.

**Key words:** folk dance, historical period, ritual dance, skill, characteristic, art, ensemble.

**Kirish.** O‘zbek xalq raqsi ustalari har biri o‘ziga xos sahna uslubi va ijro mahorati bilan ajralib turadi. Tamaraxonim (Tamara xonim) o‘zbek professional raqsining asoschilaridan biri bo‘lib, u nafaqat raqqosa, balki xonanda va baletmeyster sifatida ham tanilgan. Uning ijro uslubi milliy va xalqaro unsurlar uyg‘unligida namoyon bo‘lgan; u sahnada o‘zbek raqsini dramatik teatr ifodasi bilan boyitgan. Masalan, Tamaraxonim bir konsertda oldin qayg‘uli ohangdagi “Dilxiroj” raqsini ijro etib, undan so‘ng sho‘x “Usmoniya” raqsiga tushgan – bunday keskin kayfiyat almashinuvlari uning sahna mahorati naqadar keng qamrovli ekanini ko‘rsatgan. Tamaraxonim o‘z repertuarini nafaqat o‘zbek raqslari, balki dunyoning 86 xil milliy qo‘shiqlari va raqslari bilan boyitgan edi. Jumladan, u Farg‘ona, Buxoro, Xorazm an‘anaviy raqs uslublarini sahnaga olib chiqdi va hind, afg‘on, indonez kabi Sharq xalqlari raqsalarini ham mohirona ijro etdi. Uning turli millatlar raqsalaridan yaratgan raqs-miniatyuralari butunlay yangi janr sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, “Lazgi” singari mahalliy raqsarlarni ham sahnaviy chiqishga aylantirishga xizmat qilgan, natijada o‘zbek raqsi jahon sahnasida yorqin namoyon bo‘ldi. Tamaraxonimning ijodi tufayli uni zamondoshlari “Sharq qaldirg‘ochi” deya ulug‘lashgan (1924-yilda Moskva sahnasida ilk chiqishidayoq shu nomga sazovor bo‘lgan).

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Mukarrama Turg‘unboyeva esa o‘zbek sahna

raqsining yana bir ulkan darg‘asi bo‘lib, u raqqosa va baletmeyster sifatida milliy raqslarga yangi nafas bag‘ishladi. Uning har bir chiqishi tom ma’noda bir doston edi – sahnada raqs orqali muayyan voqea yoki tuyg‘uni hikoya qila olishi bilan ajralib turardi. Mukarrama opa o‘z ijodida Farg‘ona vodiysi raqsalarining nafis va mayin harakatlarini o‘rgandi, Xorazm va Buxoro raqsalarining o‘ziga xos usullarini sahnaga moslashtirdi. U o‘zbek raqsining oltin fondidan joy olgan bir qator noyob raqsarlarni sahnalashtirdi: “Tanovar”, “Katta o‘yin”, “Jonon”, “Pilla”, “Paxta” kabi raqsarlar aynan Mukarrama Turg‘unboyeva ijodining mahsuli bo‘lib, milliy raqs san’atida yangi sahnaviy talqinini topdi. Xususan, 1943 yilda sahnalashtirgan “Tanovar” raqsi uning baletmeysterlik ijodiy cho‘qqisi sanaladi. Bu raqs mumtoz musiqa ohanglariga milliy raqs harakatlarini uyg‘unlashtirib, tomoshabinlarga chuqur ta’sir ko‘rsatgan. Mukarramaning ijodi “Bahor valsii” kabi yangi raqsarlarni ham qamrab olgan – u bastakor M. Mirzayev bilan hamkorlikda yaratgan “Bahor valsii” raqsi keyinchalik “Bahor” ansamblining ramziy asariga aylangan. Umuman, Mukarrama Turg‘unboyeva milliy raqslarga ilmiy yondashuv olib kirib, ularga sahnaviy san’at darajasida ishlov berib, o‘zbek raqsini yangi pog‘onaga ko‘tardi. Qunduz Mirkarimova Mukarrama Turg‘unboyevaning eng iste’dodli shogirdlaridan biri bo‘lib, u ijrochi raqqosa sifatida ham, baletmeyster sifatida ham ulkan shuhrat qozondi. Qunduz opa Moskvadagi

Katta teatr qoshidagi xoreografiya bilim yurtida mumtoz balet bo'yicha ta'lim olib, klassik raqs texnikasini puxta egalladi. U 1950–70-yillar davomida O'zbekiston davlat filarmoniyasi va opera-baleti sahnalarida yakkaxon raqqosa sifatida faoliyat yuritib, "G'ayratli qiz", "Katta o'yin", "Tanovar", "Nay navosi", "Bahor tongi", "Zang o'yin", "Pomir raqsi", "Cho'li Iroq" kabi klassik va xalq raqslari, shuningdek qardosh xalqlar raqsalarini ijro etdi. Uning sahna uslubida mumtoz baletdan olgan nafis qomat va harakat madaniyati milliy raqsning erkin va jo'shqin ifodasi bilan qo'shilib, o'ziga xos joziba kasb etdi. Qunduz Mirkarimova repertuarida Farg'ona va Buxoro uslubidagi "Tanovar"larning turli variantlari, "Toshkent zangi", "Qo'qoncha doira", "Yor istab" kabi an'anaviy raqs, hatto koreys, arab, yapon va turk xalqlarining raqsari ham bo'lgan – bu esa uning ijrochilik doirasi nihoyatda keng ekanini tasdiqlaydi. U sahnada jo'shqin temperament va nozik lirizmni birlashtira olgan; hatto rus balet arboblari Igor Moiseyev va Maya Plisetskaya ham Qunduz Mirkarimovaning mahoratiga yuksak baho berishgani ma'lum. O'zbek xalq raqsi ustalari nafaqat ijrochi, balki mohir pedagog sifatida ham tanildilar. Ular o'z mahorat maktablarini yaratib, shogirdlar tayyorlashga ulkan hissa qo'shdilar. Raqs san'atida ustoz-shogird an'analari ustuvor bo'lib, XX asr o'rtalariga kelib bu an'ana endi rasmiy ta'lim tizimi bilan uyg'unlashdi. Usta Olim Komilovdan saboq olgan Tamaraxonim va Mukarrama Turg'unboyeva kabi ilk avlod raqqosalar o'z navbatida yangi avlod san'atkorlarini tarbiyalashga kirishdilar.

Mukarrama Turg'unboyeva 1934-yildan 1957-yilgacha Respublika balet maktabida pedagog bo'lib ishladi va shu yillar mobaynida butun bir raqqoslar avlodini voyaga yetkazdi. Uning shogirdlari orasidan keyinchalik o'zbek raqs san'atining yirik namoyondalaridan: Galina Izmaylova, Qunduz Mirkarimova, Gulnora Mavayeva, Ra'no Nizomova, Tamara Yunusova, Ma'mura Ergasheva, O'g'iloy Muhamedova va boshqalar uning qo'lida ta'lim olib, yetuk san'atkorga aylanganlar. Mukarrama opa shogirdlariga nafaqat raqs harakatlarini, balki ijodiy yondashuv va sahna madaniyatini ham

singdira olgan. Uning darslarida milliy raqs elementlarini mumtoz balet texnikasi bilan uyg'un qo'llashga alohida e'tibor berilgan – u har bir raqqosada nafaqat texnik mahorat, balki sahnada obraz yarata olish qobiliyatini ham tarbiyalagan.

Qunduz Mirkarimova ham uzoq yillar pedagog sifatida faoliyat ko'rsatdi. U 1964 yildan boshlab Toshkent xoreografiya bilim yurtida (hozirgi Milliy raqs va xoreografiya oliygohi) dars berib, ko'plab iste'dodli o'quvchilarni tarbiyaladi. 1973 yildan 1979 yilgacha O'zbek davlat xoreografiya oliygohida pedagoglik qilgan Qunduz opa o'z tajribasini nazariy bilimlar bilan boyitib, akademik darajada dars bera boshladi. Uning shogirdlari orasida ko'plab taniqli raqqosalar bor bo'lib, ular keyinchalik O'zbekiston va hatto qo'shni respublikalar raqs jamoalarining yetakchi ijrochilariga aylanishdi. Masalan, Qunduz Mirkarimova shogirdlaridan biri Zebo Aminzoda Tojikistonda mashhur "Zebo" raqs ansamblini tashkil etdi. Qunduz opa ustoz sifatida shogirdlariga klassik raqs mashqlarini mustahkam o'rgatgan holda, ularga milliy raqsning ruhini singdirishga intildi. Uning dars uslubida har bir harakatning ma'nosini tushuntirish, raqqosada raqsqa nisbatan ichki his-tuyg'uni uyg'otish muhim o'rin tutgan. Natijada, uning qo'lidan yetishgan raqqosalar sahnada nafis texnikaga ega bo'lish barobarida, yuksak badiiy tafakkur bilan ijro etishga odatlandilar. Tamaraxonim ham umrining oxirigacha yoshlarga maslahat va ko'mak berib keldi. U rasmiy ta'lim muassasasida dars bermagan bo'lsa-da, o'z atrofida iste'dodli shogirdlar jamuljam bo'lishiga erishdi. Tamaraxonimning bevosita shogirdlari sifatida nomlari tilga olinmasa-da, uning san'atidan ilhomlangan ko'plab yosh raqqosalar uni o'ziga ustoz deb bilishgan. U konsert va gastroollari chog'ida yosh san'atkorlarga o'z tajribasini o'rgatib, sahna sir-asrorlarini ulashgan. Tamaraxonimning shogirdlarga nasihatlaridan biri raqsni qalb bilan his etish, har bir harakatga hayotiy mazmun yuklash bo'lgan. U o'zbek raqqosalarining keyingi avlodiga ilhom manbai bo'lib, ularning ijodiy kamolotida muhim rol o'ynadi. O'zbek xalq raqsini o'qitishda XX asr davomida bosqichma-

bosqich metodik tizim shakllandi. Ilk davrlarda raqs san'ati asosan ustozdan shogirdga og'zaki va amaliy tarzda o'tgan bo'lsa, keyinchalik maxsus darslik va qo'llanmalar yaratila boshlandi. Usta Olim Komilov va uning zamondoshlari milliy raqs harakatlarini ilk bor tizimlashtirishga harakat qildilar. Ma'lumki, 1927–28-yillarda Usta Olim Komilov Tamaraxonim bilan hamkorlikda ilk raqs darsligini tuzib, unda 120 ta oyoq-qo'l harakatlari usullarini yozib chiqqan. Bu darslik o'zbek raqs san'atini o'rgatishda birinchi nazariy manba bo'lib xizmat qilgan. Shuningdek, Usta Olim tomonidan Farg'ona raqs uslublariga oid "Doira darsi va raqs" nomli metodik qo'llanma yaratilib, undan foydalanib Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva kabi raqqosalar ko'plab yangi sahna raqslarini sahnalashtirishgan. Mazkur qo'llanma yordamida o'nlab san'atkorlar o'ziga xos raqslar yaratishga muvaffaq bo'lishgan. Demak, xalq raqsini o'qitishda ilk bor usullarni tizimlashtiruvchi yozma manbalar paydo bo'ldi. Keyinchalik, o'zbek raqsining rivoj topishi va ta'lim muassasalarida o'qitila boshlashi bilan yangi darslik va uslubiy qo'llanmalar yaratildi. Mukarrama Turg'unboyeva bu borada ham jonbozlik ko'rsatgan ustozlardan biridir. U Toshkent xoreografiya bilim yurtida milliy raqs bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqishda qatnashib, raqs pedagogikasi nazariyasiga asos soldi. Jumladan, Mukarrama opa ushbu bilim yurti dasturiga "Doyra darsi" mashg'ulotini joriy etishda mualliflik qilgan pedagoglardan biridir. Bu mashg'ulot orqali o'quvchilarga milliy raqs ritmlari va doirani chalish hamda raqs harakatlarini uyg'un bajarish usullari o'rgatilgan. Toshkent xoreografiya bilim yurti (hozirgi O'zbekiston Davlat xoreografiya akademiyasi) o'quv rejalarida 1950–60-yillardan boshlab xalq raqs asoslari alohida fan sifatida o'qitila boshlandi. Bu dargoh pedagoglari – jumladan, Mukarrama Turg'unboyeva, Roziya Karimova, Gavhar Rahimova kabi tajribali raqqosalar – milliy raqsning didaktikasi va terminologiyasini shakllantirishga hissa qo'shdilar. Natijada, Farg'ona, Buxoro, Xorazm raqs maktablarining har biri o'z uslubiy xususiyatlari bilan tizimlashtirilib,

o'quvchilarga o'rgatiladigan bo'ldi. Masalan, Farg'ona raqsining chapani harakatlari Buxoro raqsining mayin qo'l va yelkalar plastikasi va Xorazm "lazgi" raqsining o'ynoqligi alohida mavzular sifatida o'qitildi.

Shuningdek, ushbu davrda o'zbek raqs san'atiga oid nazariy-adabiy manbalar paydo bo'ldi. Raqs tadqiqotchilari va san'atshunoslar raqs tarixi va uslublariga bag'ishlangan maqola va kitoblarni nashr etdi. Masalan, 1959 yilda O'zSSR Fanlar akademiyasi San'atshunoslik institutida Lyubov Avdeyeva tomonidan "Mukarram Turg'unboyeva raqs" nomli monografiya chop etildi. Unda Mukarramaning ijodiy uslubi va sahna asarlari ilmiy tahlil qilingan bo'lib, raqs san'atiga nazariy yondashuv namunasini ko'rish mumkin. Keyinchalik, 1980-yillarda o'zbek raqs tarixiga oid risolalar, metodik tavsiyalar ham paydo bo'la boshladi. Bularning barchasi raqsni o'rgatish bo'yicha nazariy bilimlarning shakllanishiga xizmat qildi. Ta'kidlash joizki, xalq raqsini o'rgatishdagi uslubiy tajriba nafaqat yozma qo'llanmalar, balki ustoz raqqosalarning amaliy mahorati orqali ham boyidi. Masalan, Galina Izmaylova, Klara Yusupova, Viloyat Oqilova kabi raqqosalar o'zbek raqsining metodikasini keyingi avlodlarga o'rgatishda muhim rol o'ynadilar. Ular o'z ustozlari Tamaraxonim va Mukarrama an'alarini davom ettirar ekan, harakatlarni puxta mashq qildirish, har bir raqs namunasining kelib chiqishi va mazmunini tushuntirish kabi pedagogik usullarni amaliyotga tatbiq etdilar. Shu tariqa, XX asr ikkinchi yarmiga kelib o'zbek xalq raqsini o'rgatishning mustahkam metodik bazasi yaratildi – darslik va qo'llanmalar, ustozlarning o'quv-uslubiy tajribasi uyg'un holda yangi raqqosalar avlodini tarbiyalashga xizmat qildi.

1950-2000 yillarda o'zbek raqqosalari va baletmeysterlarining ko'pchiligi faqat sahnada emas, balki madaniyat va san'atga ixtisoslashgan ta'lim muassasalarida ham samarali faoliyat olib bordilar. O'zbekistonda milliy raqsni o'qitish bo'yicha ilk rasmiy ta'lim maskani 1940-yillarda tashkil topgan Respublika xoreografiya bilim yurtidir (o'sha davrdagi balet maktabi). Keyinchalik bu dargoh Toshkent xoreografiya oliygohi darajasiga ko'tarildi. Aynan shu muassasada

Mukarrama Turg'unboyeva, Roziya Karimova, Gavhar Rahimova kabi ustozlar kafedra mudiri va pedagog sifatida ishlaganlar. Ular milliy raqs bo'limlariga rahbarlik qilib, o'quv rejalariga milliy raqs fanlarini kiritganlar.

**Natijalar va muhokama.** Mukarrama Turg'unboyeva 1957-yilda bir guruh hamkasblari bilan birga "Bahor" davlat xalq raqs ansamblini tashkil etgan bo'lsa, shu bilan birga u mazkur ansambl qoshida yosh raqqosalarni tarbiyalash ishini ham yo'lga qo'ygan. Mukarrama opa "Bahor" ansambliga rahbarlik qilgan yillarida nafaqat sahnada raqslar yaratdi, balki ansambl a'zolariga bevosita ustozlik qilib, ularning mahoratini oshirdi. U ansambl repetitsiyalarini bir vaqtning o'zida dars jarayoniga aylantirar, raqqosalarga sahnada o'zini tutish, sahna kiyimi, makiyajdan tortib, ijro jarayonidagi eng mayda detalgacha o'rgatar edi. Qunduz Mirkarimova ham ta'lim muassasasidagi faoliyatini ansambl rahbarligi bilan muvaffaqiyatli uyg'unlashtirgan. U 1979 yilda o'zining ustози Mukarrama Turg'unboyeva vafotidan so'ng "Bahor" ansamblining badiiy rahbari etib tayinlandi.

Professor Qunduz Mirkarimova shu lavozimda 20 yildan ziyod faoliyat yuritib, ansamblni yuqori cho'qqilarga olib chiqdi. Shu bilan birga, u 1980–90-yillarda O'zbekiston Davlat konservatoriyasi hamda Madaniyat institutida milliy raqs bo'yicha maxsus kurslar tashkil etilishida ilmiy maslahatchi sifatida qatnashdi (norasmiy ma'lumotlarga ko'ra). Qunduz opa ansamblida yig'ilgan boy repertuarni ilmiy jihatdan tasniflab, u asosida o'quv dasturlarini boyitishda ishtirok etgan. Uning rahbarligi ostida "Bahor" ansambl respublika va xalqaro festivallarda katta muvaffaqiyat qozondi, shu tariqa ansambl yosh ijrochilar uchun haqiqiy amaliy maktab vazifasini o'tadi. Qunduz Mirkarimovaning madaniyat sohasidagi xizmatlari e'tirof etilib, unga O'zbekiston va SSSR xalq artisti unvonlari berildi, ko'plab orden va medallar bilan taqdirlandi. U 2019 yilda 93 yoshida olamdan o'tdi, vafot etgunga qadar O'zbekiston xoreografiya akademiyasining faxriy professori sifatida yoshlarga maslahat berib keldi.

Bugun O'zbekistonda Qunduz opa tavalludining 100 yilligi munosabati bilan turli tadbirlar o'tkazilmoqda – bu, albatta, uning raqs san'atimiz tarixidagi o'chmas o'rnini e'tirof etishdir. Tamaraxonim o'z faoliyati davomida rasmiy ta'lim muassasalarida ishlamagan bo'lsa-da, uning nomi bilan bog'liq uy-muzey va memoriy studiyalar milliy raqsni o'rgatish va targ'ib qilish maskanlari bo'lib xizmat qildi. 20-asrning ikkinchi yarmida Toshkentda tashkil etilgan Tamara Xonim nomidagi uy-muzeyida mahorat darslari, uchrashuvlar o'tkazilib, unda yosh raqqosalar ustoz san'atkor hayoti va ijodi bilan tanishdilar. Bu maskanda Tamaraxonimning saxovatpesha shogirdlari va izdoshlari yig'ilib, uning yodini ato etish barobarida, raqs san'atining tarixiy fotosuratlari, liboslari, mukofotlari orqali ta'lim tarbiya oldilar. Shuningdek, Tamaraxonim 1960–70 yillarda turli madaniy tadbirlar doirasida O'zbek milliy raqs ansamblariga badiiy rahbarlik qilishga jalb qilingan – masalan, hududiy havaskor raqs jamoalarini festival va ko'riklarga tayyorlashda maslahat bergan. Bu ham uning ta'limiy faoliyatining bir ko'rinishi edi. Shunday qilib, XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek xalq raqsi san'atining professional darajada taraqqiy etgan, milliy raqs maktabi shakllangan, buyuk ijrochilar pleyadasi maydonga chiqqan davr bo'ldi. Tamaraxonim kabi ijodkorlar milliy raqsimizni jahon sahnalariga olib chiqib, uning shuhratini yoygan bo'lsa, Mukarrama Turg'unboyeva singari fidoyi ustozlar xalq raqsini sahnaviy san'at darajasiga ko'tarib, bir qancha yangi raqs durdonalarini yaratdilar.

Ularning shogirdlari Qunduz Mirkarimova boshchiligida ushbu an'analarni davom ettirib, milliy raqsimizni yangi bosqichlarga olib chiqdi. Mazkur davrda raqs san'ati ta'lim tizimiga singdirilib, metodik asoslari shakllandi – darslik va qo'llanmalar yaratildi, xoreografiya bilim yurtlari va bo'limlarida xalq raqsi chuqur o'qitila boshlandi. O'zbek raqqosalari nafaqat sahnada, balki pedagog sifatida ham milliy san'atga xizmat qildilar, o'z bilim va mahoratlarini avlodan-avlodga o'tkazdilar. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tahlil qilingan har bir ijodkor – Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Qunduz

Mirkarimova va boshqalar – o‘zbek xalq raqsini rivojlantirish yo‘lida o‘ziga xos iz qoldirgan. Ularning ijodiy yondashuvi va pedagogik tamoyillari bir-birini boyitgan holda, yagona milliy raqs maktabini shakllantirdi. Bugungi kunda mustaqil O‘zbekiston davrida ham ularning merosi davom ettirilmoqda: “Bahor” ansamblining qayta tashkil etilishi, milliy raqs festivallari va tanlovlarining o‘tkazilishi bu an‘analarning mantiqiy davomidir.

Xulosa qilib aytganda, XX asr ikkinchi yarmidagi o‘zbek xalq raqsi ustalari ijodiy va pedagogik faoliyatining chuqur tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular milliy raqs san‘atini nafaqat

yuqori badiiy darajaga ko‘tardilar, balki uning kelajak avlodlarga yetib borishini ta‘minladilar. Ustoz raqqosalar yaratgan maktab bugungi kunda yangi iste‘dodlarning kamol topishiga zamin bo‘lmoqda. Bu davr tajribasi milliy san‘atimiz tadqiqotlari uchun ham boy ilmiy manba vazifasini o‘tamoqda.

Demak, o‘zbek xalq raqsining keyingi taraqqiyoti ham ana shu mustahkam poydevor ustida barpo bo‘lishi shubhasiz.

Milliy raqsimiz tarixidagi yorqin sahifa bo‘lmish 1950–2000 yillar ijodiy va pedagogik merosi bundan keyin ham sinchiklab o‘rganilishi, qadrlanishi va yanada rivojlantirilishi lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avdeyeva L.A. O‘zbek milliy raqsi tarixidan - T.: M.Turg‘unboyeva nomidagi “O‘zbekraqs” milliy raqs birlashmasi, 2001. 204b.
2. Dosmetova R, Abrayqulova N. Raqs. – T.: Barkamol fayz media. 2017. 160 b.
3. Avdeyeva L.A. Mukarrama Turg‘unboyevaning raqsi -T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1989. 199-B.
4. Avdeyeva L.A. O‘zbekiston raqs san‘ati. –T.: GIXL, 1966. 192 b.
5. Nizamova O‘. Роль женщин в хореографическом искусстве – T.: San‘at, 2011.  
[https://sanat.orexca.com/2011-rus/2011-4-2/rol\\_jen/](https://sanat.orexca.com/2011-rus/2011-4-2/rol_jen/)
6. Uzdxa.uz (O‘zbek davlat xoreografiya akademiyasi sayti) – “SSSR xalq artisti Qunduz Mirkarimovaning 100 yilligi” (07.03.2025)

**REZYUME.** Ushbu maqolada XX asrning ikkinchi yarmida o‘zbek xalq raqsi san‘atining ravnaqi va rivojlanishi, zabardast raqqosalar va baletmeysterlar o‘zbek sahna raqsining yetakchi namoyandalari, o‘zbek milliy raqsining qadimiy an‘analarini saqlanishi, raqs ijrochilarining o‘ziga xos ijro uslublarini shakllanishi, pedagogik mahorat, xalq raqsini o‘qitish metodikasi hamda madaniyat va san‘at ta‘lim muassasalaridagi faoliyati tahlil qilinadi, tahlil jarayonida Tamaraxonim, Mukarrama Turg‘unboyeva, Qunduz Mirkarimova kabi ustoz san‘atkorlar faoliyatiga alohida e‘tibor qaratiladi.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье анализируется расцвет и развитие узбекского народного танцевального искусства во второй половине XX века, выдающиеся танцоры и балетмейстеры - ведущие представители узбекского сценического танца, сохранение древних традиций узбекского национального танца, формирование уникальных исполнительских стилей танцоров, педагогическое мастерство, методика преподавания народного танца и деятельность в учреждениях культуры и искусства, в процессе анализа особое внимание уделяется деятельности таких мастеров-артистов, как Тамарахоним, Мукаррама Тургунбаева, Кундуз Миркаримова.

**SUMMARY.** This article analyzes the flourishing and development of Uzbek folk dance art in the second half of the 20th century, prominent dancers and ballet masters - leading representatives of Uzbek stage dance, the preservation of ancient traditions of Uzbek national dance, the formation of unique performance styles of dancers, pedagogical mastery, folk dance teaching methodology, and activities in cultural and art institutions, with particular attention paid to the activities of master artists such as Tamaraxonim, Mukarrama Turgunbayeva, and Kunduz Mirkarimova.

## MUSIQALI TEATR PEDAGOGIKASIDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN YONDOSHUV

**Bobur Xusanov** – *katta o‘qituvchi*  
*O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti*  
*“Musiqali teatr san‘ati” kafedrası*

**Tayanch so‘zlar:** musiqali teatr, kuylovchi aktyor, spektakl, ovoz apparati, foniatr, xarakter, musiqiy xatti-harakat, tibbiy gigiyena.

**Ключевие слова:** музыкальный театр, поющий актер, спектакль, голосовой аппарат, фониатр, характер, музыкальное поведение, медицинская гигиена.

**Key words:** musical theater, singing actor, performance, voice apparatus, phoniatr, character, musical behavior, medical hygiene.

Ta‘lim jarayonida musiqali dramani sahnalashtirish uchun rejissyor-pedagog qo‘liga yangi asarni olar ekan avvalombor, asosiy bir masalani o‘ylab ko‘rishga majbur bo‘ladi. Ya‘ni, rol ijrochilarining ovozi berilgan rolga mos keladimi, yo‘qmi? chunki, ko‘p hollarda aktyor-talabani tashqi ko‘rinishi, dramatik qobiliyati, dunyoqarashi, bilim doirasi, hayotiy tajribasi rolga mos kelgani bilan ovoz imkoniyati to‘g‘ri kelmasa o‘ylangan ijodiy reja amalga oshmaydi. Bizga ma‘lumki, musiqali teatr aktyorini tarbiyalash jarayoni xuddi dramatik teatr aktyorini tarbiyalash singari bir xil kechadi. Ammo ushbu jarayonda musiqali teatr aktyorligi mahoratidan saboq beruvchi pedagog zimmasiga yana boshqa bir qancha vazifalar yuklanadi. Bularga talabani musiqiy–ritmik qobiliyatini mukammal darajada rivojlantirish, musiqiy hatti-harakat qilishga o‘rgatish, ariya va duetlar ijrosida kuylash emas, balki hatti-harakat qilish kabi musiqiy teatr talablarini bajarishga o‘rgatish singari vazifalar kiradi. Biroq, musiqiy teatr san‘ati yo‘nalishi bo‘yicha ta‘lim olayotgan talabalarga saboq beruvchi pedagogdan sohaga xos bo‘lgan yana bir jihatga e‘tibor qaratish zarur bo‘ladi. Ya‘ni, kuylovchi ovozni turli xil noxushliklardan asrash, tibbiy gigiyenaga, ya‘ni ovozni asrashga talaba diqqatini ko‘proq jalb etish mas‘uliyati. Yetuk salohiyatli, intellektual rivojlangan shaxs – ijodkor tarbiyasida pedagogning roli va mas‘uliyati haqida fikr yuritishdan oldin bir savolga javob topishga urinib ko‘rishimiz kerak. Italiyalik rejissyor Djorjo Streler bu savolni shunday qo‘yadi va ushbu savolga o‘zi javob berishga harakat qilib

shunday deydi: “Teatr san‘atining ilk pillapoyasida bo‘lajak aktyorni tarbiyalash haqida izchil, tabiiy ketma- ketlikni saqlagan holda biror qo‘llanma yoki kitob yozish mumkinmi? Balki mumkindir, lekin bu juda qiyin va og‘ir jarayon”. [1.5]

Darhaqiqat, yuqorida aytganimizdek, bu dunyoda qancha odam bo‘lsa hammasining fe‘li o‘zgacha, o‘ziga xos, biri boshqasini takrorlamaydi. Shu jumladan, ta‘lim olayotgan talabalar ham bir-biridan mutlaqo farq qiladi. Bu jihat esa har bir talabaga individual yondoshuvni taqozo etadi. Ana shu individual yondoshuvlarni misol tariqasida qog‘ozga tushirish, o‘quv jarayonidagi ba‘zi jihatlarni xotirlash, ijodiy topilmalarni muhrlash, ularni iloji boricha yaxlit bir tizimga solishga urinish teatr san‘ati haqidagi ilmiy salohiyatni muttasil oshib borishiga turtki berishi mumkin. Bu jarayonda, ya‘ni talabani xarakteridan, dunyoqarashidan, bilim saviyasidan kelib chiqib ijodiy muloqotga kirishish, uning o‘zligini topib olishida ko‘maklashish, uni to‘g‘ri yo‘naltirishda yillar davomida orttirilgan pedagogik, shaxsiy tajriba katta ahamiyatga ega. “Ijod – bu ko‘ngilning xohishi, lahzada kechadigan jarayon bo‘lib, albatta irodaning g‘alabasi bilan amalga oshadi. U har kuni yangilanib, sayqallanib turadi. Agar biz bir necha yil oldin aytgan fikrlarimizni aynan takrorlash bilan chegaralanib qolsak, unga bir misol bo‘lsa ham yangilik kiritib turmasak, demak bir joyda qotib qolgan bo‘lamiz. O‘shish, rivojlanish, oldinga intilish bo‘lmaydi...” [2]

Aslida haqiqiy ijod mahsuli chaqmoq kabi yarq etib namoyon bo‘ladi. Uning qanday

paydo bo'lganini, atrofdagilarga qaysi payt va qanday ta'sir etganini, etni qanday junbushga keltirganini muhrlash juda qiyin. Talaba-aktyor bilan ishlayotgan o'qituvchiga esa ana shu shirin lahzalarni his etish baxti muyassar bo'ladi. Xuddi birinchi qadamni qo'ygan farzandining harakatidan zavqlangan ota-ona kabi. Aktyorlik mahoratidan saboq beruvchi pedagog ham shogirdining yilt etgan yutug'idan, hayotiy haqiqatni sahnaviy haqiqatga, sahnaviy haqiqatni badiiy haqiqatga aylantira olish, ijod qila olish qobiliyatidan zavqlana olishi, unga dalda bo'lishi, kerak paytda ruhlantira olishi kerak. To'liq shakllangan, ilg'or fikrlaydigan, zamon va makondagi har bir o'zgarishni his eta oladigan, ruhiy va jismoniy ter to'ka bilish qobiliyatiga ega ijodkor shaxsni tarbiyalash pedagogdan talabadagi juda kichik va nozik o'zgarishlarni ham ilg'ay olish qobiliyatini talab etadi. Boshqacha qilib aytganda, pedagog-rejissyorda "o'tkir ko'z" bo'lishi kerak. Shundagina u bo'lajak aktyordagi boshqa birovlar ko'rmaydigan jihatlarni ko'rishi, boshqalar sezmaydigan nozik jihatlarni sezishi mumkin. Agar talaba to'g'ri ishlayotgan bo'lsa, bu jarayonni yanada chuqurlashtiradi, xato qilayotgan bo'lsa vaqtida to'xtatadi va to'g'ri yo'ldan borishi uchun unga ko'mak bera oladi.

Har bir talaba ijtimoiy hayotda kimningdir dilbandi. Ota-ona pedagoglarga o'z farzandini ishonib topshiradi. Ammo uni ehtiyotkorlik bilan tarbiyalash, egib-sindirib qo'ymaslik pedagogning zimmasidagi katta mas'uliyat. Aytaylik, 10-12 yoshli bolaga oltmish kilo yukni ko'tarishni tavsiya qila olmaysiz. Bola bu jarayonda mayib bo'lib qolishi mumkin. Ijodkor tarbiyasida ham unga vaqtdan oldin ko'p yuk tashlash kasbiy majruhlikni keltirib chiqaradi. Nega endi bu haqda fikr yurityapmiz? Chunki ba'zan shunday hollar bo'ladiki, o'qituvchi shoshmashosharlik qilib, talabaga ortiqcha yuk tashlab yuboradi. Vaqtdan yutib, tezda natijaga erishmoqchi bo'ladi. Hali talaba to'g'ri bajara olmaydigan vazifalarni talab qilish hollari sodir bo'ladi. Buni aktyorlik mahorati fani o'qituvchilari tili bilan aytganda "pedalni bosish" yoki "forsirovaniye"- "zabt etish" deb ataladi. Aktyorlik mahorati pedagogikasida bunday yo'l tutish mutlaqo mumkin emas. Masalan,

endigina mashqlar va uncha murakkab bo'lmagan etyudlar jarayonidan o'tib, kichik o'quv sahnasida muallif asarlari bilan to'qnashgan boladan o'ziga xos xarakterli rolni talab qilish shart emas. Hamma bola har xil. Iqtidorli talaba o'z-o'zidan, tabiiy ravishda xarakterlilikka intilib qolishi mumkin. Faqat uning ijrosi "yuzaki o'yin"ga aylanib qolmasligi kerak. Buni pedagog o'z vaqtida ilg'ay va farqlay olishi, kerak bo'lsa uni to'xtata bilishi lozim. Bularning barchasi aktyorlik mahoratidan saboq beruvchi o'qituvchining zimmasida bo'lgan jiddiy mas'uliyatdir.

Ayniqsa, yuqorida aytganimizdek, kuylovchi, tabiiy ovozni turli noxushliklardan asrash, tibbiy gigiyenaga talaba diqqatini ko'proq jalb etish mas'uliyati pedagogdan yanada hushyorlikni talab etadi. "Turli sohalarida ishlaydigan kishilar uchun ham tovush a'zolari anatomiyasi, tovush hosil bo'lishi, gigiyenasi kabilar haqidagi oddiy va qisqa ma'lumotlar nihoyatda zarurdir. Ammo tovush a'zolari bilan ishlash uchun o'ziga xos "alifbo" kerak..." [3.4] Bu judayam o'rinli fikr. Tibbiy gigiyena hamma sohada ham zarur. Ammo kuylovchi aktyorning ovoz apparati uning asosiy ish quroli bo'lganligi uchun bunga alohida parvarish, e'tibor berish kerak bo'ladi. Chunki, insonning ovoz apparati juda nozik tuzilmalardan iborat va ularning ortiqcha yuk tufayli tez kasallanib qolish xavfi yuqori bo'ladi. Masalan, biror musiqiy parcha ustida ish olib borilayotgan paytda ariya yoki duet ijro etayotgan talaba ish jarayonining uzoq davom etishi natijasida charchashi yoki zo'riqishi mumkin. Bu zo'riqish ovoz paychalariga, bodomsimon bezlarga salbiy ta'sir qiladi. Talaba bo'lsa o'qituvchida o'ziga nisbatan yomon taassurot qoldirmaslikka tirishib, qiynalayotganligini aytmaydi. Repetitsiya paytida tomoqning qichishishiga ham e'tibor bermaydi. Yoki auditoriyadagi tozalikka yetarli e'tibor bermaslik hollari ham ovoz apparatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Ba'zan talabalar tanaffus paytida pedagog nazoratisiz fortepiano chalib qo'shiq kuylayotganining guvohi bo'lamiz. Ular ovoz imkoniyatlarini hisobga olmay, avj pardalarga chiqmoqchi bo'ladi. O'zini o'zi qiyin ahvolga solib qo'yayotganini sezishmaydi. Yana bir misol,

talaba shamollagan paytda yoki tomog'i kasallangan vaqtlarda ham kuylamoqchi bo'ladi. Bu aslo mumkin emas. Bunday hollarga yo'l qo'yilsa talabaning ovozi birato'la kasallanib qolishi yoki kuylash imkoniyatidan butunlay mahrum bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham aktyorlik mahorati o'qituvchisi xuddi vokal o'qituvchilari singari ovoz gigiyenasi va tibbiy muolajalardan xabardor bo'lishi, talabalarga bu borada ma'lum bir tushunchalarni berib borishi, xastalangan ovozga birinchi tibbiy yordam- ovozga dam berish va mutaxassis foniatorga borishni maslahat berishi lozim bo'ladi. Bu ham kuylovchi aktyor tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi ustoz-pedagogning zimmasidagi mas'uliyatli vazifalardan biridir. Musiqali teatrning ijrochilik tarixiga murojaat qiladigan bo'lsak, turli ijro uslublari va usullari, ustoz san'atkorlarning ijro yo'llari, yutuq va muammolari, bu muammolarni hal qilish uchun turlicha urinishlar bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Musiqali teatr aktyorligi mahoratini egallash ishtiyoqida oliy ta'lim dargohiga o'qishga kelgan talabalarni tarbiyalashda ana shu boy tarixiy tajribaga tayanib ish ko'rishga harakat qilish lozim. Chunki, musiqiy spektaklda ariya va duetlar ijrosi ovozdagi o'ziga xos nolakorlikni, dardni talab etadi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Ashurali Jo'rayev bu haqda shunday deydi: "Nola aslida yurakda tug'ilib, yurakda voyaga yetadi. Nolaning eng nozik ildizlari ham yurakda uyg'onadi... Haqiqiy nola yuraklarda alangaga aylanadi." [4.3] Bunday nolakor, tinglovchini befarq qoldirmaydigan ovozni tarbiyalash oson ish emas. Bu yerda asosiy qurol-ovoz apparati va insonning barcha tana a'zolaridir. Operatsiya stoli yoniga kelgan xirurg biror joyda ham xatoga yo'l qo'yishga haqqi bo'lmaganidek, talaba bilan ovoz ustida, bo'lajak san'atkorning ish quroli ustida ishlayotgan pedagog ham xato qilishga haqqi yo'q. Ijrochining sekin-asta oyoqqa turib borishini, ovoz apparatini urintirmasdan avaylab tarbiyalashni ta'minlash o'qituvchining birinchi navbatdagi vazifasiga kiradi. Bo'lajak musiqali teatr aktyori bilan ishlash jarayonida ularning musiqiy tarbiyasi, iqtidorining o'sishiga e'tibor berish

barobarida, har bir talabaga odam anatomiyasi hamda nafas olish, chiqarish, ariya va duet kuylash paytida inson tanasida ro'y beradigan fiziologik o'zgarishlar haqida individual tushunchalar berib borish maqsadga muvofiqdir. Tovush madaniyati, ovoz gigiyenasi haqida eng oddiy tushunchalarning uqtirib borilishi talabaning to'g'ri shakllanishini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Ovoz gigiyenasi va tovush madaniyati haqida eng oddiy tushunchalarga ega bo'lish uchun talaba ovoz apparati nimalardan tashkil topganligini bilib qo'yishi foydadan xoli emas. Bu haqda qator mutaxassislar va pedagoglar o'z ilmiy ishlarida ko'plab ko'rsatmalar berib o'tishgan. Shunday mutaxassis-pedagoglardan biri Sh.Pirmatov "Vokal texnikasi asoslari" kitobida ovoz apparati nimalardan tashkil topganligini va ular qay sharoit va ko'rinishlarda ishga yaroqsiz bo'lib qolishi mumkinligini quyidagicha tushuntiradi: "Bodomsimon bez. Katta bodomsimon bezlar yumshoq tebratkichlarning ayrim qismlari harakatini qiyinlashtiradi, bu to'g'ri talaffuzga xalaqit beradi. Kasallangan bodomsimon bez tomoq, traxeyani tez-tez og'rib qolishiga olib keladi." [5.52] Muallif shu o'rinda tez-tez uchrab turadigan holatga ham alohida e'tibor qaratib: "Adenoid o'simtalar. Dimog'dagi adenoid o'simtalar burunning doimiy bitib qolishiga olib keladi, shuningdek, suyuqlik ajratib, pastki nafas yo'llarining kasallanishiga olib keladi, ovoz esa ping'illab qoladi..." [6.52] - deya ovoz apparatining eng nozik jihatiga e'tibor qaratadi.

Kuylovchi aktyorning ovoz apparatini beshikast shakllanishida hatto tishlarning ham o'z o'rnini borligiga diqqatni qaratib, muallif o'z fikrini quyidagicha davom ettiradi: "Tishlar. Kasal tishlar bodomsimon bezlarni ham kasallantiradi, xalqum shilliq pardasiga salbiy ta'sir ko'rsatib, bu ovozning buzilishiga olib keladi." [7.69]

Ovoz a'zolari bilan ish ko'ruvchi shaxslar uchun yana bir eng muhim jihat-bu yaxshi eshitish va sog'lom ovoz a'zolaridir. Hech bir kishi ovoz egasichalik apparatdagi juda nozik o'zgarishlarni tezda payqay olmaydi. Bunday holdan mutaxassis-o'qituvchini o'z vaqtida ogohlantirish, ovoz apparati va kuylovchi aktyor bilan ishlovchi foniator nazoratidan

o‘tish uchun talaba ovoz gigiyenasi va tovush madaniyati haqidagi eng oddiy tushunchalarga ega bo‘lishi kerak. Va shu bilan birga har bir san‘at oliygohida ovoz apparati, qo‘shiqchi, kuylovchi aktyor bilan ishlaydigan, ularni doimiy nazorat qilib turadigan maxsus mutaxassis-foniator bo‘lishi lozim.

Yuqorida aytib o‘tilgan talablardan tashqari pedagog zimmasiga yana bir mas‘uliyatli vazifa yuklanadi. Ya‘ni, har bir talabaga uning imkoniyatidan kelib chiqib repertuar tanlash lozim. Chunki talabaning ovoz imkoniyatidan yuqori darajadagi asar ijrosiga intilish uning ovoz apparatiga salbiy ta‘sir qilishi va oxir oqibat talaba kuylovchi ovoz imkoniyatidan mahrum bo‘lib qolishi ham mumkin. Bularning barchasi o‘sayotgan, yosh ovoz egalari uchun judayam muhimdir. Kasb kasalliklarining oldini olish, unga yordam beruvchi gigiyenik qoida va usullar, kuylovchi aktyorlarda ko‘p tarqalgan kasalliklar va oddiy tibbiy ma‘lumotlar haqida so‘z yuritib, quyidagilarni ham xulosa o‘rnida keltirish mumkin: Haqiqiy kasbiy ovoz hosil bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan sharoitlar *birinchidan*, ruhiy va axloqiy sharoit.

Sog‘lom, meyoridagi ijodiy ish uchun, eng avvalo, meyoridagi osoyishta ruhiy muhit zarur bo‘ladi, bu esa o‘z o‘rnida asabbuzarlikning oldini oladi. Chunki asabbuzarlik tufayli ovozga putur yetadi. Muloqot madaniyati- bu sog‘liqni asrashning bosh shartidir.

*Ikkinchidan*, pedagoglarning fiziologiya va gigiyena sohalarida yetarli bilimga egaligi. Mutaxassis-o‘qituvchi har qanday ovozning tabiati va xususiyati, uning fiziologik imkoniyatlarini bilishga jiddiy e‘tibor berishi kerak.

*Uchinchidan*, talaba kasal bo‘lganda nafaqat qo‘shiq aytish, hatto repetitsiyada ishtirok etish ham tavsiya etilmaydi. Bunday paytda tana va ovoz apparatlarini zo‘riqishdan asrash kerak. Aks holda uni ishdan chiqarib qo‘yish mumkin. Betoblangan ovozga birinchi tibbiy yordam-bu ovozga dam berishdir. Ariya kuylash yoki eshitish u yoqda tursin, hatto gaplashish ham mumkin emas. Ana shu tavsiyalar va talablarga amal qilinsagina Yaratgan bergan ovozni o‘stirish, sayqallash, rivojlantirish va nihoyat uni tinglovchiga go‘zal ijrolar orqali tortiq qilish mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Джоржо Стрелер. Театр для людей. Радуга, Москва 1984 й. 5-бет
2. А.И.Кацман. Психология творчества. Сборник докладов, ЛГИТМиК. 1989 й
3. SH.Pirmatov “Vokal texnikasi asoslari”. Toshkent. “Musiqqa” nashriyoti. 2011
4. Yarbekov E. (2024). Sahna nazariyasi. *Oriental Art and Culture*, 5(5), 584-590.
5. Rasulov U. (2024). Musiqali dramada dramaturg, bastakor va rejissyor ijodiy hamkorligi: ular ijodida mavzu va janrning mutanosibli masalasi. *Oriental Art and Culture*, 5(5), 572-577.

**REZYUME.** Ushbu maqolada musiqali teatr san‘atida kuylovchi aktyorni tarbiyalash masalasi, o‘ziga xos yondoshuvlar va uning muhim jihatlari haqida so‘z boradi.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье рассматривается вопрос воспитания певческого актера в музыкальном театре, конкретные подходы и их важные аспекты.

**SUMMARY.** This article discusses the issue of educating a musical actor in musical theater, individual approaches and their important aspects.

## XALÍQ DIDAKTIKALÍQ QOSÍQLARÍ TIYKARÍNDÁ JASLARǴA TÁLIM-TÁRBIYA BERIW

**Qalbaev Aleuatdin – oqıtıwshı**

*Ózbekstan mámleketlik kórkem óner hám mádeniyat institutı Nókis filiali*

**Tayanch so‘zlar:** xalq didaktikasi, yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlar, o‘gıt-nasihát, komil inson, xalq pedagogikasi.

**Ключевые слова:** народная дидактика, воспитание молодежи, национальные ценности, наставление, поучение, совершенный человек, народная.

**Key words:** folk didactics, youth education, national values, exhortation, moral teaching, perfect human, folk pedagogy.

Qaraqalpaq xalqınıń milliy namalarına, milliy usılına salıp atqarılatuǵın kóplegen tárbiyalıq ahmiyetke iye aqıl-nasiyat qosıqlar, terme-tolǵawlar, dástanlarımız bar. Bul qosıqlar terme-tolǵawlardıń ayırım qatarları, xalqımızdıń naqıllar ornında paydalanıp aytıp kiyatır. Xalıqtıń jaqsı turmısqa alıp shıǵatuǵın erlikke iskerlik penen mártlikke, doslıqqa shaqırıwshıda aqıl-nasiyat qosıqlar. Tálim tárbiyalıq ahmiyetke názer salsaq, qosıqlardıń ótmishten usı dáwirge namaları menen xalıq awzında saqlanıp keliwinde. "Xalıqtı tárezi"-dep biykarǵa ayılmasa kerek. Tek ǵana paydalı, el iyilgine durıs juwap beretuǵın, insan sanasına irkinishsiz qásiyetliligi menen jetip baratuǵın páziyetli nárselerdi xalıq qabil alıp hám udayı saqlaydı. Aqıl-nasiyat qosıqlar jaslarımız tarbiyasına tereń tásir etedi. Bul násiyat sózlerdiń tiykarǵı orayı xalıq bolıp esaplanadı. Bulay dewimniń sebebi naqılda-aqılda xalıq múlki desem aljaspaǵan bolarman. Xalıqtıń otmishinen kelip shıqqan halda naqıl-aqıl sózler, násiyatlar payda boladı. Shayırlarımız xalıq danıshpanlıǵına súyengen halda qosıqlar dóretdi-dep oylayman. Násiyat qosıqlar jazıp, turmıstı súwretlegen, elin maqtanış etken, xalqımızdıń maqtanıştı Berdaq, Ajiniyaz, Kunxoja, Ótesh h.t.b. kóplegen Shayırları bar. Bul Shayırlarımızdıń násiyat qosıqları qaraqalpaq xalıq namaları menen suwǵarılıp, xalqımız arasında baqsılar, jırawlar tarepinen aytıp kiyatır. Milliy muzıkamızdıń qúdretililigi sonda, Shayır qosıqlarında nama menen xalıqtıń júregine tez jetkeriwinde. Eger namasız ayılса yamasa oqılса, onda da tıńlanıp xalıq ráhátlenedi, al nama sol shıǵarılǵan qosıqqa egizdiń sińarınday bolıp

jantassa. Bul usılda Shayırlar qosıqları uzaq saqlanıp ham tez taraladı. Tıńlawshılar ráhátlenip sozine hám namasına itibar berip tıńlaydı hám qanday da násiyat qosıqlardan úlgi aladı. Máselen Berdaq Baqsınıń "Xalıq ushıń" qosıǵında.

Jigit bolsań, arıslanday tuwılǵan,

Xızmet etkil udayına xalıq ushın,

Jigit bolsań arıslanday tuwılǵan

Hesh qashanda jumıs etpes ózi ushın.

Sondaylar xızmet eter xalıq ushın-dep keltiredi. Bul jerde Berdaq shayır adamnıń maqseti haqqında sóz etedi, adam bilimli bolıp xalıqqa xızmet etiw kerekligin násiyatlaydı. Bul qosıqtı házirgi dáwirimizdiń qaraqalpaq xalıq naması "xoja baǵman" namasına salınıp baqsılarımız aytıp kiyatır. Tiykarında Berdaq Shayır bolıp ǵana qoymastan baqsı da bolǵanlıǵın tariyx ayqın aytıp bere aladı. Shayır qosıqların xalıq namalarına salıp ózi atqarǵanlıǵı hesh kimse biykarlay almaydı. Berdaq Baqsınıń násiyat qosıqlarınan "Jaqsıraq", "Balam", "Búlbil", "Maǵan ber" ham batırılıqqa tárbiyalawshı "Amangeldi", "Ernazar biy", "Aqmaq patsha" iri kólemlı shıǵarmaları jaslarǵa sabaq bola aladı. Máselen: Jaqsıraq qosıǵında.

Jumıs isle tuwılǵan soń el ushın,

Janıńdı ayama elde er ushın,

Kindikten qan tamǵan tuwǵan jer ushın,

Ólip ketkenshe xızmet jaqsıraq- dep keltiredi. Bul qosıǵında belgili bir kásipti iyelep Ana Watan xalıq ushın xızmet etiw kerekligin násiyatlap, aqıl beredi. Xalıq arasında qaraqalpaqtıń "Dardinneń" naması menen aytıp kiyatırǵan. Bul namada tıńlawshını erksiz ózine tartadı, oylandıradı, aqıllandıradı. Aqıl-násiyat qosıqlar danalıqlardan jaslardıń oy-órisin hadal pák

insanlyqlarğa sanalı etip tárbiyalawğa tiykar bola aladı, Ajiniyaz Shayırımızdın "Bolmasa" qosıǵına názer taslasaǵ.

"Yaranlar bir sózdi aytayın sizge  
Jigit giza bilmes yoshi bolmasa  
Aqıl bolsan pahim ayle bul sózge  
Nege gezsın kewil xoshi bolmasa"

Shayır bul násiyat qosıǵında ómirge qádem qoyıp, "turmıs"-dep atalmısh dárbentke túser hár bir insaǵa tiyisli, desem aljaspaǵan bolamız. Sonıda aytıp ótiwimiz kerek, bul qosıq qatarları túrkmen Shayırı Maqtumqulıǵa da tiyisli. Azǵana ózgesheligi bar. Bizin ádebiyat tariyxlarımız Ajiniyaz Shayırdı óz zamanınıń dilmashı dep te túsindirgen. Bul túsinińten basqa da sır bolıwı múmkin.

Maqtumqulınıń qosıǵın qaraqalpaqshaǵa awdarǵanda da sońında Ajiniyaz óziniń atın keltirmegen bolar edi. Bul eki qosıq eki Shayır toplamlarında da bar. Ajiniyazdın elin tariyplegen "Ellerim bardı" qosıǵında xalqımızdın tábiyatın, baylıǵın, dástúrlerin maqtanış etken. Bul qosıqtın tárbiyalıǵı sonda hár kim ózi jasap turǵan ana watanın, milliy dástúrin biliwi kerekligin maqtanış etip báhá ulıǵlaw kerekligin aytıp turganday seziledi. Bul qosıq "Gór qız" namasına salınıp aytilip kiyatırǵan. Nama esitilwden hámmeni ózine birden tarta aladı hám tınlawǵa insandı erksiz boysındıradı. Joqarıda sóz etip ótken túrkmen Shayırı Maqtumqulı qosıqları baqsılarımız repertuarınan júdi keń orın alǵan. Maqtumqulı Shayır qosıqların namaǵa salıp, ózbeklerde, qaraqalpaqlarda aytıp kiyatır. Shayır qosıqları derlik aqıl-násiyat. Qaysı xalıq óz tiline awdarıp alsada milliy namalarına salıp atqarıp atqarganlıǵı hámmege belgili. Maselen "Sáwdigim" namasına salınıp baqsılar tárepinen atqarılıp kiyatırǵan "Ayler" qosıǵında...

Aqıl bolsań yaqshı bilan hamdam bol  
Aqmaq ózin nadan menen yar ayler  
Shın ashıqlar nazlı yardın jamalın  
Keshe kúndiz bir kórsem-dep zar ayler-dep keltiredi. Qosıqtın mazmunı, turmısı menen násiyat ekenligi, ol sózlerdi janı bar túri nársedey muzikanın jariyalawı, álbette hár bir tınlawshını ózine qaratadı. Jáne "Begler" namasına salınıp atqarılıp kiyatırǵan "Ton bolsa" degen qosıǵında.

Tan jappaǵa kóylek izler jalanış

Kóylek tapsa aytar endi ton bolsa.  
Haqtan bes pul tilep júrgen qarnı ash.  
Besin tapsa aytar endi on bolsa.

Bul násiyatında insanlardın qanaatshıl bolıwına, manlay terletip hadal miynet islep, ráhátin kóriwge shaqıradı. Maqtumqulı násiyat qosıqlarınan "Miymandur", "Seni", "Ne bilsin", "Bolmas", "Ishinde" h.t.b. qosıqların misal etip keltiriwge boladı. Bul qosıqlar qaraqalpaq tiline awdarılıp xalıq namalarına salınıp baqsılar tárepinen aytilip kiyatır. Maqtumqulınıń násiyat-aqıl qosıqların tınlamaytuǵın adamnıń ózi joq bolsa kerek menińshe. Kópshilikke belgili Kúnxoja Baqsınıń qosıqlarında insan tárbiyasına tásirli "El menen" qosıǵında.

Aspaǵa usharsań bolsa qanatın.  
Shad bolarsań shadlı bolsa elatın  
Xalqın menen bolsa maqset muradın  
Udayına birge bolsań el menen.

Bul namanı "Jeti ásirım" namasına salıp baqsılar aytıp kiyatır. Qosıqtın mazmunında el menen báhá birlikte bolıwǵa, watandı asırap onı mángi súyiwge, el menen oylasıqlı bolıwǵa násiyatlaydı. Bunnan basqa "Bes perde" namasına salınıp atqarılıp kiyatırǵan "Nege kerek" qosıǵında.

Sayraǵan búlbil bolmasa.  
Ishi hawazǵa tolmasa.

Waqtında jaynap turmasa-dep jazadı.

Bul qosıqta xalıq qosıǵı, xalıq namasına aylanıp ketkendey. Elimizde kópshilik derlik bileđi. Bul násiyat qosıqlardı kópshiliktiń arasınan jetilisip sol zaman menen de, xalıq penen de birge jasaǵan ullı insanlarımızdın, keleshek áwladqa aytıp ketken násiyatları dep bilemiz. Bunday baqsıshılıq jollarındaǵı násiyat qosıqlar, jıraw tolgawlarında, termelerde de aytiladı. Násiyat qosıqlardıń hár bir pikiri, túsiniǵi menen aqıllı, hár qaysısı óz aldına teńi tayı joq bir dúnya dese aljaspaǵan bolarman. Máselen tolgaw: Bul uzaq ásirlerden beri kiyatırǵan xalıqtın milliy miyrası. Tolgaw dep bir qatar juplasqan uyqasqa aforizmlerden yamasa naqıl maqallardan quralǵan qısqa jırlardı aytadı. Tolgawlardın mazmunına túrlerine qaraganda eki turli boladı. Birinshisi naqıl-maqallardıń tiykarında ósip shıqqan úgit-násiyat bildiretuǵın qısqa jırlar. Bunnan shıǵısı naqıl-maqallar menen baylanıslı hám solardıń jıyınıǵınan bolǵanlıqtan terme deydi.

### Paydalanılğan ádebiyatlar

1. Т.Адамбаева. «Қарақалпақ музыкасының тарийхынан» 1985ж. Адамбаева Т. Автор дала жазыўынан 1960, ЎзССР ИАККФ китапхана фондында инв. 34329.
2. Қ.Айымбетов. «Халық даналығы». «Қарақалпақстан» баспасы. Нөкис-1988.
3. Berdaq. Tañlamalı shıǵarmaları. Qaraqalpaqstan.1977-jil 40-bet.
4. Д.Алланазаров. «Қарақалпақ миллий аламойнақ дуўтар сазендешилиги сабақлығы». Болалар мусиқа мактаблари учун 1-2-3-4-5-синфлар. Тошкент. «Ғафур Ғулом атындағы баспа-полиграфиялық дөретиўшилиқ уйи» 2013 й.
5. D.Allanazarov., A.Doxodbaeva. Genjebay Tilewmuratovtń qaraqalpaq milliy muzikasına qosqan úlesi NMPI pitkeriw qánigelik jumısı-2019 jil.

**РЕЗЮМЕ.** Ushbu maqolada xalq didaktik qo‘shiqlarining yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Xalq og‘zaki ijodining ushbu janri yoshlarni vatanparvarlik, insonparvarlik va yuksak odob-axloq ruhida tarbiyalashda muhim pedagogik vosita bo‘lib xizmat qilishi tahlil qilingan. Tadqiqotda xalq donishmandligi namunasi bo‘lgan o‘git va nasihatlarining barkamol shaxsni shakllantirishdagi hayotiy tajribasi umumlashtirilgan.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье рассматривается роль и значение народных дидактических песен в воспитании молодого поколения. Анализируется данный жанр фольклора как важное педагогическое средство формирования у молодежи патриотизма, гуманизма и высоких морально-этических качеств. В исследовании обобщается жизненный опыт народной мудрости, заключенной в наставлениях и поучениях, необходимых для формирования гармонично развитой личности.

**SUMMARY.** This article examines the role and significance of folk didactic songs in the education and upbringing of the younger generation. This genre of folklore is analyzed as an essential pedagogical tool for fostering patriotism, humanism, and high moral and ethical qualities in youth. The study summarizes the practical experience of folk wisdom contained in exhortations and moral teachings necessary for the formation of a harmoniously developed personality.

### QORAQALPAQ DOSTONCHILIK SAN’ATI: TARIXIY ILDIZLAR, IJRO XUSUSIYATLARI VA O‘QITISH METODIKASI

L.Maxamadinova – dotsent

G.Oteshova – asisstent o‘qituvchi

*O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali*

**Tayanch so‘zlar:** qoraqalpaq folklori, dostonchilik san’ati, jirov, baqsi, so‘z va kuy sintezi, dutar ijrochiligi, ala moynaq, zarb turlari, musiqa pedagogikasi, ustoz-shogird an’anasi.

**Ключевые слова:** каракалпакский фольклор, искусство сказительства, жырау, баксы, синтез слова и мелодии, исполнительство на дутаре, ала мойнак, виды ударов, музыкальная педагогика, традиция наставник-ученик.

**Key words:** karakalpak folklore, epic art (dastan), jirov, bakhshi, synthesis of word and melody, dutar performance, ala moynaq, rhythmic strokes (zarb), music pedagogy, master-apprentice tradition.

Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi orasida xalq dostonchiligi alohida o‘rin tutadi. Bu san’at turi nafaqat o‘tmish voqealarini badiiy aks ettiruvchi tarixiy manba, balki xalqning dunyoqarashi, falsafasi va estetik didini shakllantiruvchi qudratli vositadir. Markaziy Osiyo, xususan, qoraqalpaq xalq

og‘zaki ijodida dostonchilik an‘analari asrlar davomida sayqallanib, o‘ziga xos ijro maktablarini yaratgan. Bugungi globallashuv jarayonida, axborot texnologiyalari rivojlangan bir davrda, ushbu qadimiy san’atning "tirik" ijrosini saqlab qolish va uni yangi avlodga yetkazish masalasi dolzarb

ahamiyat kasb etmoqda. Qoraqalpaq dostonchiligi - bu shunchaki matnni yodlash yoki kuyni chalish emas. U soʻz (poeziya), musiqa (kuy-ritm) va ijro (teatr elementlari) uygʻunligidan iborat boʻlgan murakkab sinkretik hodisadir. Jirov va baqsi ijrosidagi dostonlar tinglovchiga bir vaqtning oʻzida ham adabiy zavq, ham musiqiy taʼsir, ham dramatik kechinmalarni hadya etadi. Shu bois, bu sanʼatni tadqiq etishda faqat adabiyotshunoslik yoki faqat musiqashunoslik doirasida cheklanib qolish yetarli emas.

Oʻzbekiston mustaqillikka erishgach, milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish davlat siyosati darajasiga koʻtarildi. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining madaniyat va sanʼat sohasini rivojlantirishga oid qarorlari asosida dostonchilik sanʼatini oʻqitish tizimi tubdan isloh qilindi. Endilikda ushbu yoʻnalish maxsus musiqa va sanʼat maktablaridan tortib, oliy taʼlim muassasalarigacha boʻlgan bosqichlarda ilmiy asosda oʻqitilmoqda. Bu jarayonda malakali pedagoglar va mukammal oʻquv qoʻllanmalariga boʻlgan ehtiyoj har qachongidan ham ortdi. Oʻzbekiston davlat konservatoriyasi professori, dostonchilik ilmining yetuk namoyandasi Botir Matyaqubov oʻzining fundamental tadqiqotida taʼlim jarayonidagi uslubiy yondashuvlarning ahamiyatini alohida taʼkidlaydi. Olimning fikricha: «Ushbu darslik musiqiy oliy oʻquv yurtlari bakalavr bosqichining Doston ijrochiligi mutaxassisligi uslubiyati fanidan. boʻlajak mutaxassislarni tayyorlashda muhim manba boʻlib xizmat qiladi» [1,2b]. Bu fikr shundan dalolat beradiki, anʼanaviy "ustoz-shogird" maktabini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan boyitish - bugungi kun talabidir. Biroq, fanda doston matnlari (folklor) va musiqa tarixi alohida-alohida oʻrganilgan boʻlsa da, ularning yaxlit sahnada qanday namoyon boʻlishi, yaʼni folkloridan professional ijrochilikka oʻtish jarayoni yaxlit tadqiqot obyekti sifatida kam oʻrganilgan. Xalq ogʻzaki ijodidagi erkinlik professional sahnaning qatʼiy talablari (nota, ritm, vaqt meʼyori) bilan qanday uygʻunlashadi? Soʻzning musiqiy ritmga boʻysunishi jarayonida qanday oʻzgarishlar roʻy beradi? Ushbu maqolaning asosiy maqsadi -

qoraqalpaq dostonchiligida soʻz, kuy va ijro sintezini ilmiy tahlil qilish hamda folkloridan professional sanʼatga oʻtishdagi transformatsiya jarayonlarini yoritib berishdan iborat. Shuningdek, maqolada dutar cholgʻusining ijrodagi oʻrni va zamonaviy oʻqitish metodikasidagi muammolar ham koʻrib chiqiladi.

*Dostonchilikning folklor-tarixiy asoslari: jirov va baqsi maktablari:* Qoraqalpaq dostonchiligi oʻzining janr xususiyatlari va ijro uslubiga koʻra ikki yirik maktabga boʻlinadi: jirovchilik va baqsichilik. Bu boʻlinish shunchaki ijrochining tanlovi emas, balki asrlar davomida shakllangan tarixiy-madaniy jarayon mahsulidir. Folklorshunos olim Qalli Ayimbetov oʻzining fundamental tadqiqotlarida taʼkidlaganidek, xalq ogʻzaki ijodi, xususan, dostonlar xalqning oʻtmishi, urf-odatlarini va orzu-umidlarini oʻzida jamlagan "tirik tarix" hisoblanadi. Olimning yozishicha: «Folklorida - oʻtmishdagi xalqning boshidan kechirgan hayoti uning turmushi, urf-odati, uning dunyoni bilishi soʻz etilib, xalqlarning oʻtmishda hayot tarzi haqida xabar berilib, tarix ilmiga, uning bir qismi boʻlgan etnografiya ilmiga ham boy maʼlumotlar beradi. Xalqlar tarixini oʻrganuvchi tarixchilar xalq ogʻzaki adabiyotini alohida baholab, unga tarixiy xalq nusxasi sifatida qaraydilar. Shuning uchun ham folklor xalq hayotining, xalqlar tarixining koʻzgusidir.» [2, 3-4b].

Dostonchilik sanʼatining professional sahnaga koʻchishida ushbu ikki yoʻnalishning farqini anglash muhimdir:

1. Jirovlar maktabi: Bu yoʻnalish asosan qahramonlik dostonlarini ("Qirq qiz", "Alpomish", "Maspatsha") ijro etishga ixtisoslashgan. Jirovlar oʻz ijrolarida qoʻbiz cholgʻusidan foydalanadilar va asarni qoʻbiz ovozida ijro etadilar.

2. Baqsi (Baxshi)lar maktabi: Ular koʻproq lirik-romanik dostonlarni ("Gʻarib oshiq", "Sayodimxon", "Yusup va Ahmad") kuylaydilar. Baqsilarning asosiy cholgʻusi - dutar hisoblanadi. Bu haqda adabiyotshunos olimlar Q.Jarimbetov va Q.Orazimbetovlar shunday yozadilar: «Qoraqalpaq folklorining eng salmoqli va keng tarqalgan janrlaridan biri – dostonlardir. Dostonlar mazmuniga koʻra qahramonlik va lirik-epik turlarga

bo'linadi. Qahramonlik dostonlari xalqning ozodlik, mustaqillik yo'lidagi kurashini aks ettirsa, lirik dostonlar sof muhabbat va insoniy tuyg'ularni tarannum etadi» [3,8b].

Folklordan professional ijrochilikka o'tish jarayonida aynan matn va cholg'u uyg'unligi masalasi birinchi o'ringa chiqadi. Agar jirovchilikda matnning ritmik tuzilishi qo'bizning sirli va nola qiluvchi tovushlariga moslashgan bo'lsa, baqichilikda dutarning mayin va betakror (nola, qochirim) imkoniyatlari so'zning lirik ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Demak, dostonchilik san'atining poydevori – bu xalq og'zaki ijodidagi janrlar rang-barangligi va ularga moslashgan cholg'u (qo'biz yoki dutar) tanlovidir. Zamonaviy ta'limda talabaga nafaqat kuyni o'rgatish, balki u ijro etayotgan dostonning qaysi maktabga (qahramonlik yoki lirik) mansubligini va uning tarixiy ildizlarini tushuntirish – pedagogik jarayonning ajralmas qismi bo'lishi shart.

*Ijro mahorati va cholg'u (dutar) o'rni: texnika va badiiy sintez:* Qoraqalpaq dostonchilik san'atida so'z va kuyning uyg'unlashuvi ijrochidan yuksak professionallikni talab etadi. Agar so'z dostonning "aqli" bo'lsa, musiqa uning "yuragi"dir. Bu jarayonda dutar cholg'usi shunchaki jo'rnovoz vazifasini o'tamaydi, balki dostonning dramaturgik rivojini belgilab beruvchi, qahramonlarning ruhiy holatini ochib beruvchi mustaqil "personaj" darajasiga ko'tariladi. Folklordan professional sahnaga o'tish jarayonida dutar ijrochiligi texnikasi, tovush hosil qilish usullari va badiiy imkoniyatlari tubdan takomillashib bormoqda.

1. Dutar cholg'usining evolyutsiyasi va "Ala moynaq" fenomen

Tadqiqotchi R.Allaniyazov o'zining ilmiy ishida dutar cholg'usining tarixiy ildizlariga to'xtalar ekan, uning qoraqalpaq musiqiy madaniyatidagi o'rnini alohida ta'kidlaydi. Xususan, «Musiqa cholg'usi tuzilishini, uni tayyorlash usullarini, sozlanishini, oddiylashtirish xususiyatlarini, akustik o'lchov bosqichlarini kompleks o'rganish, cholg'uning tonometrik, tembr, dinamik xususiyatlarini to'liq va har tomonlama tadqiq etish negizida cholg'u kuyini sinxron tahlil

qilish zamonaviy musiqashunoslik ilmining dolzarb masalasi bo'lib, maxsus sohani tashkil etadi. Ushbu masala yechimi esa, o'z navbatida, an'anaviy ijro prinsiplarini, janrlarning xilma-xilligini, musiqiy shakllarni o'rganish, ya'ni dutor san'atini tizimli - etnofonik usulda tadqiq etish zarurati sifatida alohida o'rin tutadi. Masalaning bu tarzda qo'yilishi nafaqat etnomusiqashunoslik, balki xalq cholg'u musiqasi haqidagi jahon fanining eng dolzarb masalalari bilan ham ajralmas bog'liqdir. Musiqa cholg'ularining struktural tuzilishi va tarixiy rivojlanish masalalariga maxsus e'tibor qaratgan olimlar G.Bokker, I.Machak, K.Vertkov, T.Vizgo, R.Galayskiy, P.Shistaliev, I.Tinuristining asarlari cholg'u musiqasining stilistik rolga diqqatlarini qaratgan.» [4,14b]. Professional ijrochilikda dutarning konstruktiv tuzilishi muhim ahamiyatga ega. Dastaning uzunligi, kosaxonaning hajmi va qopqoqning materiali tovushning rezonansiga (aks-sadosiga) bevosita ta'sir qiladi. R.Allaniyazov ta'kidlaganidek, dutar yasashda tut, o'rik kabi qattiq yog'ochlardan foydalanish va ularni maxsus ishlov berish orqali doston ijrosi uchun zarur bo'lgan "nolali" va "o'tkir" tovushlarga erishiladi. Bu esa katta auditoriya oldida mikrofonisiz kuylaganda ham (an'anaviy usulda) cholg'u ovozining tinglovchiga yetib borishini ta'minlaydi.

2. O'ng qo'l texnikasi: "Zarb" usullarining badiiy vazifasi

Doston ijrosida ritm – bu asarning "tomir urishi"dir. Ritmik tuzilmani saqlash va uni doston voqealariga mos ravishda o'zgartirib turish vazifasi dutarchining o'ng qo'l harakatlariga, ya'ni «zarb» mahoratiga yuklanadi. R.Allaniyazov o'z dissertatsiyasida dutar ijrochiligida qo'llaniladigan zarb turlarini ilmiy jihatdan tasniflaydi:

- Yakka zarb: Odatda dostonning kirish qismida yoki lirik chekinishlarda qo'llanilib, tinglovchini voqealar rivojiga tayyorlaydi. Bu usulda tovush aniq va ravshan eshitiladi.

- Qo'sh zarb va Terma zarb: Dostonning kulminatsion nuqtalarida, qahramonlik janglari yoki otlarning chopishi tasvirlangan o'rinlarda ishlatiladi. Bu zarblar musiqiy tempni (sur'atni) tezlashtirishga va tinglovchida hayajon uyg'otishga xizmat qiladi.

- Rez (titratma) usuli: Eng murakkab texnikalardan biri bo'lib, u barmoqlarning tezkor va uzluksiz harakati orqali hosil qilinadi. Rez usuli ko'pincha qahramonning ichki kechinmalari, fojaviy holatlari yoki tabiat manzaralarini tasvirlashda qo'llaniladi.

Manbada keltirilishicha: «Har bir zarb turi dostonning matniga qarab tanlanadi. Masalan, "G'arib oshiq" dostonida lirik va mayin zarblar ustunlik qilsa, "Qirq qiz" dostonida keskin va shiddatli zarblardan foydalaniladi» [4,33-34b]. Demak, professional dostonchi nafaqat kuyni bilishi, balki o'ng qo'l texnikasi orqali asarning dramaturgiyasini yarata olishi shart. 3. Chap qo'l texnikasi va pozitsiyalar (applikatura) masalasi

Professional ta'limda dutar ijrochiligining yana bir muhim jihati – bu chap qo'l barmoqlarining harakati va pozitsiyalar (parda bosish o'rinlari) masalasidir. R.Allaniyazov o'z ishida dutar dastasidagi pozitsiyalarning joylashuvini sxemalar orqali tahlil qiladi (I, II, III pozitsiyalar va h.k.).

Folklor ijrochiligida baxshilar ko'pincha eshitish qobiliyatiga (sezgiga) tayanib parda bosgan bo'lsalar, professional ta'limda aniq applikatura (qaysi parda qaysi barmoq bilan bosilishi) qoidalari o'rgatiladi. Bu nima uchun muhim?

- Birinchidan, toza intonatsiyaga erishish uchun. Doston kuyidagi mayda melizmlar (bezaklar, qochirimlar)ni aniq ijro etish uchun barmoqlar dastada to'g'ri joylashishi kerak.

- Ikkinchidan, tezlik va chaqqonlik uchun. Murakkab passajlarni ijro etganda, noto'g'ri qo'yilgan barmoq ijrochini "tutilib" qolishiga olib keladi. R.Allaniyazovning yozishicha: «Duwtar tenorda pozitsiyalarning joylashuvi (I-VII pozitsiyalar) va unda barmoqlarning almashinishi (1-2-4 barmoqlar kombinatsiyasi) ijrochinining texnik imkoniyatlarini kengaytiradi» [4,99b]. Bu ilmiy yondashuv shuni ko'rsatadiki, zamonaviy doston ijrochiligi – bu aniq hisob-kitob va mashaqqatli mehnatni talab qiladigan sohadir.

#### 4. Yakkanavozlik va jo'rnnavozlik sintezi

Maqola mavzusidan kelib chiqib aytish mumkinki, dutar doston ijrosida ikki xil funksiyani bajaradi: *Jo'rnnavozlik* (Accompaniment): Baxshi kuylayotgan

paytda uning ovozigga tayanch bo'ladi, tonalitni ushlab turadi va nafas olishi uchun pauzalarni to'ldiradi. *Yakkanavozlik* (Solo): Dostonning bo'limlari o'rtasidagi cholg'u kuylari (muqaddima, interlyudiya)da dutar yetakchi o'ringa chiqadi. Aynan shu qismlarda ijrochi o'zining bor mahoratini namoyish etadi.

Xulosa qilib aytganda, folklordan professional san'atga o'tish jarayonida dutar ijrochiligi sezilarli darajada murakkablashdi va boyidi. Endilikda talaba-yoshlardan nafaqat doston matnini yodlash, balki nota savodxonligi, ritmik aniqlik va yuksak instrumental texnika talab etiladi. R.Allaniyazovning tadqiqotlari shuni tasdiqlaydiki, dutar ijrochiligi bo'yicha maxsus mashqlar (etudlar, gammalar) va nazariy bilimlarni egallash – bugungi kun dostonchisining professional kamoloti uchun zaruriy shartdir.

*Doston ijrochiligini o'qitishning pedagogik masalalari: an'ana va zamonaviylik:* Dostonchilik san'atining kelajagi bevosita uning ta'lim tizimi bilan bog'liq. Tarixan bu jarayon «ustoz-shogird» maktabi asosida og'zaki shaklda rivojlanib kelgan bo'lsa, bugungi kunga kelib u ilmiy-nazariy asosda tizimlashtirilgan professional ta'lim shakliga o'tdi. Folklordan professional ijrochilikka o'tishdagi eng murakkab jarayon aynan mana shu "o'tish davri" pedagogikasida namoyon bo'ladi. Botir Matyaqubov o'zining darsligida dostonchilikni o'qitishning pedagogik tamoyillarini chuqur tahlil qilib, shunday yozadi: «Doston va uning nomalarini ijro qilish faqat o'sha yaratuvchi, baxshi-shoir fikru xayollarining talqini yoki badiyasi bo'libgina qolmasdan, uning o'ta murakkab jismoniy va ruhiy kechinmalardan iborat jarayondir. Ijro badiiy jihatdan yuksak bo'lishi uchun unda baxshining diqqati, sezgisi, idroki, tafakkuri, tasavvuri va emotsiyasi (histuyg'u va hayajon) hamda eng asosiysi ovoz ruhiyati faol ishtirok etishi zarur.» [1,11b]. Ushbu fikrni kengaytirib, zamonaviy dostonchilik pedagogikasidagi uchta asosiy yo'nalishni alohida ko'rsatib o'tish joiz:

1. Ovoz fiziologiyasi va nafas texnikasi An'anaviy maktabda shogird ustoziga taqlid qilish orqali ovozi sozlagan bo'lsa, zamonaviy oliy ta'limda talaba o'z ovoz

apparatining anatomiyasini tushunishi shart. Dostonchi (ayniqsa, jirov yo'nalishida) ko'krak va bo'g'iz rezonatorlaridan faol foydalanadi. B.Matyaqubov ta'kidlaganidek, «diafragmal nafas olish» ko'nikmasini shakllantirmay turib, uzoq hajmli dostonlarni ijro etish mumkin emas. Noto'g'ri qo'yilgan nafas ijrochining tez charchashiga va ovoz pardalarining zo'riqishiga olib keladi.

2. Matn ustida ishlash va xotira mashqlari Doston – bu minglab misralardan iborat epik asar. Uni yodlash va tinglovchiga yetkazishda pedagogik usullar muhim o'rin tutadi. Agar folklor namunalarida matn qisman improvizatsiya qilingan bo'lsa, professional ta'limda matnning badiiy yaxlitligi va so'zning ohangdorligiga qat'iy talablar qo'yiladi. Pedagog talabaga nafaqat so'zlarni yodlashni, balki har bir so'zning musiqiy urg'usini va hissiy yukini to'g'ri taqsimlashni o'rgatishi lozim.

3. Sahnada o'zini tutish va aktyorlik mahorati Dostonchi – bu "bir kishilik teatr"dir. U bir vaqtning o'zida ham muallif, ham bastakor, ham ijrochi, ham aktyor vazifasini bajaradi. B.Matyaqubov o'quv qo'llanmasida ijrochining sahnadagi psixologik holatiga alohida to'xtalib: «Dostonchining ovozi va ijrochilik faoliyati, jo'shqinligi, shiddati, his-hayajon va emotsiya bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u ijodkor tomonidan yaratilgan doston, terma va boshqa asardagi fikr va maqsadni undagi badiiy emotsional qiyofalar tizimini tinglovchiga yetkazib bera olishi zarur. Bunda baxshi doston kayfiyatiga mos, ovozig va o'ziga xos ravishda qizg'inlik, ifoda va joziba baxsh etgan holda kuylaydi. Doston hech qanday emotsiya va his-hayajonsiz aytilgan bo'lsa, tinglovchi yuragiga yetib bora olmaydi, uni befarq qoldiradi va tomoshabin ijrodan, baxshidan norozi bo'ladi. Shuning uchun baxshi har bir dostonning badiiy emotsional obrazlar mazmuniga chuqur kirib bora olishi, undagi qayg'urish, zorlanish, quvonish, tantana, hazil va boshqa kayfiyat turlarini ishonchli yoritib bera olishi kerak» [1,13], – deb ta'kidlaydi. Bu esa bo'lajak dostonchidan musiqa ilmidan tashqari, psixologiya va aktyorlik asoslarini ham egallashni talab

qiladi. Shunday qilib, doston ijrochiligini o'qitishda ikki xil yondashuv sintezi zarur: Birinchidan, xalq og'zaki ijodidagi erkinlik, badiha va milliy koloritni saqlab qolish (Folklor an'anasi). Ikkinchidan, nota savodxonligi, ovoz gigiyenasi va sahna madaniyatini shakllantirish (Akademik yondashuv). Faqatgina ushbu omillar uyg'unlashganda, biz haqiqiy professional – zamonaviy dostonchi kadri tarbiyalashga erishamiz.

Xulosa sifatida shuni takidlash kerakki qoraqalpaq dostonchiligi — xalq tafakkuri, musiqiy didi va ijrochilik mahoratining yuksak namunasi. Ushbu maqolada olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, dostonchilik san'atining folkloridan professional ijrochilikka o'tish jarayoni murakkab, ammo zaruriy transformatsiyadir. Bu jarayonda so'z, kuy va ijro sintezi yangi sifat bosqichiga ko'tariladi. Birinchidan, folklor va adabiy asoslar (jirov va baqsi yo'nalishlari) saqlanib qolgan holda, ular zamonaviy sahna talablariga moslashtirilmoqda. Matnning tarixiyliigi va badiiyliigi buzilmagan holda, uning tinglovchiga yetkazilish shakllari takomillashmoqda. Ikkinchidan, cholg'u ijrochiligi, xususan, dutar san'ati doston ijrosining ajralmas qismiga aylandi. "Ala moynaq" dutaridagi zarb va shtrixlarning mukammallashuvi dostonning drammatizmini kuchaytirib, uni shunchaki hikoya qilishdan musiqiy spektakl darajasiga olib chiqdi. Uchinchidan, pedagogik ta'lim tizimining yo'lga qo'yilishi bu san'atning kelajagini ta'minlovchi asosiy omildir. Ustoz-shogird an'alarining ilmiy metodika (ovoz fiziologiyasi, nota savodi, psixologiya) bilan boyitilishi raqobatbardosh kadrlar tayyorlash imkonini bermoqda.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy dostonchi – bu nafaqat merosni saqlovchi, balki uni rivojlantiruvchi ijodkordir. Soha oldida turgan asosiy vazifa – milliy o'zlikni yo'qotmagan holda, jahon musiqa madaniyati yutuqlaridan samarali foydalanish va qoraqalpaq dostonchiligini umuminsoniy qadriyat sifatida dunyoga tanitishdan iboratdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Matyaqubov B. Doston ijrochiligini o'qitish uslubiyati. – Toshkent: «Nodirabegim» nashriyoti, 2021. – 2-3, 13-16-betlar.
2. Ayimbetov Q. Qaraqalpaq folklori. – Nukus: «Qaraqalpaqstan» nashriyoti, 1977. – 3-4-betlar.
3. Jarimbetov Q., Orazimbetov Q. Qaraqalpaq adabiyati. – Nukus: «Bilim» nashriyoti, 2010. – 8-9-betlar.
4. Allaniyazov R. Duwtar áspabınıń tariyxı hám atqarıw sheberligin rawajlandırıw jolları: Magistrlik dissertatsiyası. – Nukus: Ajiniyaz nomidagi NDPI, 2022. – 33-34-betlar.

**REZYUME.** Ushbu maqolada qoraqalpaq dostonchilik san'atining noyob sinkretik tabiati, ya'ni so'z, kuy va ijro uyg'unligi tadqiq etilgan. Muallif dostonchilikning an'anaviy folklor shaklidan professional akademik ijrochilikka o'tish jarayonidagi tarixiy va uslubiy o'zgarishlarni tahlil qiladi. Maqolada "Jirov" va "Baqsi" ijrochilik maktablarining o'ziga xos xususiyatlari, xususan, "Ala moynaq" dutarining texnik imkoniyatlari, zarb va shtrixlarning badiiy vazifalari yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada ustoz-shogird an'alarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar (ovoz fiziologiyasi, nota savodxonligi) bilan uyg'unlashtirish masalalari ilmiy asoslangan. Tadqiqot natijasida zamonaviy dostonchilik ta'limini rivojlantirish bo'yicha xulosalar taqdim etilgan.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье исследуется уникальная синкретическая природа каракалпакского дастанного искусства, то есть гармония слова, мелодии и исполнения. Автор анализирует исторические и методологические изменения в процессе перехода от традиционной фольклорной формы дастана к профессиональному академическому исполнению. В статье освещены особенности исполнительских школ "Жиров" и "Баксы," в частности, технические возможности дутара "Ала мойнак," художественные функции ударов и штрихов. Также в статье научно обоснованы вопросы гармонизации традиций наставник-ученик с современными педагогическими технологиями (физиология голоса, нотная грамотность). В результате исследования представлены выводы по развитию современного эпического образования.

**SUMMARY.** This article explores the unique syncretic nature of the Karakalpak epic art (Dastan), focusing on the harmony of word, melody, and performance. The author analyzes the historical and stylistic transformations in the transition of epic performance from traditional folklore to professional academic performance. The article highlights the distinctive features of the "Jirov" and "Bakhshi" performance schools, specifically examining the technical capabilities of the "Ala Moynaq" dutar, as well as the artistic functions of rhythmic strokes (zarb) and musical articulation. Furthermore, the synthesis of traditional "master-apprentice" traditions with modern pedagogical technologies (vocal physiology, music literacy) is scientifically substantiated. The study presents conclusions for the development of modern epic performance education.

## MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA O'QUVCHILAR OVOZINI TARBIYALASHDA VOKAL SAN'ATINING AHAMIYATI

**Naǵmetova Gúlzar Bulatbaevna** – *assistent o'qituvchi*  
*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali*

**Tayanch so'zlar:** musiqa madaniyati, vokal pedagogikasi, ovoz turi, tembr, diapazon, tessitura, ma'naviy tarbiya, maqom, estetik did.

**Ключевые слова:** музыкальная культура, вокальная педагогика, тип голоса, тембр, диапазон, тесситура, духовное воспитание, маком, эстетический вкус.

**Key words:** music culture, vocal pedagogy, voice type, timbre, range, tessitura, spiritual education, maqom, aesthetic taste.

Bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodni jismonan sog'lom, ma'nan yetuk shaxslar qilib tarbiyalash jamiyatimiz oldida

turgan eng dolzarb muammolardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev yoshlarimizni sog'lom va

barkamol etib tarbiyalash masalalarida mulohaza yuritib shunday deydilar – “Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo’g’inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o’zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz [1]”.

Milliy pedagogika asoschilaridan biri Abdurauf Fitratning “Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo’lishi, baxtli bo’lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo’lishi yoki zaif bo’lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e’tibordan qolib, o’zgalarga tobe va qul, asir bo’lishi ularning o’z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog’liqdir”- degan so’zlari yosh avlod tarbiyasida katta ahamiyatga egadir. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining yana 11 yillik ta’lim tizimiga o’tkazilishi ta’lim-tarbiya jarayonida amalga oshirilishi lozim bo’lgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar ko’lamini yanada kengaytirish va sifat jihatidan yangilashni talab etadi. Bu o’z navbatida ta’lim-tarbiya sohasida faoliyat yuritayotgan ustozlardan ijodiy izlanishni, ishga yangicha yondashishni, fidoiy mas’uliyatni, hamda o’z kasbining haqiqiy ustasi, jonkuyari bo’lishni talab qiladi.

Umumta’lim maktablari o’quvchilarini “Musiqqa madaniyati darslari orqali ma’naviyatlarini oshirish, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirishni namoyon etish, vatanparvarlik g’oyalarini shakllantirishda musiqa vositalaridan, jumladan musiqiy janrlardan biri vokal san’atini anglash, tushunish, tahlil qila olish ko’nikmalarini singdirish katta ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlab, unga zamon talabidan kelib chiqib yondashish zarurligini ko’rsatadi. Xalqimiz ayniqsa she’riyat bilan bevosita bog’langan folklor qo’shiqlari, bolalar qo’shiqlari, maqom sikllari, katta va mumtoz ashulalarga nihoyatda boy. Keyingi yillarda Yevropa uslubidagi vokal asarlari ham yaratildi.

O’quvchi ma’naviyatini shakllantirish, bu doimiy tizimlilik, uzviylikni, davomiylikni talab etadi. Shuning uchun ma’naviy-ma’rifiy ishlarning yanada mazmunini boyitib, o’quvchilarni ijodkorlikka yo’naltirish katta ahamiyat kasb etadi. Pedagog o’quvchining ovoz xususiyatlarini uning ijrochilik usulidan

ajrata bilish kerak. Ovoz turini aniqlashda tembr, diapazon, registr tuzilishining xususiyatlari, markaziy tovushlar, tessiturani ushlay bilish qobiliyati, hamda fiziologik – anatomik belgilar (Ovoz bog’lamlarining uzunligi va zichligi, rezonator tizimlari va boshqalar), xronaksimmetriya kabi qator alomatlar hisobga olinishi kerak. Tajribali vokal o’qituvchisi o’quvchining ovoz tembridan ko’p narsani bilib oladi. Bu shaxsiy akustik xususiyat turli tessituralarda sinchiklab tekshirilishi lozim. Tembrning eng yaxshi sifatlarini eshitish uchun bir asarni yondosh tonalliklarga ko’chirib ijro etish mumkin. Diapazon ham ovoz turini aniqlovchi belgilardan biridir. Biroq u o’quvchida doim ham to’la hajmda ifodalanmasligi mumkin. Ko’pincha u chegaralangan bo’ladi. Ba’zi hollarda uchraydigan “metso soprano” va “soprano” tonlarini o’z ichiga olgan, nihoyatda keng diapazon ham foyda bermaydi. Ovozni to’g’ri tasnif qilishda registr tuzilishini o’rganish yordamchi vositadir. Yangrashi chiroyli bo’lgan o’tish va markaziy tonlarning joylashishi ham ovozni to’g’ri aniqlashda ko’mak bo’la oladi. Vokalistlarda o’ziga xos quyidagi o’tish tonlari mavjud: Tenor mi – fa – fa – diez birinchi oktava. Bariton re – mi – bemol – si kichik oktava do - do diez birinchi oktava. Soprano mi – fa – fa – diez ikkinchi oktava. Metso soprano do diez – re – diez ikkinchi oktava. U yoki bu tessiturani ushlab turish qobiliyati ma’lum darajada o’quvchining ovoz diapazoni qanday ekanligigiga bog’liq. Diapazonning cheklanganligi o’quvchining tessitura imkoniyatlarini ham cheklab qo’yadi. Shunday bo’lsada ularni o’rganish ovoz tipini aniqlashda katta yordam beradi. Ovozning fiziologik, anatomik belgilari va xronaksimmetriya yordamchi omil vazifasini o’tashi mumkin. Bolalar ovozinig turlari. Soprano – (diskant) - yuqori ovoz, yengil, o’zgaruvchan yumshoq yangraydi. Katta ta’sir kuchiga ega (do – birinchi oktava, fa, sol- ikkichi oktava). Alt- bolalar pastki ovozi- kuchli va birmuncha yo’g’on jarangdor tembrga ega. (sol, lya- kichik oktava, re – mi ikkinchi oktava) Ta’lim jarayonida ovoz turlarini, uning hajmini, kengligini aniqlash orqali ovoz xarakteriga mos bo’lgan vokal

mashqlari hamda qo‘shiqalar kuylatib boriladi, bu esa ovoz hajmi kengligini chiroyli, rang-barang tembrda va jarangdor bo‘lishiga imkon yaratadi. Bo‘lajak vokal o‘qituvchilari yuqorida aytib o‘tgan ovoz turlari, ovoz hajmi kengliklarini o‘rgangan holda, qo‘shiqlarni yoqimli, dilrabo ohanglarda kuylay olishi uchun vokal uslubiyotini kasbiy ko‘nikmalarini puxta o‘zlashtirishi zarur deb bilamiz.

Xulosa qilib aytganda musiqa madaniyati darslarida vokal san‘ati vositasida o‘quvchilar

ma‘naviyatini shakllantirish uzluksiz pedagogik jarayon hisoblanadi. Ovoz turini to‘g‘ri aniqlash, metodik asoslangan mashqlarni qo‘llash va milliy musiqa merosidan foydalanish o‘quvchining estetik tafakkuri hamda ijodiy salohiyatini rivojlantiradi. Vokal pedagogikasi nafaqat ijrochilik mahoratini, balki shaxsning ruhiy va ma‘naviy kamolotini ham ta‘minlovchi muhim omildir. Shu bois bo‘lajak vokal o‘qituvchilari kasbiy kompetensiyalarni chuqur egallashlari zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruza. 2016 yil 7 dekabr. Toshkent – “O‘zbekiston” – 2017 yil, 22-bet.
2. Qahhorov N.B. Vokal asoslari Toshkent, Iqtisod-Moliya. 2008 yil
3. Rizayeva M.N. Yosh xonanda kamoloti. Toshkent, “Cho‘lpon” nashriyoti, 2006 yil
4. Ismoilova M. Vokal o‘qitish metodikasi. Toshkent, “Musiqqa” nashriyoti.

**REZYUME.** Mazkur maqolada umumta‘lim maktablarida musiqa madaniyati darslari orqali o‘quvchilar ma‘naviyatini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Vokal san‘atining yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni, ovoz turlarini aniqlash mezonlari, tembr, diapazon, registr, tessitura va fiziologik xususiyatlarning pedagogik ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, milliy musiqa merosi, maqom san‘ati va zamonaviy vokal uslublarning o‘quvchi shaxsini shakllantirishdagi roli ochib beriladi. Tadqiqot jarayonida kuzatuv, tahlil, pedagogik tajriba va qiyosiy metodlardan foydalanildi.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье анализируются теоретические и практические основы формирования духовности учащихся посредством уроков музыкальной культуры в общеобразовательных школах. Научно обосновывается роль вокального искусства в воспитании молодого поколения, критерии определения типов голоса, педагогическое значение тембра, диапазона, регистра, тесситуры и физиологических особенностей. Также раскрывается роль национального музыкального наследия, искусства макома и современных вокальных стилей в формировании личности учащегося. В процессе исследования использовались методы наблюдения, анализа, педагогического опыта и сравнительного анализа.

**SUMMARY.** This article analyzes the theoretical and practical foundations of the formation of students' spirituality through music culture lessons in general education schools. The role of vocal art in the upbringing of the younger generation, the criteria for determining voice types, the pedagogical significance of timbre, range, register, tessitura, and physiological characteristics are scientifically substantiated. The role of national musical heritage, maqom art, and modern vocal styles in the formation of the student's personality is also revealed. Observation, analysis, pedagogical experience, and comparative methods were used in the research process.

## НЕЙРОСЕТЕВАЯ РЕСТАВРАЦИЯ КЛАССИКИ УЗБЕКСКОГО КИНО: ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ

Дилором Мирсаидова - доцент

кафедры "Звукорежиссуры и операторского мастерство",  
Государственного института искусств и культуры Узбекистана

**Tayanch soʻzlar:** neyrotarmoq texnologiyalari, ovoz restavratsiyasi, fonogramma, oʻzbek kinematografiyasi, ovoz rejissyorligi, pedagogika, sunʼiy intellekt.

**Ключевые слова:** нейросетевые технологии, реставрация звука, фонограмма, узбекский кинематограф, звукорежиссура, педагогика, искусственный интеллект.

**Key words:** neural network technologies, sound restoration, phonogram, Uzbek cinematography, sound engineering, pedagogy, artificial intelligence.

**Введение.** Проблема сохранения аудиовизуального наследия национального кинематографа в последние десятилетия приобретает особую актуальность. В условиях цифровизации архивных фондов внимание исследователей и практиков всё чаще сосредотачивается не только на визуальной реставрации киноизображения, но и на восстановлении звуковой составляющей фильма, которая является важнейшим носителем художественного смысла. Фонограммы классических фильмов узбекского кинематографа, созданных в 1940–1980-е годы, зачастую характеризуются значительной степенью технической деградации. Это обусловлено как особенностями использовавшихся в тот период звукозаписывающих технологий, так и физическим износом магнитных и оптических носителей. В результате нарушается целостность художественного восприятия фильма, снижается выразительность актёрской речи, музыкального сопровождения и звуковой среды. Особую ценность в этом контексте представляют фонограммы классических фильмов узбекского кинематографа, таких как «Тахир и Зухра» (1945), «Алишер Навои» (1947), «Ты не сирота» (1962), «Минувшие дни» (1969), «Шум бола» (1974), «Абдулладжан» (1991). Звуковое оформление этих кинолент отражает не только технические возможности своей эпохи, но и эстетические принципы национальной школы кино, в которой звук выполнял важную драматургическую и эмоционально-смысловую функцию.

Появление и активное развитие нейросетевых технологий открывает новые перспективы в области реставрации звука и одновременно ставит перед системой профессионального образования новые педагогические задачи.

### Методология исследования

Анализ архивных фонограмм узбекских художественных фильмов позволяет выделить ряд типичных проблем: высокий уровень фонового и индустриального шума; импульсные помехи и искажения, вызванные повреждением носителя; ограниченный частотный диапазон, особенно в области высоких частот; снижение разборчивости диалогов; нестабильность динамического диапазона; рассинхронизация звука и изображения в результате копирования и переозвучивания. Традиционные методы цифровой обработки звука, основанные на эквализации, динамической обработке и спектральном редактировании, требуют значительных временных ресурсов и высокого уровня профессиональной подготовки специалиста, что ограничивает их массовое применение в архивной практике. Анализ архивных фонограмм узбекских художественных фильмов показывает, что применение нейросетевых алгоритмов позволяет значительно повысить качество звукового материала при условии сохранения его художественной аутентичности.

Так, при работе с фонограммой фильма «Ты не сирота» (реж. Ш. Аббасов, 1962) основной проблемой является высокий уровень фонового шума и снижение

разборчивости диалогов, обусловленные особенностями оптической звукозаписи. Использование нейросетевых методов шумоподавления позволяет улучшить читаемость речи без разрушения тембральной структуры голосов актёров. В фильме «*Минувшие дни*» (1969), снятом по мотивам романа Абдуллы Кадыри, особое значение имеет музыкально-звуковая ткань, формирующая историческую атмосферу повествования. Нейросетевые технологии в данном случае применимы для восстановления утраченных частотных компонентов и выравнивания динамического диапазона, что способствует более точной передаче музыкального и речевого материала. Фонограммы фильмов «*Тахир и Зухра*» и «*Алишер Навои*» характеризуются значительным количеством артефактов, связанных с физическим износом носителей. Применение алгоритмов искусственного интеллекта позволяет автоматизировать процесс обнаружения и локализации дефектов, существенно сокращая время реставрационных работ.

#### Анализ и результаты

Нейросетевые алгоритмы, основанные на методах машинного обучения и глубинного анализа звукового сигнала, позволяют автоматизировать и оптимизировать ряд процессов, ранее выполнявшихся исключительно вручную.

В практике реставрации фонограмм наибольшее распространение получили следующие направления применения ИИ: интеллектуальное шумоподавление с сохранением тембральных характеристик; восстановление утраченных частотных компонентов речи и музыки; реконструкция динамического диапазона без выраженных артефактов; повышение разборчивости диалогов; автоматическое обнаружение и классификация дефектов фонограммы.

При этом нейросетевые технологии не подменяют художественного решения звукорежиссёра, а выступают в качестве инструмента, расширяющего его профессиональные возможности. Одним из ключевых вопросов применения нейросетей в реставрации классического

кино является проблема сохранения авторского замысла. Чрезмерное использование алгоритмов может привести к «осовремениванию» звучания и утрате характерных для эпохи акустических особенностей. В этом контексте особое значение приобретает роль звукорежиссёра как медиатора между технологией и художественным содержанием. Профессионал должен обладать не только техническими навыками, но и развитым художественным слухом, историческим мышлением и чувством стилистической меры. Интеграция нейросетевых инструментов в образовательный процесс подготовки звукорежиссёров требует пересмотра традиционных педагогических подходов. Обучение должно быть направлено не на механическое освоение программных средств, а на формирование осознанного и критического отношения к возможностям ИИ. Ключевыми педагогическими задачами являются: развитие аналитического слуха; формирование навыков оценки художественной целесообразности обработки; понимание исторического контекста реставрируемого материала; воспитание ответственности за сохранение культурного наследия. Использование фрагментов фильмов узбекского классического кинематографа в учебном процессе способствует формированию у студентов не только профессиональных навыков реставрации звука, но и осознания культурной миссии звукорежиссёра.

Работа с фонограммами таких фильмов, как «*Шум бола*» и «*Ты не сирота*», позволяет наглядно продемонстрировать взаимосвязь звукового решения, драматургии и национального колорита.

В рамках практических занятий студентам предлагается сопоставить оригинальное звучание архивной фонограммы и результаты нейросетевой обработки, что развивает критическое мышление и способность к осознанному художественному выбору. Эффективной представляется модель обучения, основанная на сочетании теоретических занятий и практических лабораторных

работ, включающих: анализ исходного состояния архивной фонограммы; сравнение результатов традиционной и нейросетевой обработки; коллективное обсуждение художественных решений; разработку рекомендаций по степени допустимого вмешательства в оригинальное звучание. Такая модель способствует формированию у студентов целостного профессионального мышления и готовности к работе с современными технологиями.

**Заключение.** Нейросетевые технологии становятся важным фактором развития практики реставрации звукового наследия узбекского кинематографа.

Их педагогический потенциал заключается не только в повышении

эффективности технической обработки, но и в формировании нового типа профессионального мышления звукорежиссёра, сочетающего технологическую компетентность, художественную чувствительность и историческую ответственность.

Рассмотрение практики реставрации фонограмм фильмов «Ты не сирота», «Минувшие дни», «Тахир и Зухра» и других произведений узбекского кинематографа позволяет сделать вывод о том, что нейросетевые технологии при грамотном и педагогически осмысленном применении становятся эффективным инструментом сохранения национального аудиовизуального наследия.

### Список литературы

1. Мирсаидова Д. Искусство дубляжа в узбекском кинематографе: Сохранение национального колорита (1970–1980-е годы) // *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti xabarları*.
2. Гаппарова Н., Халбаева С. Современные подходы к синтезу звука и изображения в экранных искусствах // *Yangi Renaissance Ilm-Fan Taraqqiyoti*. 2025.
3. Gapparova, Nargiza. "Звук и воображение радиослушателя." *O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim, Fan*: 104.
4. Shokirova, Gulrukh Batirovna. "The Historical Development of Television: From Its Early Stages to the Digital Era." *Multidisciplinary Journal of Science and Technology* 5.3 (2025): 861-862.
5. Qalandarov, Izzat. "O‘zbek kinosida ilk tarixiy filmlar va ularda operatorlik mahorati." *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti xabarları*.
6. Amanmuradov, ShCh. "Peculiarities of the sound-view montage of the film" the man leaves the birds." *Oriental Art and Culture* (2022).
7. Mirsaidova D. I. Features and originality of the development of the art of dubbing in Uzbek cinema // *Oriental Art and Culture*. – 2024. – Т. 5. – №. 2. – С. 575-580.
8. Мирсаидова Д. И. Развитие творческих кадров для киноиндустрии в странах СНГ: образование, поддержка и перспективы // *Киноиндустрии государств-участников СНГ и национальные киношколы: традиции и новаторство*. – 2024. – Т. 1. – С. 121-125.

**REZYUME.** Maqola o‘zbek kinosining klassik asarlari fonogrammalarini qayta tiklash va restavratsiya qilish amaliyotida neyrotarmoq texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari tahliliga bag‘ishlangan. Unda XX asr o‘rtalaridagi arxiv kinfonogrammalariga xos bo‘lgan asosiy ovozli nuqsonlar hamda ularni tuzatishda qo‘llaniladigan zamonaviy sun‘iy intellekt algoritmlari ko‘rib chiqiladi. Neyrotarmoq vositalarini ovoz rejissyorlarini tayyorlash tizimiga joriy etishning pedagogik jihatlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Talabalarda sun‘iy intellekt texnologiyalari bilan tanqidiy va mas‘uliyatli ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish zarurligi milliy kino merosining badiiy o‘ziga xosligini (autentikligini) saqlab qolishning eng muhim sharti sifatida asoslab berilgan.

**РЕЗЮМЕ.** Статья посвящена анализу возможностей применения нейросетевых технологий в практике восстановления и реставрации фонограмм классических фильмов узбекского кинематографа. Рассматриваются основные типы звуковых дефектов, характерные для архивных кинофонограмм середины XX века, а также современные

алгоритмы искусственного интеллекта, используемые для их коррекции. Особое внимание уделяется педагогическому аспекту внедрения нейросетевых инструментов в систему профессиональной подготовки звукорежиссёров. Обосновывается тезис о необходимости формирования у студентов навыков критической и ответственной работы с технологиями искусственного интеллекта как важнейшего условия сохранения художественной аутентичности национального кинонаследия.

**SUMMARY.** The article is devoted to the analysis of the possibilities of using neural network technologies in the practice of restoring and renovating the soundtracks of classical Uzbek cinema. The study examines the main types of sound defects characteristic of archival film phonograms from the mid-20th century, as well as modern artificial intelligence algorithms used for their correction. Special attention is paid to the pedagogical aspect of integrating neural network tools into the professional training system for sound engineers. The author substantiates the necessity of developing students' skills for critical and responsible work with AI technologies as a vital condition for preserving the artistic authenticity of the national cinematic heritage.

## YOSH IJROCHILARDA ORKESTR MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI

**Kurbanova Mukammalxon Mamurovna** – dotsent v.v.b.

*Qo‘qon davlat universiteti*

**Tayanch so‘zlar:** orkestr madaniyati, yosh ijrochilar, pedagogik model, jamoaviy ijrochilik, intonatsion uyg‘unlik, ritmik intizom, dirijorlik pedagogikasi, sahna madaniyati.

**Ключевые слова:** оркестровая культура, молодые исполнители, педагогическая модель, коллективное исполнение, интонационная гармония, ритмическая дисциплина, педагогика дирижирования, сценическая культура.

**Key words:** orchestral culture, young performers, pedagogical model, collective performance, intonational coherence, rhythmic discipline, conducting pedagogy, stage culture.

Zamonaviy musiqa ta‘limi tizimida yosh ijrochilarda nafaqat individual ijrochilik mahoratini, balki orkestr madaniyatini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Orkestr madaniyati — bu musiqiy matnni jamoaviy idrok etish, intonatsion uyg‘unlik, ritmik intizom, dinamik muvozanat hamda ijrochilik mas‘uliyatining majmui bo‘lib, u yosh musiqachining professional shakllanishida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Ayniqsa, milliy va akademik orkestrlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, orkestr madaniyatini ongli va tizimli pedagogik model asosida shakllantirish yosh ijrochilarning sahna madaniyati, musiqiy tafakkuri va estetik didini yuksaltiradi.

Pedagogik nuqtai nazardan orkestr madaniyati tushunchasi yosh ijrochilarda musiqiy faoliyatni jamoaviy anglash, umumiy badiiy maqsadga bo‘ysunish hamda ijrochilik mas‘uliyatini shakllantirish jarayonini

ifodalaydi. Bu tushuncha faqat texnik aniqlik bilan chegaralanmay, balki musiqiy tafakkur, estetik ong va ijrochilik etikasining uyg‘un rivojini taqozo etadi. Orkestr madaniyatini shakllantirishda pedagog-dirijyor tarbiyachi, psixolog, ijodiy yetakchi sifatida faoliyat yuritadi. U nafaqat musiqiy aniqlikni, balki jamoaviy intizom, estetik mas‘uliyat va sahna etiketini ham shakllantiradi.

Orkestr madaniyati intonatsion aniqlik va uyg‘unlik, ritmik barqarorlik va jamoaviy temp sezgisi, dinamik muvozanat va tembr uyg‘unligi, dirijyor ishoralarini anglash va unga bo‘ysunish madaniyati, ansambl mas‘uliyati va o‘zaro tinglash ko‘nikmasi kabi asosiy pedagogik komponentlar orqali tavsiflanadi. Jahon orkestr pedagogikasida (xususan, Yevropa simfonik maktabida) intonatsiya masalasi ansambl eshituvini rivojlantirish orqali hal qilinadi. Berlin filarmoniyasi orkestri mashg‘ulotlarida bo‘limlararo tinglash (sectional listening)

metodi intonatsion uyg'unlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi.[1] Milliy amaliyotda esa O'zbekiston davlat xalq cholg'ulari orkestri tajribasida dutor, tanbur, nay va g'ijjak guruhlarining o'zaro intonatsion moslashuvi ustoz-shogird an'anasi asosida shakllantiriladi. [2]

Orkestr madaniyatining yana bir muhim pedagogik ko'rsatkichi ritmik barqarorlik va jamoaviy temp sezgisidir. Yosh ijrochilar ko'pincha individual ritmik erkinlikka moyil bo'lib, orkestr sharoitida bu holat ansambl buzilishiga olib keladi. Shu sababli, zamonaviy orkestr pedagogikasida metroritmni his etish jamoaviy mashqlar orqali rivojlantiriladi.[3] Yaponiya yoshlar simfonik orkestrlarida dastlabki bosqichda murakkab asarlar emas, balki oddiy ritmik strukturalarga ega asarlar orqali temp-intizom tarbiyalanadi. Xuddi shunday yondashuv O'zbekistonda mavjud bolalar musiqa maktablari qoshidagi orkestrlar repertuarida ham qo'llanilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Milliy orkestrlar faoliyati yosh ijrochilarda orkestr madaniyatini shakllantirishda muhim pedagogik va ijodiy tajriba maktabi hisoblanadi. O'zbekiston davlat xalq cholg'ulari orkestri amaliyoti bu borada yetakchi o'ringa ega. Musiqashunos va bastakor Yunus Rajabiy rahbarligidagi ijodiy jarayonda yosh sozandalar orkestrni yakka ijrochilar yig'indisi emas, balki yagona badiiy organizm sifatida anglashga o'rgatilgan. Xalq cholg'ulari orkestri repertuarida tanovorlar, katta ashula yo'llari va maqom parchalarining orkestrlashtirilgan namunalari yosh ijrochilarda milliy uslubga xos orkestr madaniyatini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan.

Milliy orkestr pedagogikasida yana bir muhim tajriba O'zbekiston davlat konservatoriyasi va uning qoshidagi xalq cholg'ulari orkestri faoliyati bilan bog'liq. Bu yerda orkestr mashg'ulotlari pedagogik jarayon sifatida tizimli tashkil etilib, yosh ijrochilar dastlab kichik ansambllar orqali jamoaviy ijroga tayyorlanadi. Ushbu yondashuvda taniqli dirijyor va pedagoglar tomonidan olib borilgan mashg'ulotlar yosh ijrochilarda ritmik intizom, intonatsion barqarorlik va sahna madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Maqom ansambllari va orkestrlashtirilgan maqom jamoalari tajribasi ham yosh ijrochilar uchun muhim namuna bo'lib xizmat qiladi. Bu jamoalarda dirijyor va yetakchi sozandalar yosh ijrochilarni milliy intonatsiya, uslubiy noziklik va sahna etiketi asosida tarbiyalaydi. O'zbekiston davlat xalq cholg'ulari orkestri, konservatoriya qoshidagi orkestrlar hamda maqom jamoalari tajribasi shuni ko'rsatadiki, milliy orkestrlar yosh ijrochilarda orkestr madaniyatini shakllantirishning samarali pedagogik modeli bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tajriba jamoaviy musiqiy tafakkur, dirijyor bilan ongli muloqot, sahna madaniyati va milliy ijrochilik an'analarning uzviy davomiyligini ta'minlaydi.

Dinamik muvozanat va tembr uyg'unligi — bu orkestr madaniyatining estetik ifodasi bo'lib, u har bir cholg'u guruhining umumiy tovush manzarasidagi o'rnini anglashini talab etadi. Jahon orkestrlarida (masalan, London simfonik orkestrida) dinamik muvozanatni shakllantirishda “kam eshitish — ko'proq tinglash” tamoyili asosiy metod sifatida qo'llaniladi[4]. Milliy orkestr amaliyotida esa tembr uyg'unligi masalasi ayniqsa dolzarb bo'lib, turli akustik imkoniyatga ega cholg'ularni muvozanatlash pedagogdan yuqori darajadagi metodik mahoratni talab etadi.[5] Dirijyor ishoralarini anglash va unga bo'ysunish madaniyatini shakllantirishda yosh ijrochilar dirijyorni faqat temp ko'rsatuvchi shaxs sifatida emas, balki badiiy tafakkurni boshqaruvchi yetakchi sifatida qabul qilishi lozim. G'arbiy Yevropa orkestr pedagogikasida dirijyor ishoralarini anglash maxsus mashg'ulotlar orqali o'rgatiladi, bunda vizual idrok va musiqiy reaksiyaning uyg'unligi rivojlantiriladi[6]. O'zbek orkestr an'analari esa bu jarayon ko'proq amaliy mashg'ulotlar va sahna tajribasi orqali shakllanadi. Ansambl mas'uliyati va o'zaro tinglash ko'nikmasi orkestr madaniyatining axloqiy-pedagogik jihatini ifodalaydi. Har bir ijrochi o'z partiyasini mukammal bajarish bilan birga, umumiy musiqiy natija uchun javobgarlikni his etishi lozim.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'zaro tinglash ko'nikmasi rivojlangan yosh ijrochilarda sahna madaniyati va ijrochilik ishonchi yuqori bo'ladi.[7] Yosh ijrochilar uchun orkestr madaniyati individual texnik

mahorat bilan emas, balki jamoaviy musiqiy tafakkur, intizom va estetik mas'uliyat bilan belgilanadi. Shu sababli, orkestr mashg'ulotlari oddiy ijro amaliyoti emas, balki murakkab pedagogik jarayon sifatida qaralib, maxsus metodik yondashuv asosida tashkil etilishi zarur.

Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, musiqa maktablari va ixtisoslashtirilgan san'at ta'lim muassasalarida o'quvchilar ko'pincha yakka ijroga tayyorlanadi, orkestr ijrochiligi esa ikkinchi darajali jarayon sifatida qaraladi. Natijada ansambl intizomi sust shakllanadi, jamoada eshitish va moslashish qobiliyati yetarli darajada rivojlanmaydi, sahnada psixologik barqarorlik pasayadi. Shu sababdan orkestr madaniyatini shakllantirish erta bosqichdan rejalashtirilgan pedagogik model asosida olib borilishi lozim.

Yosh ijrochilarda orkestr madaniyatini shakllantirish uzluksiz va tizimli pedagogik jarayon bo'lib, u musiqiy ta'limning nazariy-amaliy tamoyillariga tayangan holda bosqichma-bosqich amalga oshirilib, tayanch (diagnostik), shakllantiruvchi (amaliy) va mustahkamlovchi (ijodiy) bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Tayanch (diagnostik) bosqich orkestr mashg'ulotlari uchun metodik poydevor vazifasini bajaradi. Bu davrda yosh ijrochilarning individual texnik tayyorgarlik darajasi, ritmik sezgi, intonatsion aniqlik va musiqiy eshitish qobiliyati, jamoada ishlashga psixologik tayyorgarligi kompleks tarzda tahlil qilinadi.

Orkestr madaniyatining muvaffaqiyatli shakllanishi avvalo o'quvchining individual ijrochilik imkoniyatlarini to'g'ri aniqlash va ularni jamoaviy ijroga moslashtirish bilan chambarchas bog'liq. Masalan, Yevropa yoshlar simfonik orkestrlarida (European Union Youth Orchestra) dastlabki bosqichda tinglovchi-ijrochilarning intonatsion barqarorligi va ritmik mustaqilligi maxsus diagnostik mashqlar orqali aniqlanadi. Milliy amaliyotda esa O'zbekiston ixtisoslashtirilgan san'at maktablari qoshidagi orkestrlar faoliyatida yosh sozandalarning yakka ijrodagi tayyorgarligi ustoz-shogird an'anasi asosida baholanib, shundan so'ng ular orkestr tarkibiga jalb etiladi.[2] Bu bosqichda pedagog uchun asosiy vazifa — o'quvchini

“yakka ijrochi” sifatida emas, balki jamoaviy ijrochilik subyekti, ya'ni “orkestr a'zosi” sifatida anglashga yo'naltirishdir.

Shakllantiruvchi bosqich orkestr madaniyatining asosiy komponentlari bevosita amaliy mashg'ulotlar jarayonida rivojlantiriladigan davr hisoblanadi. Bu bosqichda ansambl va orkestr mashg'ulotlari tizimli va rejalashtirilgan tarzda olib boriladi, jamoaviy tinglash, moslashish va muvofiqlashtirish ko'nikmalari shakllantiriladi, dirijor bilan badiiy-musiqiy muloqot madaniyati rivojlantiriladi. Jahon orkestr pedagogikasida bu bosqich markaziy ahamiyatga ega bo'lib, masalan, London simfonik orkestri qoshidagi yoshlar orkestrida mashg'ulotlar kichik ansambl guruhlardan boshlanib, asta-sekin to'liq orkestr ijrosiga o'tiladi. Bu usul yosh ijrochilarda o'zaro tinglash va musiqiy mas'uliyatni bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiladi.

Pedagogik jarayonda qisqa frazali ritmik va intonatsion mashqlar, cholg'u guruhlari bo'yicha alohida ijro (sectional rehearsal), milliy va jahon orkestr repertuaridan yosh ijrochilar imkoniyatiga moslashtirilgan asarlar bilan ishlash kabi metodlar muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy orkestr amaliyotida, xususan, O'zbekiston davlat xalq cholg'ulari orkestri tajribasida, dutor, tanbur, g'ijjak va nay guruhlari o'rtasidagi tembr va dinamik muvozanat aynan shu bosqichda shakllantiriladi. Mustahkamlovchi bosqichda orkestr madaniyati yosh ijrochining shaxsiy ijrochilik pozitsiyasiga aylanadi. Bu bosqichning asosiy vazifalari o'zlashtirilgan orkestr madaniyatini sahna va konsert amaliyotida namoyon etish, ochiq mashg'ulotlar va konsertlar orqali ijrochilik mas'uliyatini oshirish, mustaqil fikrlash va ijodiy tashabbusni qo'llab-quvvatlash kabilardan iborat.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sahna tajribasi yosh ijrochilarda orkestr madaniyatini mustahkamlashning eng samarali vositalaridan biridir. Yaponiya yoshlar orkestrlarida har bir o'quv yilining yakuni majburiy konsert faoliyati bilan yakunlanadi, bu esa ijrochilarning psixologik barqarorligi va jamoaviy mas'uliyatini oshiradi. Milliy tajribada ham yoshlar orkestrlarining respublika miqyosidagi ko'rik-

tanlov va festivallarda ishtiroki orkestr madaniyatining ijodiy jihatdan shakllanishiga xizmat qiladi.

Yosh ijrochilarda orkestr madaniyatini shakllantirish uzluksiz, bosqichma-bosqich va maqsadli pedagogik model asosida olib borilgandagina samarali natija beradi. Ushbu model yosh musiqachilarning professional rivojlanishiga, milliy va akademik orkestr

ijrochiligining sifat jihatdan yuksalishiga xizmat qiladi.

Orkestr madaniyatini shakllantirishning pedagogik modeli yosh ijrochilarning musiqiy rivojida diagnostik aniqlik, tizimli amaliyot va ijodiy mustahkamlash tamoyillariga asoslanadi hamda jamoaviy musiqiy tafakkur, ijrochilik intizomi va sahna madaniyatini uyg'un holda rivojlantirish imkonini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adler, S. (2002). *The Study of Orchestration*. New York: W. W. Norton & Company.
2. Rajabiy, Y. (2007). *O'zbek xalq cholg'ulari orkestri va uning rivoji*. Toshkent: San'at.
3. McPherson, G. E., & Gabrielsson, A. (2002). From sound to sign. *Musical Skill Development*, 99–115
4. Kennan, K., & Grantham, D. (1999). *The Technique of Orchestration*. New Jersey: Prentice Hall.
5. G'aniyeva, I. (2018). O'zbek cholg'u ijrochiligida ansambl madaniyati masalalari. *San'atshunoslik masalalari*, 3, 45–52.
6. Hunsberger, D., & Ernst, R. (2002). *The Art of Conducting*. New York: McGraw-Hill.
7. Hallam, S. (2010). The power of music. *International Journal of Music Education*, 28(3), 269–289.

**REZYUME.** Mazkur maqolada yosh ijrochilarda orkestr madaniyatini shakllantirish masalasi zamonaviy musiqa ta'limi nuqtai nazaridan tahlil etiladi. Orkestr madaniyati tushunchasi jamoaviy musiqiy tafakkur, intonatsion uyg'unlik, ritmik intizom, dinamik muvozanat, dirijyor bilan muloqot madaniyati hamda ansambl mas'uliyati kabi muhim pedagogik komponentlar majmui sifatida yoritiladi. Maqolada orkestr mashg'ulotlarini oddiy ijro amaliyoti emas, balki murakkab pedagogik jarayon sifatida tashkil etish zarurligi, ushbu yondashuv yosh musiqachilarning professional shakllanishi, sahna madaniyati va estetik tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье анализируется вопрос формирования оркестровой культуры у молодых исполнителей с точки зрения современного музыкального образования. Концепция оркестровой культуры рассматривается как совокупность важных педагогических компонентов, таких как коллективное музыкальное мышление, интонационная гармония, ритмическая дисциплина, динамическое равновесие, культура общения с дирижером и коллективная ответственность. В статье подчеркивается необходимость организации оркестровой подготовки не как простой исполнительской практики, а как комплексного педагогического процесса, и такой подход служит профессиональной подготовке молодых музыкантов, развитию сценической культуры и эстетического мышления.

**SUMMARY.** This article analyzes the issue of forming orchestral culture among young performers from the perspective of contemporary music education. The concept of orchestral culture is interpreted as a complex of key pedagogical components, including collective musical thinking, intonational coherence, rhythmic discipline, dynamic balance, the culture of interaction with the conductor, and ensemble responsibility. The article emphasizes that orchestral training should be organized not merely as performance practice, but as a complex pedagogical process. Such an approach contributes to the professional development of young musicians, the formation of stage culture, and the advancement of aesthetic thinking.

## BASLANGÍSH KLASS OQÍVSHÍLARÍN TÁRBIYALAWDA TEATRDÍN ORNÍ

**Yernazarov Nurlanbek Yesnazarovich** – *assistent oqıtıwshı*

**Muratbaeva Gúlnara** – *magistr*

*Ózbekstan mámleketlik kórkem óner hám mádeniyat institutı Nókis filiali*

**Tayanch soʻzlar:** senariya oʻyini, odob-ahloq tarbiyasi, jamiyat rivojlanishi, moliyaviy rivojlanish, barpo etish, nutq madaniyati, estetik tarbiya, emotsional rivojlanish.

**Ключевые слова:** сценарийная игра, нравственное воспитание, развитие общества, финансовое развитие, созидание, культура речи, эстетическое воспитание, эмоциональное развитие.

**Key words:** scenario game, moral education, social development, financial development, creation, speech culture, aesthetic education and emotional development.

Joqarı texnologiyalar dáwirinde hár túrli mádeniyattaǵı kontentler insannıń ruwhiyatına kúshli tásir etip, insannıń jańasha pikirlewlerine, kózqarasınıń ósiwine túrtki bolıp atır.

Házirgi zamannıń texnologiyalarınıń insan psixikasına hám tárbiyasına unamsız hám unamli tárepleri de bar. Mısalı, jańa texnologiyalar menen rawajlanıp kelgen insanlarda hár túrli túrdegi stimullar hám konfiguraciyalargá tezlik penen juwap beredi. Biraq ilimpazlardıń anıqlawınsha, kliplik pikirlew tárizine iye bolǵan insan dúnyanı pútkilley emes, bálki bir-birine baylanısı joq bolǵan waqıyalar izbe-izliginde qabıl etedi. Bul dúnyaǵa kózqaraslar baslawısh klass jasındaǵı balalarda ornatılǵanda, balalardıń dóretiwshilik baslamaların, ruwhıy etikalıq bilimniń, analitik hám logikalıq pikirlew qábiletin joytıw dárejesi asadı. Al, qanday jollar menen balalardı elektron qurılımlardan ajıratıp, olardıń bir-birine baylanıslı hám ajıralmas bolǵan haqıyqatı túsiniwine járdem beriw múmkin? Oqıwshılardı oqıw-teatr procesine baǵdarlaw, balalardıń unamli emotsional hám tárbiyalıq mashqalaların saplastırıwdıń nátiyjeli qurallarından biri esaplanadı. Teatr - ájayıp kórkem óner bolǵanlıqtan, ǵalabalıq tarmaq teatrdı barlıq tamashagóylerden ajırata almadı. Teatr zalları házir de adamlar menen tola, olar arasında kóplegen jaslar da bar. Teatr kórkem ónerine bolǵan muxabbattı mektepte oqıw waqtınan baslap úyretiw kerek. Bul haqqında V.A.Suxomli “balalar kórkem óneri ruwhıy proceslerdi, emotsional-sezimlerdi hám yadlardı sırtqı kóriniste kórsetiw zárúriyatın qanaatlandırıwda nátiyjeli esaplanadı” degen pikirge aytıp ótken. [10,270] Oyin-kúlki, saxnalıq kórinisler balanıń óz turmısına tereń kirip keletuǵın júdá zárúrlı mútajlik [3, 174

b]. Bul zárúrlıklar tiylarında, balalardıń minez-qulqınıń formalanıwına teatrlardıń ornı bar. Bul maqalamızda teatrdıń balaǵa tásirin tómendegishe kórip shıqtıq. Scenariyalıq oyun: - bul málim bir kórkem ádebiyatqa baylanıslı kóriniske eliklew arqalı alıp barılıp intonaciya, mimika, ım-ishara -belgiler, dene háreketleri menen málim bir waqıynı suwretlep beriw ushın ótkeriletuǵın spektaklli oyun. Ssenariyalıq oynıların balaǵa táseri tómendegishe: Adep-ikramlıq tárbiyası: Saxnalastırılǵan oyun balalardıń ádep-ikramlıq normalarına dus kelgende, durıs sheshim qabıl etiwine járdem beredi. Miyirim-shapat, hadallıq hám ádalat sıyaqlı ruwhıy qádiriyatlardı qalıplestiriwge táserin tiygizedii. L.S.Vygotskiydiń pikirinshe ssenariyalıq oyun arqalı balanıń oyında sáwlelengen ádep-ikramlıq normaları ádep-ikramlıqtıń rawajlanıw zonasın jaratadı [2, 62]. Social rawajlanıw: Kommunikativ kónlikpelerdi hám toparda birge islesiw qábiletin rawajlandıradı. Balalar spektakldi tayarlawda óz-ara kelisiw júrgizedi, roldı bólistiredi hám basqalardıń pikirlerin húrmet etiwge úyrenedi. «Teatr iskerligi birgelikte dóretiwshilik etiw arqalı social kónlikpelerdi rawajlandırıwǵa xızmet etedi» [8,47]. Mısal: Saxna oyınında toparlıq tayınlıqtı muwapıqlıqtı talap etedi, bul bolsa sheriklik kónlikpelerin bekkemleydi. Emocionallıq rawajlanıw: Balalargá óz sezimlerin zárúrlı ańlatıwǵa hám shıǵarıwǵa, sonıń menen birge, qaharmanlar tımsalı arqalı basqalardıń sezimlerin túsiniwge járdem beriw arqalı emotsional intellekti qalıplestiredi. «Balalar ushın teatr - empatiya hám ózin basqarıwǵa úyrenetuǵın sezimler mektebi» [7,45]. Mısal: Bala unamli yamasa unamli qaharmanıń atqaratuǵın rolnı oynaw arqalı sezimlerdi túsiniwge hám basqarıwǵa járdem beredi.

Dóretiwshilik hám oyda sawlelendiriw: Qıyallow, syujetler jaratıw hám improvizaciya arqalı dóretiwshilik pikirlew oyda sawlelendiriwdi rawajlandıradı. «Teatrdá oynaw oyda sawlelendiriwdi rawajlantıradı, balağa jańa dúnyalar jaratıw hám dóretiwshilik wazıypalardı sheshiw imkaniyatın beredi» [13,102]. Mısal: Quwırshaq spektaklinde balalar quwırshaqlarğa xarakter dóretiw arqalı oylap tabıw qábiyleti rawajlanadı. Sóylew mádeniyatı: Tekstlerdi oqip sózlerdi durıs, anıq hám tınıq aytıp úyreniw menen birge sóylew diksiyasi rawajlanadı. Dialog hám monalog arqalı sózlik rezervin jaqsılaydı. «Teatr shınıǵıwları sóylew mádeniyatın hám óz pikirini isenimli ayta alıwına járdem beredi» [6,134]. Mısal: Saxna oyınlarında qatnasıw uyalshaq balalarğa anıq hám emocionallı sóylewge járdem beredi. Estetik tárbiya: Spektakllerde qatnasıw barısında hám teatr obrazların jaratıw arqalı gózzallıq sezimin rawajlandırıp, kórkem óner menen tanıstıradı. «Teatr balalarğa kórkem obrazlar dúnyasını ashıp beriw arqalı estetikalıq talǵamdı qalıplestiredi» [4,29] Mısal: Saxna bezewlerin jaratıw balalarğa gózzallıqtı qádirlewge, estetikalıq hám etikalıq sulıwlıqtı qádirlewge úyretedi. Sın pikirlewdi rawajlandırıp: Saxna oyını balalardı qaharmanlardıń minez-qulqların analizlewge hám átirapında júz berip atırǵan waqıyaların mániis mazmunını túsiniw qarar qabıllawǵa úndeydi, bul bolsa sın pikirlew qábiletin rawajlantıradı. «Saxnalıq oyın, iskerlik forması retinde, balağa refleksiya hám analiz qılıw qábiletin rawajlandırıp arqalı social wazıypalardı modellestiriw imkaniyatın beredi» [14,124] Mısal: «Shalǵam» ertekine tiykarlangan rol oynawda balalar ne ushın bir-birine járdem beriw kerekligini talqılasadı, bunıń sebepleri hám aqıbetleri talqılanadı. Ózine isenim payda etiw: Saxna oyınlarında qatnasıw kópshilik aldında sóylew qáweterin jeńiwge járdem beredi hám óz salawatın bekkemleydi. Balalar ózlerin túrli roldi kórsetiwdi úyreniwedi, bul bolsa olarğa óz isenimin asıradı. «Teatr iskerligi óz-ózin ańlatıw ushın sharayat jaratadı, balalarğa óz potencialın ashıwǵa járdem beredi» [1,56]. Mısal: Quwırshaq teatrında, bala quwırshaqtı basqarǵanlıqtan qátelesiw háweteri azayadı. Sebebi, balalar quwırshaqlardı basqarǵanlıqtan, tamashǵóylerdiń názeri quwırshaqta boladı, bala bolsa

tamashǵóylerdiń názerinen shette boladı. Qáweterleniw, tınıssızlanıwı, qorqıwı hám úyatı basım bolǵan balalardı saxnaǵa alıp shıqpastan quwırshaq teatrında saxnanıń artında yaǵniy quwırshaqtı basqarıp teatrǵa biyimlesse maqsetke muwapıq boladı. Empatik qábiletlerdi rawajlandırıp: Saxna oyınıń bir túri retinde balalardı tárbiyalawda ayırıqsha ornı bar. Balalar quwırshaq yaqı basqa shaxslardıń obrızına kiriw arqalı sol obrazdıń sezimlerin ózinde seziniw kóredi. Quwırshaqlardı janlandırıp, obraz qaharmanını keypine kiriw arqalı empatiyası rawajlanadı. «Quwırshaq teatrını, obrazlı teatrdan balalar ushın ayırıqsha ózgesheligi, quwırshaqtı basqarıp arqalı bala basqalardıń sezimlerin qawıpsız oyın forması arqalı túsiniwdi úyrenedi» [4,29 b]. Mısal: Balalar quwırshaq qaharmanlarınıń quwanışı hám qayǵısın seziniw hám quwırshaqlardıń ornına ózin qoyıp empatiyası rawajlanadı.

Mektep ortalıǵına biyimlesiw hám sociallastırıp: Saxna oyınları balalarğa toparlıq iskerlik arqalı mektep ortalıǵına iykemlesiwge járdem beredi, toparǵa tiyislik sezimi payda etedi. Bul óz gezeginde mektepke jańadan kóship kelgen balalar hám mektep bosaǵasına kelgen 1-klass oqıwshılarına ótkerilse maqsetke muwapıq boladı. «Teatr oyınları sociallastırıp kómeklesedi, toparlar arasında awızbirshilikti qalıplestiriw ushın sharayat jaratadı» [5,112]. Mısal: Toparlıq saxnalastırıp jańa kelgenlerge ulıwma dóretiwshilik wazıypa arqalı tezirek integraciyanıwına járdem beredi. Oyda sawlelendiriw hám jeke qábiletin rawajlandırıp: Saxna oyınları oyda sawlelendiriwdi xoshametleydi, balalarǵa ózleriniń gúrriń hám obrazların jaratıwǵa múmkinshilik beredi. Bul ásirese baslawsh klass oqıwshılarına zárúr. Sebebi, dóretiwshilik penen shuǵullanıw hám ózi qálegen obrazdı dóretiw mektepke muxabbatı kúsheytirip, bilim alıw motivaciyasın xoshametleydi. «Teatrdáǵı oyın bala ushın fantaziya dúnyasını ashıp beredi, bala teatrda kórkem ónerdi jaratıwshılarınıń birine aylanadı» [11,34]. Mısal: Improvizaciya yaǵniy balalar gúrrińniń dawamın oylap tabadı, balada tezlik penen oylap tabıw qábiletin menen birge dóretiwshiligi rawajlanadı.

Álbette, balalardıń minez-qulqınıń formalanıwı menen birge balanıń álemdi tanıwında, qorshaǵan ortalıq penen qarım-qatnas qurıwında hám shaxs bolıp

jetilisiwinde teatrđn ornı bólek. Hár bir ata-ana perzentleriniń keleshegi ushın balalardı

teatr menen tanıstırsaq maqsetke muwapıq bolar edi.

### **Paydalanılğan ádebiyatlar**

1. Боал А. Игры для актеров и не-актеров. — М.: Прогресс, 1998. — С. 56.
2. Выготский Л.С. Игра и ее роль в психическом развитии ребенка // Вопросы психологии. — 1966. — № 6. — С. 62.
3. Ершова А. П. Обучение актера по системе П. М. Ершова: о секретах актёрского мастерства. Петрозаводск, 2020. 174 с.
4. Караманенко Т.Н. Кукольный театр для детей. — М.: Просвещение, 1982. — С. 29.
5. Мудрик А.В. Социализация человека. — М.: Академия, 2006. — С. 112.
6. Подласый И.П. Педагогика начальной школы. — М.: ВЛАДОС, 2000. — С. 134.
7. Сац Н.И. Дети приходят в театр. — М.: Искусство, 1961. — С. 45.
8. Сац Н.И. Дети приходят в театр. — М.: Искусство, 1961. — С. 47.
9. Скаткин, М. Н. Скаткин, М. В. Голованов; под ред. Н. П. Кузина, М. Н. Скаткина, В. Н. Шацкой. Москва: Педагогика, 1980.
10. Т.Н. Кукольный театр для детей. — М.: Просвещение, 1982. — С. 34.
11. Эльконин Д.Б. Психология игры. — М.: Педагогика, 1978. — С. 102.

**REZYUME.** Ushbu maqolada boshlangich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda teatrlarning ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan. Bolalarning rivojlanishida odob-ahloq tarbiyasi, jamiyat rivojlanishi, moliyaviy rivojlanish, barpo etish qobiliyati, nutq madaniyati, estetik tarbiya, emotsional rivojlanishi uchun ahamiyati korsatib berilgan.

**РЕЗЮМЕ.** В этой статье приводятся сведения о роли театров в воспитании учеников начальных классов. В развитии детей закреплено значение нравственного воспитания, развития общества, финансового развития, созидательных способностей, культуры речи, эстетического воспитания, эмоционального развития.

**SUMMARY.** This article provides information about the role of theaters in the education of primary school students. The development of children emphasizes the importance of moral education, social development, financial development, creative abilities, speech culture, aesthetic education, and emotional development.

## **KITOBXONLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KUTUBXONALARNING PEDAGOGIK ROLI**

**Sharipova Dilbarxan Atajanovna – docent**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali*

**Tayanch so'zlar:** kitobxonlik madaniyati, kutubxona, pedagogik rol, o'qish motivatsiyasi, ma'naviy tarbiya.

**Ключевые слова:** культура чтения, библиотека, педагогическая роль, мотивация к чтению, духовное воспитание.

**Key words:** reading culture, library, pedagogical role, reading motivation, moral education.

**Kirish.** Bugungi kunda axborot texnologiyalari tez sur'atda rivojlanayotgani bilan birga, kitobxonlik madaniyati jamiyatning ma'naviy, intellektual va madaniy rivojlanishida muhim omil sifatida tan olinmoqda. Kitob o'qish nafaqat shaxsning bilim salohiyatini oshiradi, balki uning tanqidiy fikrlash qobiliyati, axborotni

tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini ham mustahkamlaydi. Shu bois, kitobxonlikni targ'ib qilish davlatning ijtimoiy-madaniy siyosati markazida turadi, chunki u milliy qadriyatlarni saqlash va yosh avlodni ma'naviy barkamol yetishtirish uchun strategik ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan davlat darajasida ham kitobxonlikni

rivojlantirishga qaratilgan huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda.

Ayni paytda, 2026-yil 15-yanvarda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori “Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o‘rtasida kitob o‘qishga qiziqishni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (PQ-9-son) mazmunan yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu qaror bilan 2026–2030-yillarda aholining kitobxonlik darajasini yiliga o‘rtacha har bir fuqaro bo‘yicha kamida 10 ta kitobga yetkazish bo‘yicha aniq maqsadlar belgilandi va shunga muvofiq davlat dasturlari joriy etildi [1]. Shu bilan birga, qaror bilan “Kitob – ma‘rifat manbai” dasturi joriy etilib, umumta‘lim muassasalarida “Jadidlar izidan” kitobxonlik klublari tashkil etilishi, ularning faoliyatini rag‘batlantirish orqali kitobga bo‘lgan qiziqish oshirilishi nazarda tutiladi. Aniq maqsadlar va tizimli chora-tadbirlarni belgilab bergan mazkur davlat siyosati kitobxonlik madaniyatini pedagogik nuqtai nazardan yondashishga mustahkam zamin yaratadi. Shu jihatdan qaraganda, kutubxonalar nafaqat axborot manbai sifatida, balki shaxsning ta‘lim-tarbiya jarayonidagi pedagogik muhit sifatida ham ahamiyat kasb etadi — ularning faoliyati o‘quvchilarda o‘qishga bo‘lgan motivatsiyani shakllantirish, mustaqil izlanish ko‘nikmalarini rivojlantirish va ma‘naviy o‘sishga xilma-xil ta‘sir ko‘rsatish orqali amalga oshadi [2]. Shu bois, mazkur maqola doirasida kutubxonalar faoliyatining pedagogik mohiyati, ularning kitobxonlik madaniyatini mustahkamlashdagi roli hamda davlat siyosati bilan integratsiyalashuvi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyatning ma‘naviy-madaniy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

### **Metodologiya**

Mazkur tadqiqot pedagogik, sotsiokultural va kutubxonashunoslik yondashuvlari integratsiyasi asosida olib borildi. Tadqiqot metodologiyasi kitobxonlik madaniyatini shaxs rivojlanishining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qiluvchi zamonaviy ilmiy qarashlarga tayangan holda shakllantirildi. Xususan, tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, pedagogik tahlil, taqqoslash, umumlashtirish hamda kontent tahlil metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi.

Avvalo, tizimli yondashuv asosida kutubxonalar kitobxonlik madaniyatini rivojlantiruvchi yaxlit pedagogik tizim sifatida ko‘rib chiqildi.

Bu yondashuv kutubxona faoliyatini ta‘lim muassasalari, oila va jamiyat bilan o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilish imkonini berdi. Shu orqali kutubxonaning faqat axborot yetkazuvchi emas, balki tarbiyaviy va rivojlantiruvchi pedagogik muhit ekanligi ilmiy asosda yoritildi. Bundan tashqari, pedagogik tahlil metodi orqali kutubxonalarda amalga oshirilayotgan kitobxonlikni rag‘batlantirishga qaratilgan tadbirlar, o‘qish klublari, adabiy uchrashuvlar va madaniy-ma‘rifiy loyihalarning ta‘limiy samaradorligi baholandi. Mazkur metod shaxsda o‘qishga bo‘lgan ichki motivatsiyaning shakllanish mexanizmlarini aniqlashga xizmat qildi. Tadqiqotning muhim metodologik asosini ilmiy adabiyotlar tahlili tashkil etdi. Jumladan, pedagogika nazariyasida o‘qish va kitobxonlik madaniyati masalalari bilan shug‘ullangan olimlarning ishlari chuqur o‘rganildi. Xususan, V.A. Suxomlinskiy o‘qishni shaxsning ma‘naviy kamolotiga eltuvchi asosiy vosita sifatida baholab, kutubxonani “fikrlash maktabi” deb ta‘riflaydi. Ushbu qarash tadqiqotda kutubxonani tarbiyaviy makon sifatida tahlil qilishda metodologik tayanch vazifasini bajardi [6]. Shuningdek, L.S. Vygotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasiga tayangan holda, o‘qish jarayoni shaxs rivojlanishining ijtimoiy-madaniy omillari bilan uzviy bog‘liqlikda talqin qilindi. Ushbu yondashuv kutubxonani bilimlarning ijtimoiylashtirilish makoni sifatida baholash imkonini berdi [7].

Bundan tashqari, J. Brunerning konstruktivistik ta‘lim nazariyasiga ko‘ra, bilim o‘quvchi tomonidan faol o‘zlashtiriladi; shu bois kutubxonadagi mustaqil o‘qish jarayoni shaxsning kognitiv rivojiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi [3]. Kutubxonashunoslik sohasidagi tadqiqotlarda esa zamonaviy kutubxonalarning funksional o‘zgarishi, ya‘ni ularning an‘anaviy kitob saqlash markazidan ta‘limiy va madaniy platformaga aylanishi alohida ta‘kidlanadi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda chop etilgan ilmiy ishlar kutubxonachining pedagogik kompetensiyasi, o‘quvchi bilan individual ishlash usullari va

o'qish muhitini tashkil etish masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Ushbu qarashlar tadqiqotning nazariy poydevorini mustahkamladi. Bundan tashqari, tadqiqotda taqqoslash metodi yordamida turli yosh guruhlari uchun mo'ljallangan kutubxona faoliyati shakllari tahlil qilindi hamda ularning pedagogik samaradorligi qiyosiy baholandi. Umumlashtirish metodi esa mavjud nazariy qarashlar va amaliy tajribalarni tizimlashtirish orqali yakuniy ilmiy xulosalarni shakllantirishga xizmat qildi. Natijada, tanlangan metodologiya kutubxonalarning kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishdagi pedagogik rolini har tomonlama ochib berish, nazariy qarashlar va amaliy tajribalarni o'zaro uyg'unlikda tahlil qilish imkonini berdi.

**Natijalar.** O'tkazilgan nazariy va pedagogik tahlillar natijalari shuni ko'rsatadiki, kutubxonalar kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda ko'p qirrali va tizimli pedagogik ta'sir mexanizmlariga ega muhim institut hisoblanadi. Avvalo, kutubxona muhiti o'quvchilarda o'qishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiruvchi omil sifatida namoyon bo'ldi. Ayniqsa, muntazam ravishda kutubxonadan foydalanadigan o'quvchilarda o'qish jarayoniga bo'lgan ichki motivatsiya yuqori ekanligi aniqlandi.

Bundan tashqari, tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, kutubxonalarda tashkil etiladigan maqsadli pedagogik tadbirlar — adabiy kechalar, kitob taqdimotlari, tematik o'qish haftaliklari va mualliflar bilan uchrashuvlar — kitobxonlik madaniyatining barqaror rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Chunki bunday tadbirlar orqali o'quvchilar o'qish jarayonini faqat individual faoliyat emas, balki ijtimoiy-madaniy tajriba sifatida qabul qila boshlaydi. Natijada, o'qish jarayoni shaxslararo muloqot va fikr almashish vositasiga aylanadi. Shu bilan birga, natijalar kutubxonachining pedagogik faoliyati kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda hal qiluvchi omil ekanini tasdiqladi. Xususan, o'quvchi yoshiga, qiziqish doirasiga va psixologik xususiyatlariga mos ravishda tavsiya etilgan adabiyotlar o'qishga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Demak, individual yondashuv kutubxona pedagogikasining eng

samarali komponentlaridan biri sifatida namoyon bo'ldi. Bundan tashqari, tahlil jarayonida kutubxona faoliyatining ta'lim jarayoni bilan integratsiyalashuvi muhim natijalar berishi aniqlangan. Xususan, maktab va oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda tashkil etilgan kutubxona mashg'ulotlari o'quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada, o'quvchilar nafaqat matni o'qish, balki uni tahlil qilish, solishtirish va xulosalash ko'nikmalarini ham egallaydi. Shuningdek, zamonaviy raqamli texnologiyalar joriy etilgan kutubxonalarda kitobxonlik faoliyatining yanada faollashgani kuzatildi. Elektron kataloglar, raqamli kutubxonalar va onlayn o'qish platformalaridan foydalanish o'quvchilarning axborotga bo'lgan kirish imkoniyatlarini kengaytirib, ularning axborot madaniyatini rivojlantirdi. Shu bilan birga, an'anaviy bosma kitoblar bilan ishlash raqamli resurslar orqali to'ldirilgani kitobxonlik jarayonining samaradorligini oshirdi. Natijalar shuni ham ko'rsatdiki, kutubxona–oila–ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlik kitobxonlik madaniyatining barqaror shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Xususan, ota-onalarning kutubxona tadbirlarida ishtiroki va bolalarning o'qish faoliyatiga qiziqish bildirishlari o'quvchilarning kitobga bo'lgan munosabatini mustahkamladi. Demak, kutubxona faoliyatining ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishi uning pedagogik samaradorligini yanada oshiradi.

### **Muhokama**

Olingan natijalar kutubxonalarning kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishdagi pedagogik roli tasodifiy emas, balki ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan tizimli jarayon ekanini tasdiqlaydi. Avvalo, tadqiqot natijalari pedagogika fanida ilgari surilgan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi bilan to'liq uyg'unlashadi. Chunki kitobxonlik madaniyati faqat o'qish texnikasini egallash bilan chegaralanmay, balki shaxsning intellektual, axloqiy va madaniy kamolotini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, kutubxonalar an'anaviy ta'lim muassasalarini to'ldiruvchi norasmiy pedagogik makon sifatida faoliyat yuritadi.

Natijalarda aniqlanganki, kutubxona muhitida o'qish majburiyat emas, balki ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojga aylanishi o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartiradi. Bu holat pedagogika nazariyasida ta'kidlangan ichki motivatsiyaning ustuvorligi g'oyasini yana bir bor tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, kutubxonachining pedagogik faoliyati bilan bog'liq natijalar shuni ko'rsatadiki, kutubxonachi shunchaki axborot yetkazuvchi emas, balki tarbiyachi-pedagog sifatida faoliyat yuritishi zarur. Individual yondashuv, yosh va qiziqishlarga mos adabiyot tanlash, o'quvchi bilan muloqotga asoslangan ishlash usullari kitobxonlik madaniyatining barqaror shakllanishiga olib keladi. Bu esa zamonaviy pedagogik kompetensiyalar tizimida kutubxonachining o'rni tobora kengayib borayotganini anglatadi. Natijalar va ularning tahlili shuni ham ko'rsatadiki, kutubxonalarning ta'lim muassasalari bilan integratsiyalashuvi o'quvchilarning axborot bilan ishlash madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Chunki hozirgi davrda muammo faqat axborotga ega bo'lish emas, balki uni tanlash, tahlil qilish va tanqidiy baholash qobiliyatiga ega bo'lishdir. Shu ma'noda, kutubxona pedagogik faoliyati o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning samarali vositasiga aylanadi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar bilan boyitilgan kutubxona faoliyati yuzasidan olingan natijalar zamonaviy ta'lim paradigmasiga mos keladi. Elektron resurslardan foydalanish o'quvchilarning axborot savodxonligini oshirsa-da, an'anaviy bosma kitoblarning pedagogik va estetik ahamiyati saqlanib qolayotgani muhim jihat sifatida baholanadi. Demak, raqamli va an'anaviy o'qish shakllarining uyg'unligi kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda eng maqbul yondashuv hisoblanadi. Bundan tashqari, kutubxona-oila-ta'lim muassasasi hamkorligi yuzasidan olingan natijalar ijtimoiy-pedagogik jihatdan muhim xulosalarni beradi. Xususan, oila tomonidan qo'llab-quvvatlangan kitobxonlik faoliyati o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabatini mustahkamlab, uni kundalik

hayot me'yoriga aylantiradi. Bu holat pedagogika fanida ijtimoiy muhitning tarbiyadagi hal qiluvchi roli haqidagi qarashlarni yana bir bor tasdiqlaydi. Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, kutubxonalar kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda ta'limiy, tarbiyaviy va ijtimoiy funksiyalarni uyg'unlashtiruvchi pedagogik tizim sifatida faoliyat yuritadi. Shu sababli, ularning pedagogik imkoniyatlaridan samarali foydalanish jamiyatning intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot natijalari kutubxonalarning kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda muhim pedagogik institut sifatida faoliyat yuritishini ilmiy asosda tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida aniqlanganki, kutubxonalar shaxsning intellektual, ma'naviy va madaniy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi ta'limiy muhitni shakllantiradi. Shu bois, ularni faqat axborot resurslari majmui sifatida emas, balki tarbiyaviy va rivojlantiruvchi pedagogik makon sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. Birinchidan, kutubxona muhiti o'quvchilarda o'qishga bo'lgan ichki motivatsiyani shakllantirishda samarali vosita ekanligi aniqlandi. Muntazam mutolaa jarayoni orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va xulosalash ko'nikmalari rivojlanadi. Natijada, o'qish jarayoni majburiyatdan shaxsiy ehtiyojga aylanadi. Ikkinchidan, kutubxonachining pedagogik faoliyati kitobxonlik madaniyatining barqaror rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi tasdiqlandi. Xususan, individual yondashuv, yosh va qiziqishlarga mos adabiyot tavsiyasi, shuningdek, muloqotga asoslangan ishlash usullari o'quvchilarning kitobga bo'lgan ijobiy munosabatini mustahkamlaydi. Demak, zamonaviy kutubxonachidan pedagogik kompetensiyalarga ega bo'lish talab etiladi. Uchinchidan, kutubxonalar faoliyatining ta'lim muassasalari va oila bilan integratsiyalashuvi kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning muhim sharti ekanligi aniqlandi. Bunday hamkorlik o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini mustahkamlab, uni kundalik hayotning ajralmas qismiga

aylantiradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar bilan boyitilgan kutubxona faoliyati o'quvchilarning axborot savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kutubxonalar kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda ta'limiy, tarbiyaviy va ijtimoiy funksiyalarni uyg'unlashtiruvchi

pedagogik tizim sifatida muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, ularning pedagogik imkoniyatlaridan samarali foydalanish, zamonaviy ta'lim siyosati doirasida qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamiyatning intellektual hamda ma'naviy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o'rtasida kitob o'qishga qiziqishni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-9-son Qarori. — Toshkent, 15-yanvar, 2026
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "2026–2030-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish davlat dasturi to'g'risida". — Toshkent, 2026.
3. Bruner, J. S. (1960). *The Process of Education*, Harvard, Univ. Press, Cambridge, Mass.
4. Nazarov, Sh. (2020). Oila va maktab hamkorligining tarbiyaviy ahamiyati. *Ma'naviyat va ma'rifat*, 11(2), 52–59.
5. Sohiba Yo'ldasheva (2023). Axborot asrida zamonaviy kutubxonalarning o'rni. *Oriental Art and Culture*, 4 (6), 268-274.
6. Suxomlinskiy, V.A. *Yurakni bolalarga beraman*. – Toshkent: O'qituvchi, 1982.
7. Vygotskiy, L. S. *Tafakkur va nutq*. — Moskva: Labirint, 1999.

**REZYUME.** Mazkur maqolada kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda kutubxonalarning pedagogik roli chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda kutubxonalar shaxsning intellektual, ma'naviy va madaniy rivojiga xizmat qiluvchi muhim pedagogik institut sifatida talqin etiladi. Shuningdek, kutubxona faoliyatining ta'lim jarayoni, oila va jamiyat bilan integratsiyasi, o'qishga bo'lgan ichki motivatsiyani shakllantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijalari kutubxonalar kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda ta'limiy, tarbiyaviy va ijtimoiy funksiyalarni uyg'un tarzda amalga oshirishini ko'rsatadi.

**РЕЗЮМЕ.** В статье проводится глубокий анализ педагогической роли библиотек в развитии культуры чтения. Библиотеки рассматриваются как важный педагогический институт, способствующий интеллектуальному, духовному и культурному развитию личности. Особое внимание уделяется интеграции библиотечной деятельности с образовательными учреждениями, семьёй и обществом, а также формированию внутренней мотивации к чтению. Результаты исследования показывают, что библиотеки выполняют образовательные, воспитательные и социальные функции в процессе формирования культуры чтения.

**SUMMARY.** This article provides an in-depth analysis of the pedagogical role of libraries in developing reading culture. Libraries are examined as significant pedagogical institutions that contribute to the intellectual, moral, and cultural development of individuals. Particular attention is paid to the integration of library activities with educational institutions, family, and society, as well as to the formation of intrinsic motivation for reading. The findings demonstrate that libraries perform educational, formative, and social functions in fostering a sustainable reading culture.

## QADIMGI QORAQOLPOG‘ISTON HUDUDIDA JISMONIY MASHQLARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

**R.Z.Berdimuratov** – o‘qituvchi

*O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali*

**Tayanch so‘zlar.** Qoraqolpog‘iston, qadimgi davr, jismoniy mashqlar, harbiy tayyorgarlik, o‘yinlar, kurash, marosim.

**Ключевые слова.** Каракалпакстан, древность, физические упражнения, военная подготовка, игры, борьба, обряды.

**Key words.** Karakalpakstan, antiquity, physical exercises, military training, games, wrestling, rituals.

Mavzuni ilmiy muammo sifatida qo‘yishda qadimgi Qoraqolpog‘iston hududi deganda Amudaryoning quyi oqimi va Orolbo‘yi vohalari, ularning ko‘chmanchi-dasht zonalari bilan uzviy aloqador madaniy makon tushuniladi. Aynan shu makonda jismoniy mashqlar faqat “sport” ma’nosida emas, balki yashash uchun zarur mehnat ko‘nikmalari, qurolli to‘qnashuvlar sharoitida chidamlilik va chaqqonlikni ta’minlovchi tayyorgarlik, shuningdek, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlovchi marosim, o‘yin amaliyotlari sifatida shakllangan. Shu sababli tadqiqotning maqsadi jismoniy mashqlarning rivojlanishini alohida turlar tarixiga ajratib yubormasdan, ularni jamiyatning xo‘jalik-iqtisodiy, harbiy va ramziy ehtiyojlari bilan bir butun tizimda tahlil qilishdan iborat.

Metodologik asos sifatida tarixiylik va tizimlilik, madaniy-antropologik yondashuv, qiyosiy-tipologik tahlil hamda arxeologik, ikonografik va yozma manbalar uyg‘unligi tanlandi; bunda jismoniy mashqlarni ifodalovchi dalil sifatida mehnat qurollari va qurol-aslaha, ot anjomlari, tasviriy san’at motivlari, dafn marosimi atributlari hamda etnografik analogiyalar birgalikda ko‘rib chiqiladi [1; 2].

Birinchi bosqich sifatida ibtidoiy va eneolit davrlarida jismoniy mashqlar asosan bevosita tirikchilik faoliyati bilan qo‘shilib ketgan holat tavsiflanadi. Ovchilik va baliqchilikning ustuvorligi kuch, koordinatsiya, masofani chamalash, tezkor qaror qabul qilish kabi sifatlarni shakllantirgan; bu jarayon “mashq”ning maqsadli shaklga ajralmagan, ammo takrorlanuvchi mehnat harakati orqali

barqarorlashgan ko‘rinishidir. Masalan, ulotirish va nishonga urish ko‘nikmalari ov jarayonida sinovdan o‘tib, keyinchalik raqobatga asoslangan o‘yin elementlariga aylanishi ehtimoli yuqori, chunki jamoa ichidagi taqsimot va obro‘ mezonlarida mohirlik muhim omil bo‘lgan. Aynan shu yerda jismoniy mashqlar evolyutsiyasining dastlabki mezoni ko‘rinadi: amaliy foydadan ajralmagan harakatlar asta-sekin sinov, bellashuv va namoyish funksiyasini ham bajara boshlaydi. Qadimgi Orolbo‘yi iqlimi va landshafti bilan bog‘liq moslashuvlar chidamlilik, uzoq masofaga yurish va suv to‘siqlarini yengib o‘tish ko‘nikmalarini ham kuchaytirgan bo‘lib, keyingi davrlarda harbiy va transport tizimlari rivojiga zamin yaratgan [3]. Ikkinchi bosqich bronza davri va ilk temir davriga o‘tish jarayoni bilan bog‘lanadi; bu davrda ijtimoiy mehnat taqsimoti, harbiylashuv elementlari va chorvachilikning kengayishi jismoniy mashqlarning maqsadli tayyorgarlik ko‘rinishlarini kuchaytiradi. Chorvachilik-kompleks xo‘jalik otni boshqarish, tez yurish, to‘siqlardan o‘tish, podani himoyalash kabi murakkab harakatlar tizimini talab qiladi; natijada otchoparlik, chavandozlik va qurol bilan muomala qilish bir-biriga bog‘langan “harakat madaniyati”ga aylanadi. Bu bosqichda jismoniy mashqlarni periodlashtirishning ikkinchi mezoni aniqroq ko‘rinadi: mashqlar harbiy va xo‘jalik institutlari doirasida ijtimoiy nazorat va o‘rgatish mexanizmlariga ega bo‘la boshlaydi. Arxeologik dalillarda qurol-aslaha turlari, ot anjomlari, jangovar atributlar ko‘payishi aynan shunday tayyorgarlik mavjud

bo‘lganini bilvosita ko‘rsatadi. Jismoniy tayyorgarlikning mazmuni ham o‘zgaradi: yakka kuch sinovidan tashkiliy harakat, safga yaqinlashuvchi muvofiqlashuv va tezkor manevrga xizmat qiluvchi ko‘nikmalar tomon siljiydi [2; 4].

Uchinchi bosqich qadimgi davlatlashuv va shahar madaniyati kuchaygan davrlar bilan izohlanadi; bu yerda Qoraqolpog‘iston hududi Xorazm vohasi va unga tutash mintaqalar bilan o‘zaro ta‘sir maydonida bo‘lib, jismoniy mashqlar ham ijtimoiy hayotning ko‘proq rasmiylashgan shakllariga kirib boradi. Bu jarayonda jismoniy mashqlar ikki yo‘nalishda rivojlanganini ko‘rish mumkin: birinchisi harbiy-amaliy yo‘nalish bo‘lib, piyoda va otliq jangchilarning tayyorgarligida chidamlilik, kuch va epchillikni rivojlantirishga xizmat qiladi; ikkinchisi esa ommaviy tomosha va marosim unsurlari bilan uyg‘unlashgan bellashuvlar bo‘lib, ijtimoiy birlikni mustahkamlovchi, mavsumiy yig‘inlarda ijtimoiy kommunikatsiyani kuchaytiruvchi vositaga aylanadi. Qiyosiy tahlilda bu holat Markaziy Osiyoning boshqa hududlarida kuzatilgan o‘xshash jarayonlar bilan mos keladi: davlat va shahar muhitida harbiy tayyorgarlik standartlashadi, bellashuv esa ramziy-bayramona mazmun oladi [4; 5]. Shu nuqtada jismoniy mashqlarning uchinchi mezonini taklif etiladi: ular ijtimoiy legitimatsiya va nufuz ishlab chiqarish mexanizmlariga xizmat qila boshlaydi, ya‘ni g‘oliblik va mahorat shaxsiy fazilatdan tashqari jamoadagi mavqe va vakillik timsoliga aylanadi.

To‘rtinchi bosqich sifatida ko‘chmanchidasht an‘analari bilan vo‘ha madaniyatining uzoq davom etgan sintezi ko‘rsatiladi. Mintaqa tarixida ko‘chmanchi guruhlar bilan o‘troq aholi o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy almashinuv jismoniy mashqlar repertuarini boyitgan: ot ustida bajariladigan mashqlar, qurol bilan harakat, guruh bo‘lib ov qilish, shuningdek, kuch sinoviga asoslangan kurash tipidagi bellashuvlar shu sintezda barqaror shakl olgan. Kurashning mazmuni bu yerda faqat musobaqa sifatida emas, balki ijtimoiy nazorat, yoshlarni tarbiyalash va mojarolarni tartibga solishning ramziy usuli sifatida ko‘riladi; chunki kurash qoidaga bo‘ysunuvchi to‘qnashuv bo‘lib,

zo‘ravonlikni me‘yorlashtirish va jasoratni “qabul qilinadigan” shaklda namoyish etish imkonini bergan. Shu bilan birga, o‘yinlar va bellashuvlar mavsumiy marosimlarga bog‘lanib, jamoaning umumiy ritmini belgilovchi omilga aylangan; ular orqali jismoniy tayyorgarlik uzluksiz reproduksiya qilinadi, ya‘ni avloddan avlodga o‘tadi. Etnografik va tarixiy qarashlar uyg‘unligida bu hodisa “an‘ana orqali trening” modeli sifatida izohlanadi: rasmiy maktab bo‘lmasa ham, marosim, o‘yin va kundalik mehnatning o‘zi trening maydonini yaratadi [1; 6]. Bosqichlarni ajratishda asosiy xavf jismoniy mashqlarni zamonaviy sport turlari mezoniga ko‘ra orqaga ko‘chirishdir; shu bois tezis jismoniy mashqlarni funksional xususiyatlari bilan baholaydi. Funksional yondashuv shuni ko‘rsatadiki, bir xil harakat turi turli davrlarda turlicha ijtimoiy ma‘no kasb etgan: masalan, ot chopish dastlab transport va ov ehtiyojidan kelib chiqsa, keyinchalik harbiy manevr va nufuz ko‘rsatkichiga aylanadi; kurash esa jismoniy kuchni sinashdan tashqari, jamoaviy tartib va erkaklik idealining me‘yoriy ko‘rinishiga xizmat qilgan. Xalqaro sport tarixi va jismoniy tarbiya nazariyasi doirasida ham jismoniy madaniyatning bunday ko‘p funksiyali tabiati qayd etiladi, ya‘ni jismoniy mashqlar jamiyatning institutsional ehtiyojlari bilan birga o‘zgarib boradi [5; 7]. Demak, qadimgi Qoraqolpog‘iston hududida jismoniy mashqlar tarixini rekonstruksiya qilishda asosiy e‘tibor harakatlarning o‘ziga emas, ularni ishlab chiqargan ijtimoiy muhit, tarbiyaviy mexanizm va ramziy mazmunga qaratilishi ilmiy jihatdan to‘g‘riroqdir. Tadqiqot natijalarini umumlashtirib aytganda, qadimgi Qoraqolpog‘iston hududida jismoniy mashqlar rivoji to‘rtta mantiqiy yo‘nalishning o‘zaro kesishgan dinamikasi bilan belgilanadi: tirikchilik faoliyatidan kelib chiqqan tabiiy harakatlar, chorvachilik va ot madaniyati asosida murakkablashgan ko‘nikmalar, harbiylashuv va davlatlashuv sharoitida standartlashgan tayyorgarlik, hamda marosim-o‘yin amaliyotlari orqali avlodlararo uzluksizlikni ta‘minlagan an‘ana.

Shu asosda bosqichlashtirish mezonlari sifatida harakatning amaliy foydaga bog‘liqligi darajasi, o‘rgatishning ijtimoiy institutsionallashuvi, bellashuvning ramziy-

ommaviylashuvi va tayyorgarlikning ko'chmanchi-voha sintezida barqarorlashuvi taklif etiladi. Mazkur yondashuv 13.00.04 ixtisosligi doirasida jismoniy tarbiya tarixini

mintaqaviy dalillar bilan boyitadi, shu bilan birga, jismoniy madaniyatni qadimgi jamiyatning kompleks hayotiy tizimi sifatida talqin qilish imkonini kengaytiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedov B. A. O'zbekiston tarixi: qadimgi davr va o'rta asrlar. Toshkent, O'qituvchi, 2019.
2. Tolstov S. P. Po drevnim deltam Oksa i Yaksarta. Moskva, 1962.
3. Asqarov A. A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. Toshkent, Fan, 2007. 312 b.
4. Masson V. M. Drevnie zemledelcheskie kultury Sredney Azii. Leningrad, Nauka, 1977. 240 s.
